



I. TOYMUXAMEDOV

# BANK VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYA

336-5(07)  
7-61.


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**I.R.TOYMUXAMEDOV**

# **BANK VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYA**

**(Kredit-modul bo'yicha)  
(Darslik)**



**TOSHKENT – 2022**

U O'K : 336. 5(07)

KBK 65.262.1

T 88

I.R.Toymuxamedov. Bank va moliyaviy texnologiya. (Darslik).– T.:  
“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022, 306 bet.

ISBN 978-9943-8750-6-7

“Bank va moliyaviy texnologiya” nomli darslik mazkur fan bo'yicha tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tayyorlangan. Darslikda banklar faoliyati va ular tomonidan foydalaniladigan moliyaviy texnologiyalarning paydo bo'lish mohiyati, ularning sabablari, rivojlangan xorijiy mamlakatlar bank tizimi faoliyatida moliyaviy texnologiyalardan foydalanish va ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda xalqaro bank sektori faoliyatini boshqarishdagi amaliyotidan O'zbekiston bank tizimiga moliyaviy texnologiyalarni samarali joriy qilishda foydalanishni takomillashtirish yo'llari kabilari o'z ifodasini topgan.

\*\*\*

Учебник под названием «Банк и финансовые технологии» подготовлен на основе утверждённой учебной программы курса. В учебнике освещены сущность деятельности банков и возникновение финансовых технологий используемых ими, их причины, использование финансовых технологий в деятельности банковской системы развитых зарубежных странах и их специфические особенности, а также пути совершенствования внедрение международного опыта по использованию финансовых технологий в банковской системы Узбекистана.

\*\*\*

The textbook entitled "Bank and Financial Technologies" has been prepared on the basis of the approved curriculum of the course. The textbook highlights the essence of banks' activities and the emergence of financial technologies used by them, their causes, the use of financial technologies in the banking system of developed foreign countries and their specific features, as well as ways to improve the introduction of international experience in the use of financial technologies in the banking system of Uzbekistan.

U O'K : 336. 5(07)

KBK 65.262.1

#### Taqrizchilar:

J.Y. Isakov – i.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Bank ishi va investitsiyalar” kafedrasini professori;

Sh.R. Abdullayeva – i.f.n., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahar filiali «Moliya va kredit» kafedrasini dotsenti.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2022 yil 24 oktabrdagi 328-sonli buyrug'iga asosan nashr qilindi.

ISBN 978-9943-8750-6-7

## KIRISH

Butun dunyoda bank biznesi iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bank biznesi yuqori texnologiyali bo'lganligi sababli, u doimo makro va mikro darajadagi o'zgarishlarga moyildir. Bunday o'zgarishlar kredit tashkilotlari va bozorlarining baynalmillalashuvining kuchayishi, bank qonunchiligi va zamonaviy kompyuter texnologiyalarining takomillashtirilishi, bank xizmatlari bozorlarida raqobat darajasining oshishi, moliya bozorlarida yangi bank mahsulotlari va xizmatlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Banklar iqtisodiyotning o'ziga xos "qon aylanish tizimi" vazifasini bajaradi, shuning uchun har bir davlatning bank tizimi bir tekis, barqaror va samarali faoliyat yuritishi muhim ahamiyatga ega.

Tijorat banklarining asosiy maqsadi foyda olishdir. Biroq, bank sektorining asosiy vazifasi, ayni paytda, faqat mijozlarga xizmat ko'rsatishni amalga oshirish emas, balki kelajakda banklarga daromad olish va rivojlanish imkonini beruvchi ularning real sonini imkon qadar ko'proq jalb qilishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy o'sishning tobora muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, mavjud tarmoqlarning mahsuldorligini oshirish, ayniqsa, mamlakat bank sektorida yangi bozorlar va tarmoqlarni shakllantirish hamda inklyuziv barqaror o'sish va rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Raqamli iqtisodiyot, birinchi navbatda, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga asoslangan. Raqamli texnologiyalarning ushbu iqtisodiyotga yanada jadal kirib borishi zamonaviy global dunyoning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bu mikroelektronika, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohasidagi yutuqlar bilan bog'liq. Shunday qilib, raqamlashtirish obyektiv, muqarrar jarayon bo'lganligi sababli, uni to'xtatib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining bank sektori ham zamonaviy talablarni hisobga olgan holda o'zgartirilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar bank sohasida ajralmas vositaga aylandi va jadal rivojlanmoqda.

Shu sababli, hozirgi bosqichda bank sektorining keyingi faoliyati nafaqat bank tizimi, balki butun moliya sektori va mamlakat iqtisodiyotining axborot vektoriga aylangan innovatsion texnologiyalarning rivojlantirish holati bilan bog'liq.

Mayjud innovatsion yondashuv bank mahsulotlari va xizmatlari ro'yxatini kengaytirish hamda takomillashtirish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratadi. Bank mahsulotlarining sifati va assortimentining o'sishi nafaqat ularning rivojlanishi, balki mijozlar tomonidan ham, banklarning o'zlari tomonidan ham ma'lumotlarni olish shaffofligini oshirishga asoslanadi. Binobarin, moliyaviy innovatsiyalardan foydalanish mamlakat rivojlanishining turli darajalarida dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Murojaatnomasida ta'kidlanganidek: "...makroiqtisodiy barqarorlik – iqtisodiy islohotlarning mustahkam poydevoridir.

Shuning uchun kelgusi yilda inflyatsiyaviy targetlash doirasida narx-navo o'sishini 10 foizdan oshirmaslik Markaziy bank va Hukumatning asosiy vazifasi bo'ladi.

2021-yilda strategik ahamiyatga ega bo'lgan 32 ta yirik korxon va tarmoqni transformatsiya qilish ishlari amalga oshiriladi. Banklar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish e'tiborimiz markazida bo'ladi."<sup>1</sup>

Shu sababli, milliy iqtisodiyot tizimida, xususan, bank sektorida innovatsion jarayonlarni faollashtirish zarurati bilan bog'liq bo'lgan hamda bank tizimi samaradorligini oshirishda innovatsion moliyaviy mahsulotlar va texnologiyalarning rolini o'rganish eng muhim masalaga

---

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. 2020-yil 24-yanvar

aylandi. Bu muammo, bugungi kunda ham bankirlar, ham bank ishi bilan shug'ullanuvchi olimlar uchun ham ustuvor va dolzarbdir.

Shunga ko'ra "Bank va moliyaviy texnologiya" fani bo'yicha tayyorlangan darslikning vazifasi talabalarga bank ishi va moliyaviy texnologiyalarning nazariy va amaliy jihatlarini ko'rsatishdan iborat

Talabalar tomonidan "Bank va moliyaviy texnologiya" darslikni o'zlashtirish orqali Bank sohasida innovatsiyalarni tushunish uchun muqobil konseptual elementlarning asosiy qismlari va xususiyatlarini tanqidiy baholash; texnologik o'zgarishlarni boshqarish muammolarini hal qilish; moliyaviy xizmatlarning texnologik o'zgarishini boshqarish bo'yicha turli xil fikrlarni keltirib chiqargan holatlar haqida chuqur bilimlarni namoyish etish; mamlakatlar va madaniyatlarda turli xil shakllar va amaliyotlarni vujudga keltirgan ko'plab madaniy, siyosiy, iqtisodiy va ekologik omillarni tan olish, baholash va boshqarish jarayonlarini o'rganishga, xorijiy mamlakatlar tijorat banklari faoliyatidagi moliyaviy texnologiyalar va ulardan O'zbekiston bank tizimida samarali foydalanishni rivojlantirish mexanizmlarini hamda bunda axborot-texnologiyalarning rivojlanishidan keng foydalana olishlari uchun ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

"Bank va moliyaviy texnologiya" darsligi 70410501 – Bank ishi va auditi va 70310201 – "ekonometrika" mutaxassisligida tahsil olayotgan magistrantlar uchun asosiy adabiyotlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mazkur darslik "Bank ishi va auditi", "Ekonometrika" mutaxassisligida ta'lim olayotgan magistratura va bakalavriat talabalari, iqtisodiyot va bank kollejlari talabalari, mustaqil tadqiqotchilar hamda bank xodimlari uchun foydali bo'lishi mumkin.

# I BOB. BANK VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR FANIGA KIRISH

## Reja:

**1.1 Banklar va moliyaviy texnologiyalarning obyekti, predmeti va asosiy vazifalari**

**1.2 Bank va moliya texnologiyalari subyektining zaruriyati va uzviy bog‘liqligi**

**1.3 Bank ishida moliyaviy texnologiyalarning o‘rni**

**1.4 Moliyaviy texnologiyalarning hozirgi tendensiyalari**

**Tayanch iboralar:** Raqamli iqtisodiyot, axborot tizimi, axborot texnologiyasi, moliyaviy texnologiyalar, bank ekotizimi, kompyuterlar, texnik vositalar.

### **1.1. Banklar va moliyaviy texnologiyalarning obyekti, predmeti va asosiy vazifalari**

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot global iqtisodiy o‘shishning tobora muhim harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, mavjud tarmoqlarning mahsuldorligini oshirish, ayniqsa, mamlakat bank sektorida yangi bozorlar va tarmoqlarni shakllantirish hamda inklyuziv barqaror o‘shish va rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Raqamli iqtisodiyot, birinchi navbatda, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga asoslangan. Raqamli texnologiyalarning ushbu iqtisodiyotga yanada jadal kirib borishi zamonaviy global dunyoning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bu mikroelektronika, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohasidagi yutuqlar bilan bog‘liq. Shunday qilib, raqamlashtirish obyektiv, muqarrar jarayon bo‘lganligi sababli, uni to‘xtatib bo‘lmaydi.

Hozirgi vaqtda bank tizimi mustaqil korxonalar va tashkilot sifatida yangi moliyaviy texnologiyalarning keng miqyosda rivojlanishi hisobiga o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichga o'tmoqda. Bunday jarayonlar innovatsion va yuqori rivojlanish sur'atiga ega.

Shunday qilib, kuchli raqobat sharoitida banklar moliyaviy bozordagi o'z o'rnini saqlab qolishi uchun yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni modernizatsiya qilish va yaratishga intilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining bank sektori ham zamonaviy talablarni hisobga olgan holda o'zgartirilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar bank sohasida ajralmas vositaga aylandi va jadal rivojlanmoqda.

Shu sababli, hozirgi bosqichda bank sektorining keyingi faoliyati nafaqat bank tizimi, balki butun moliya sektori va mamlakat iqtisodiyotining axborot vektoriga aylangan innovatsion texnologiyalarning rivojlantirish holati bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Murojaatnomasida ta'kidlanganidek: "...makroiqtisodiy barqarorlik – iqtisodiy islohotlarning mustahkam poydevoridir.

Shuning uchun kelgusi yilda inflyatsiyaviy targetlash doirasida narx-navo o'sishini 10 foizdan oshirmaslik Markaziy bank va Hukumatning asosiy vazifasi bo'ladi.

...2021-yilda strategik ahamiyatga ega bo'lgan 32 ta yirik korxonalar va tarmoqni transformatsiya qilish ishlari amalga oshiriladi. Banklar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish e'tiborimiz markazida bo'ladi."<sup>2</sup>

Shu sababli, milliy iqtisodiyot tizimida, xususan, bank sektorida innovatsion jarayonlarni faollashtirish zarurati bilan bog'liq bo'lgan hamda bank tizimi samaradorligini oshirishda innovatsion moliyaviy mahsulotlar va texnologiyalarning rolini o'rganish eng muhim masalaga aylandi.

<sup>2</sup>Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. 2020-yil 24-yanvar



Informatika sohasining asosiy resursi bu – axborotdir.

Axborot – olamidagi butun borliq, undagi ro‘y beradigan xodisalar va jarayonlar haqidagi xabar va ma‘lumotlardir. Axborot inson nutqida, kitobdagi matnlarda, musavvir tasvirida va boshqalarda mavjuddir.

Texnologiya – grekcha tildan tarjima qilinganda san‘at, mahorat kabi ma‘nolarni bildiradi.

Kompyuter tizimi – ma‘lumotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish tizimi hamda xotira tizimi.

Informatikani tor ma‘noda o‘zaro aloqador uch qism — *texnik vositalar (hardware)*, *dasturiy vositalar (software)* va *algoritimli vositalar (brainware)* sifatida tasavvur etish mumkin. O‘z navbatida informatikani ham umuman, ham qismlari bo‘yicha turli jihatlardan: milliy iqtisodiyot tarmoqlari, fundamental fan, amaliy fan sohasi sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

“Banklar va moliyaviy texnologiyalar” fanining maqsadi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning banklar bilan munosabatlari va ularning faoliyatida, ular bilan bog‘liq risklarni boshqarish, shuningdek, moliya bozorida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar asoslarini o‘rganish va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishdan iborat.

Bank va moliyaviy texnologiyalar fanining obyekti bo‘lib bank axborot texnologiyalari faoliyati, to‘lov tizimi, dasturiy ta‘minot bilan bog‘liq faoliyati hisoblanadi.

Bank va moliyaviy texnologiyalar fanining predmeti bo‘lib bank axborot texnologiyalari faoliyati, to‘lov tizimi, dasturiy ta‘minot bilan bog‘liq munosabatlar hisoblanadi.

**Fanning vazifalari.** Pulning asosiy tushunchasini, bankning, qimmatli qog‘ozlar bozorining, valyuta bozorining bank tizimining elementi sifatidagi xususiyatlarini ochib berish.

Pul-kredit institutlarining o‘zaro munosabatlari tamoyillarini, tijorat banklari faoliyatining huquqiy va iqtisodiy asoslarini, bank faoliyatining umumiy masalalarini, alohida bank operatsiyalarini tashkil etishni, bank texnologiyalarini o‘rganish.

Bank faoliyatini tizimli tahlil qilishning uslubiy masalalarini, bank faoliyatini strategik rejalashtirish va boshqarish xususiyatlari, bank va moliya faoliyatini ilmiy va amaliy boshqarish vositalarini ko'rib chiqish va o'rganish.

“Banklar va moliyaviy texnologiyalar” kursini o'rganish natijasida talaba:

Bilish:

- “Banklar va moliyaviy texnologiyalar” kursining asosiy tushunchalari va terminologik apparati;
- butun iqtisodiyot miqyosida kredit tashkilotlari va bank tizimi faoliyatining nazariy asoslari;
- tijorat banki faoliyatini tashkil etish tamoyillari;
- bozor munosabatlari sharoitida kredit muassasasining resurslarini shakllantirish, foydalanish, baholashning talablari, tamoyillari, usullari;
- bank boshqaruvining asosiy tamoyillari va uning faoliyatini tartibga solish asoslari.

Qila olish:

- iqtisodiy xatti-harakatlarni tanqidiy baholash agentlar, kasbiy faoliyat sohasidagi obyektlarning rivojlanish tendensiyalari;
- kredit tashkiloti faoliyati samaradorligini rejalashtirish va hisoblash;
- samaradorlikni miqdoriy o'lchash va sifat xususiyatlarini aniqlash kredit tashkilotining faoliyati;
- moliyaviy resurslarni shakllantirishni bashorat qilish va rejalashtirish, aniqlash;
- kredit tashkiloti tomonidan ularga bo'lgan ehtiyoj, ularning samaradorligini baholash, foydalanish;
- bank mahsulotlarini yaratish va sotish xarajatlarini hisoblash;

- shakllanish manbalari va asosiy foydalanish yoʻnalishlarini aniqlash kredit tashkilotining bank mahsulotlarini sotishdan olingan foyda;
- kredit rentabelligiga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash tashkilotlar;
- kredit tashkiloti faoliyatining innovatsion yoʻnalishlarini aniqlash

### **Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy sharoitlari:**

– Bank sohasida innovatsiyalarni tushunish uchun muqobil konseptual elementlarning asosiy elementlari va xususiyatlarini tanqidiy baholash;

– Texnologik oʻzgarishlarni boshqarish muammolarini hal qilish;

– Moliyaviy xizmatlarning texnologik oʻzgarishini boshqarish boʻyicha turli xil fikrlarni keltirib chiqargan holatlar haqida chuqur bilimlarni namoyish etish;

– Mamlakatlar va madaniyatlarda turli xil shakllar va amaliyotlarni vujudga keltirgan koʻplab madaniy, siyosiy, iqtisodiy va ekologik omillarni tan olish, baholash;

– Texnik oʻzgarish va avtomatlashtirishning turli oʻlchamlarini aniqlash, sanab chiqish va muhokama qilish kabi vazifalarni oʻrganadilar.

## **1.2. Bank va moliya texnologiyalari subyekting zaruriyati va uzviy bogʻliqligi**

Bugungi kunda har birimiz ishning katta qismini uyda, qoʻlimizdagi birgina telefon yoki planshet bilan bajarish imkoniyatiga egamiz. Shuningdek, mobil ilova ochish yoki har qanday tashkilotning rasmiy saytiga kirib, kerakli maʼlumotlarni olish, buyurtmani rasmiylashtirish, toʻlov qilish va hatto shikoyat yuborish ham mumkin. Bir necha soniya ichida bu operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi dasturlar

va qurilmalar mavjud, axir ilgari bunga oylar ketardi, ko'pincha kun bo'yi navbatda turishga to'g'ri kelgan.

Bularning barchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning rivojlanishi, axborotning raqamlashtirilishi, tarqoq ma'lumotlarning qog'oz manbalaridan elektron bazalarga birlashtirilishi natijasidir. AKTning hayotimizga jadal kirib kelishi jahon xo'jalik munosabatlarining globallashtirishini, tovarlar va xizmatlar, shu jumladan, moliyaviy xizmatlar yetkazib beruvchilari bozorida raqobatni keskin kuchaytirdi.

Respublikamiz milliy iqtisodiyoti tarmoq va sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasida amaliy ishlar O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risidagi" Qonuni asosida olib borilmoqda.

Ushbu Qonunda quyidagilar *asosiy vazifalardan* qilib quyidagilar belgilab qo'yilgan:

- axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratish;
- har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanilishini ta'minlash;
- davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek, yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O'zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;
- xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog'idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;
- davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va o'zaro aloqada ishlashini ta'minlash;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;
- axborot resurslari, xizmatlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bozorini shakllantirishga ko'maklashish;
- dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilishini rag'batlantirish;
- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;
- kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish.

O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida" Qonuni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun katta turtki bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida *dasturiy mahsulotlari* bozorini shakllantirish borasida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Bizning tadbirkorlar ham dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va eksport qilishi mumkin, buning uchun umumiy sharoitlar, intellektual potensial ham yetarlidir.

*Axborot faoliyati* – bu milliy iqtisodiyot sohasi bo'lib, axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish va qayta ishlab iste'molchilarning bu boradagi talabini qondirish bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlikning bir shaklidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bozorining mamlakat milliy iqtisodiyotida nufuzli o'rinni egallab borayotganligini inobatgan olib, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan edi.

*Axborotlashgan jamiyat* – bu ishlayotganlarning ko'pchiligi axborotlarni va uning oliy shakli bo'lgan bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, qayta ishlash va foydalanish bilan band bo'lgan jamiyatdir.

Olimlar axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos quyidagi xususiyatlarini keltirishadi:

- axborot inqirozligi muammosi hal bo'ladi, ya'ni axborot tanqisligi bilan axborotlarning ko'pligi o'rtasidagi qarama-qarshilikka barta-raf beriladi;

- boshqa resurlarga nisbatan axborotning prioritetligi ta'minlanadi;

- milliy iqtisodiyotni rivojlanishining asosiy shakli bo'lib axborotlashgan iqtisod hisoblanadi;

- jamiyatning negiziga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida bilimlarni avtomatlashtirilgan usulda yig'ish, qayta ishlash va foydalanish yo'lga qo'yiladi;

- inson faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olgan holda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari global tus oladi;

- barcha inson taraqqiyotining axborot yagonaligi shakllanadi;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida "yangi" va "eski" iqtisodiyot farqlanmoqda;

- taraqqiyotning barcha axborot resurslariga informatika vositalari asosida har bir insonning erkin kirishi amalga oshadi.

*Axborot industriyasi* – bu eng zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot mahsulotlari va xizmatlarini (gazetadan tortib, jurnal, kitob, kompyuter o'yinlari va kompyuter tarmoqlaridagi axborotlargacha) keng ko'lamda ishlab chiqarishdir.

Axborot industriyasi o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi:

- axborot xizmatlari (avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasi, institut, agentlik, kutubxonalar);

- axborot tashuvchilarni ishlab chiqish (kitob, gazeta, ma'lumotnoma va boshqalar);

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (ShK, terminallar, printerlar va boshqalar);

- integral texnologiyalar;

- aloqa kanal va vositalari (telefon, telegraf, elektron va an'anaviy pochta, sun'iy yo'ldosh, radio, televidenie va boshqalar).

Hozirgi kunda jahon moliya-bank tizimida, birinchi navbatda, raqamli iqtisodiyotning elektron to'lov tizimlari, kriptovalyutalar va vositachilarsiz kreditlash kabi elementlarning bozordagi ulushi shiddatli o'sishi bilan bog'liq bo'lgan inqilobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Birinchi navbatda, mobil to'lovlar (*2010-yildan 2016-yilgacha har yili qariyb ikki baravar o'sgan*) va bir-birini (*peer-to-peer – P2P*) kreditlash (*oxirgi 3 yil ichida AQSHda 15 baravar o'sgan va 2015-yil aylanmasi \$78 mlrd dollarga yetgan*) hajmining tez o'sishi kuzatiladi.

Ma'lumki, an'anaviy faoliyat sohalaridan farqli ravishda, internet-kompaniyalarning bozor bahosi hech qanday moddiy asosga ega emas va kompaniya qanchalik ko'p foydali ma'lumotlar to'plagan bo'lsa, mahsulot (*yoki xizmat*) ishlab chiqarish shunchalik arzonlashadi.

Hozirgi kunda o'zining ofislari va bankomatlariga ega bo'lmagan raqamli banklar va moliyaviy muassasalar sonining jadal sur'atlar bilan o'sishi kuzatilmog'da.

Raqamli banklarning (*digitalbanking*) asosiy konsepsiyalari qatoriga mijozlarga yo'naltirilganlik, konsorsium konsepsiyasidan raqamli banking konsepsiyasiga o'tish, CRM (*Customer Relationship Management*) ning rivojlanishi, mijozlarga bo'lgan ishonchning o'sishi, takliflarni shaxsiylashtirish va harakatchanlik xususiyati kiradi.

Raqamli banklar xizmatlari zamonaviy insonlar hayot faoliyatining barcha sohalariga, birinchi navbatda, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar, axborot servislari, elektron tijorat, internet-savdo va boshqalarga kirib borishda kuzatiladi.

Raqamli bank o'z mijozlariga raqamli kanallardan foydalangan holda turli xildagi raqamli ko'rinishdagi mahsulot va xizmatlarni taklif qiladi. Bunday bank infratuzilmasi raqamli kommunikatsiyalar uchun optimallashtirilgan bo'lib, hozircha raqamli texnologiyalarning tez almashinuviga unchalik tayyor emas. Bunday banklarning asosiy vazifalari qatoriga mijozning hisobraqamlari holati va amalga oshirilgan operatsiyalar haqida uni tezkorlik bilan xabardor qilish, uning uchun

eng yaqin bo'lgan bank bo'linmasi, bankomat, almashinuv punkti yoki avtokiosk izlab topish kiradi.

Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 12-may kuni tasdiqlangan "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"da zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasida tijorat banklarining korporativ transformatsiyasi jarayonida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

- masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, kontaktsiz to'lovlarining soni va qamrovini kengaytirish;
- skoring, masofadan turib identifikatsiyalash va kredit konveyeri tizimidan keng foydalanish;
- bank axboroti va tizimlarning axborot xavfsizligini kuchaytirish;
- bank sektorida yangi konsepsiyalar va texnologiyalarni keng joriy etish (fintek, raqamli banking).

Bundan tashqari, raqamli bank o'z mijozlariga shunday onlayn-servis taqdim etishi lozimki, u barcha platformalarda ishlay olsin va o'z faoliyatini asosan mobil qurilmalarga yo'naltirsin. Banking raqamli modelini takomillashtirishning yettita asosiy yo'nalishini ko'rsatishimiz mumkin:

- ❖ *omnikanallik va foydalanuvchilar servislarini soddalashtirish;*
- ❖ *axborotni boshqarishning yangi usullari va vositalarini ishlab chiqish;*
- ❖ *ochiq API tizimidan foydalanish;*
- ❖ *moliyaviy-texnik kompaniyalari bilan hamkorlik va raqobat;*
- ❖ *mobil to'lovlarning rivojlanishi;*
- ❖ *banking sohasidagi innovatsiyalarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;*



❖ *faoliyatni innovatsion tartibga solishni amalga oshirish.*

Raqamli xizmat ko'rsatishga to'la-to'kis o'tish nafaqat banklarga, balki xilma-xil bank xizmatlaridan tezkor va qulay tarzda foydalana oladigan iste'molchilarga ham foyda keltiradi (masalan, xarajatlarning pasayishi, muloqot doirasini qamrab olish imkoniyati, moslashuvchanlik, mijozni yaxshiroq bilish). Respublika bank tizimida zamonaviy AKT dasturiy-texnik vositalariga asoslangan innovatsion texnologiyalar faol joriy qilinmoqda.

Ayniqsa, chekka hududlarda bankka murojaat qilish va xizmatlardan foydalanish qiyin edi. Raqamli moliyaviy xizmatlar banklar bo'limlarini ochish norentabel bo'lgan olis va aholisi kam hududlardagi jismoniy va yuridik shaxslarni samarali qamrab olish imkonini berdi.

Raqamli o'zgarishlar orqali banklarning biznes modellari maqbul-lashtirilmoqda, bank va to'lov segmenti – masofaviy bank xizmatlaridan tortib to moliyaviy operatsiyalar sohasidagi o'zgarishlargacha rivojlanmoqda.

### **1.3. Bank ishida moliyaviy texnologiyalarning o'rni**

Bank xizmatlarini elektron formatda taqdim etishga o'tilishi va aholiga qulaylik yaratilishi, albatta, raqobatning kuchayishiga ta'sir qildi. O'z navbatida, raqobat kuchaygani sari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yangi imkoniyatlardan foydalanish zarurati ham ortib bormoqda.

Shunday qilib, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi moliyaviy xizmatlar bozorida banklar va bank bo'lmagan tuzilmalar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirdi. Mijozlarda moliyaviy xizmatlardan qayerda va qachon foydalanishni tanlash imkoniyati paydo bo'ldi. Mijozning ehtiyojlarini o'rganish natijasida banklar tomonidan kun-u tun (24/7 rejimida) ishlaydigan ofislar ochildi. Ushbu ehtiyojlarga muvofiq moliya bozorida taklif etilayotgan elektron bank texnologiyalari jadal


rivojlanmoqda. Bunga elektron to'lov tizimlari, elektron pullar, masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, onlayn-banking mahsulotlari, bank terminallari va avtomatlashtirilgan bank markazlari misol bo'ladi.

Raqamli moliyaviy texnologiyalardan foydalanish davlat, to'lov xizmatlari yetkazib beruvchilari va mijozlar o'rtasida faol hamkorlik qilish imkoniyatini maqbullashtiradi. Mijozlar talab va ehtiyojlarining doimiy tahlili banklar tomonidan xizmat ko'rsatishning yangi usullari joriy etilishiga, yangi jozibador mahsulotlarning yaratilishiga olib keladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, pandemiya raqamli moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Karantin boshlangunga qadar aholi bankka kelib, muammoni "joyida" hal qilishni ma'qul ko'rgan holda masofaviy bankingga kamroq qiziqardi. Banklarning kam sonli mijozlari masofaviy bank xizmatlari uchun yaratilgan mobil ilovalar va dasturiy ta'minotdan foydalanardilar. Karantin tufayli uyidan chiqa olmagan aholi masofaviy bank xizmatlariga keskin ehtiyoj sezdi. Kerakli xizmatlarni elektron kanallar orqali izlay boshlashdi va zarur hollarda ulardan foydalanishdi. Bu esa banklarni elektron ilovalarga ko'proq e'tibor qaratishga, masofaviy xizmatlar, mobil ilovalarni yaxshilashga undaydi.

Boshqacha aytganda, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi nafaqat banklar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi, balki ularni raqobatni kuchaytirish, mijozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, arzon va sifatli moliyaviy va to'lov xizmatlarini ko'rsatish orqali mijozlarni jalb qilishning yangi usullarini izlashga undaydi.


O'tgan uch yil mobaynida tijorat banklari faoliyatini tubdan takomillashtirish, aholi va biznes bilan to'laqonli o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, masofaviy bank xizmatlarini ommaviy joriy etish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Natijada zamonaviy texnologiyalar – internet va mobil banking kabi bank mijozlari uchun qulay bo'lgan masofaviy bank xizmatlar texnologiyalaridan foydalanish kengayib bormoqda.



Bugungi kunda raqamli moliyaviy xizmatlarni yo‘lga qo‘yish mamlakat bank-moliya tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishiga aylandi. Tarmoqning me‘yoriy bazasi takomillashtirilmogda, to‘lov infratuzilmasining rivojlantirilishi rag‘batlantirilmoqda, masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan to‘lov tashkilotlari (fintek kompaniyalari)ning faoliyati kengaymoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishi bilan mamlakatda faoliyat yuritayotgan to‘lov tizimlari operatorlarining servis infratuzilmasi keskin tarzda oshdi. Bundan tashqari, raqamli moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan 28 ta to‘lov tashkiloti ro‘yxatga olingan. Kontaktsiz to‘lovlarni rivojlantirish maqsadida xalqaro standartlarga to‘la mos keladigan HUMO chakana to‘lov tizimi yaratildi, bu o‘z navbatida bank kartalari sohasida raqobat muhitini shakllantirdi.

Hozirgi kunda banklarning mobil ilovalariga jismoniy shaxslar uchun barcha asosiy bank xizmatlari, shu jumladan, to‘lovlarni amalga oshirish, bank kartasini bloklash (blokdan chiqarish), mikroqarz (kredit) olish, onlayn depozit operatsiyalari va onlayn konvertatsiyani amalga oshirish joriy etilgan.




1.1.-rasm. Masofaviy bank xizmatidan foydalanuvchilar to‘g‘risida ma‘lumot<sup>3</sup>.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi markaziy banki ma‘lumotlari

2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra, masofadan xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 2020-yilning shu davriga nisbatan 5,5 mln. kishiga (31%) oshdi va 17,4 mln. nafar foydalanuvchini tashkil etdi (1.1.-rasm).

Bundan tashqari, karantin cheklovlari sharoitida foydalanuvchilarga imkon yaratish uchun bank kartalarini banklarning mobil ilovalari (saytlari) orqali yuborilgan onlayn-buyurtmalar asosida chiqarish mexanizmi joriy etildi.

2021-yilning 6 oyi davomida banklar mijozlari bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan mobil bank ilovalari orqali onlayn depozitlarni rasmiylashtirish (6,7 trln. so'm), onlayn-konversiya (3,6 trln. so'm), onlayn mikroqarzar olish (1,5 trln. so'm), kreditlarni qaytarish (0,4 trln. so'm) bo'yicha operatsiyalar, boshqa (byudjetga, kommunal xizmatlar, aloqa va hokozolar uchun) 0,4 trln. so'm miqdorida to'lovlar amalga oshirildi.



### 1.2.-rasm. Markaziy bankning «Lahzali to'lovlar tizimi» orqali amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida ma'lumot.<sup>4</sup>

2020-yilda yana bir banklararo to'lov tizimi – Markaziy bankning «Lahzali to'lovlar tizimi»ning ishga tushirilishi tijorat banklarining mijozlari hisoblangan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga masofadan turib xizmat ko'rsatish orqali 24/7 rejimida to'lovlarni

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari


amalga oshirish imkonini berdi. O'tgan yilning sentyabr oyida «Lahzali to'lovlar tizimi» byudjet va soliq to'lovlarini Moliya vazirligi g'aznasiga o'tkazish, shuningdek, 24/7 rejimida kredit hisobidan to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratdi.

Buning natijasida joriy yilning birinchi yarmida «Lahzali to'lovlar tizimi» orqali 127,0 trln. so'mlik 5,4 millionta tranzaksiya, shundan byudjetga 4,3 trln. so'mlik 724 mingdan ortiq to'lovlar amalga oshirildi (1.2.-rasm).

Innovatsion servislarni yaratish uchun Tap-to-phone tizimi (tijorat nomi «Onetouch») joriy etildi, buning natijasida tadbirkorlik subyektlari (shu jumladan, o'zini o'zi ish bilan band qilgan va yetkazib berish xizmatlari ko'rsatuvchi tadbirkorlar) uchun to'lovlarni smartfon yordamida NFC tizimi orqali olish imkoniyati paydo bo'ldi.

Kontaktsiz to'lovlar texnologiyasini kengaytirish doirasida, shuningdek, aholiga qulay bo'lishi uchun chakana savdo va pullik xizmatlar ko'rsatish shoxobchalarida to'lovlarni bank kartasidan foydalanmasdan, mobil ilovalarga o'rnatilgan Humo Pay dasturi (NFC tizimi) orqali amalga oshirish xizmati joriy etildi.

2020-yilda Markaziy bank tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni bank kartasi va to'lov terminalidan bevosita foydalanmagan holda bank kartasidagi pul mablag'lari hisobiga amalga oshirish imkoniyatini taqdim etuvchi QR-onlayn lahzali to'lov axborot tizimini ham ishga tushirdi.



**1.3.-rasm. QR- onlayn tizimida ro'yxatdan o'tgan mijozlar soni va ular tomonidan amalga oshirilgan tranzaksiyalar<sup>5</sup>.**

Bugungi kunga kelib 75 mingdan ortiq xo'jalik yurituvchi subyektlar QR-onlayn axborot tizimining QR-kodlari (stikerlari) bilan ta'minlangan (1.3.-rasm).

Undan foydalanish uchun savdo va xizmat ko'rsatish subyektlari tijorat banklariga murojaat qiladi va mavjud bank rekvizitlari asosida shakllantirilgan QR-kodini oladi, xaridorlar esa tovar va xizmatlar uchun to'lovni ushbu kodni o'z mobil ilovalari yordamida skanerlagan («solishtirib tekshirgan») holda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi

Ushbu tizimning ishga tushirilishi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'rnatilgan POS-terminali (an'anaviy savdo terminali)ga qo'shimcha ravishda xaridlar uchun tezkor to'lovlarni amalga oshirish va mijozlarga sifatli xizmatlar ko'rsatish;

- yetkazib berish, yo'lovchi tashish kabi sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlarga, shuningdek, o'zini o'zi ish bilan band qilgan shaxslar (frilanser)ga to'lov terminalaridan foydalanmagan

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari

holda QR-kodi orqali mijozlar to'lovlarni o'z vaqtida olish hisobidan operatsion xarajatlarini kamaytirish imkonini berdi.

Mamlakatimizda bank kartalariga xizmat ko'rsatuvchi Uzcard va Humo chakana to'lov tizimlari infratuzilmasi hamda to'lov tizimlari doirasida ko'rsatiladigan to'lov xizmatlari rivojlanmoqda. Bank kartalari infratuzilmasini kengaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida joriy yilning 1-iyul holatiga ko'ra chiqarilgan bank kartalarining soni 23,7 mln. donani tashkil etdi<sup>6</sup>.

Milliy to'lov tizimlarining Visa va Mastercard xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiyalashuvi tufayli mijozlar respublika hududida joylashgan bankomat va terminallarda xalqaro bank kartalari bilan operatsiyalarni amalga oshira boshladilar.

Umuman olganda, iqtisodiyotning holati, xususan, mijozlarning moliyaviy va to'lov xizmatlaridan qoniqish hosil qilganlik darajasi bank xizmatlarining sifati, ularning jozibadorligi va xilma-xilligi hamda mijozlarning moliyaviy imkoniyatlari va savodxonligi bilan uzviy bog'liq.

#### **1.4. Moliyaviy texnologiyalarning hozirgi tendensiyalari**

Mamlakatimizda raqamli moliyaviy xizmatlar darajasining oshishiga uzviy ravishda axborot xavfsizligi, shu jumladan, banklarda kiberxavfsizlik sohasida malakali kadrlarning shakllanishiga, shuningdek, o'lis hududlarda, ayniqsa, qishloq joylarida to'lov infratuzilmasidan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga, masofaviy bank xizmatlari va raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishiga hissa qo'shadigan mijozlarni masofadan turib identifikatsiyalash tizimini ishlab chiqish hamda joriy etish rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining 2-bandida

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

mijozlarga hisob raqamlarni masofadan turib ochish imkonini beruvchi bank xizmatlaridan foydalanuvchilarni masofadan turib biometrik identifikatsiyalash tizimi (Face-ID)ni joriy etish vazifasi belgilandi. Buning natijasida mijozlar auditoriyasining qamrovi kengayadi, u olis hududlarga yoyiladi, jumladan, filiallar tarmog'ining qisqartirilishi hisobidan xizmat ko'rsatish jarayonlarining xarajatlari kamayadi.

Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida UZINFOCOM davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator, Davlat personallashtirish markazi va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda mijozlarni masofadan turib identifikatsiya qilish axborot tizimini rivojlantirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir vaqtda ushbu sohada raqobat muhitini yaratish maqsadida tijorat banklari tomonidan chet elda ishlab chiqilgan dasturiy yechimlar testdan o'tkazilmoqda. Bugungi kunda Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan mijozlarni masofadan turib biometrik identifikatsiya qilishni joriy etish bo'yicha hamkorlik o'rnatilgan, ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar [www.regulation.gov.uz](http://www.regulation.gov.uz) portaliga joylashtirilgan.

O'z navbatida tijorat banklari va to'lov tashkilotlariga masofadan turib identifikatsiya qilishdan sinov rejimida foydalanishga ruxsat etilgan. Ushbu holatda xatarlarni ichki nazorat qoidalariga muvofiq baholagan holda, mijozni mobil ilova foydalanuvchi sifatida ro'yxatdan o'tkazish, mobil ilovaga bank kartasini biriktirish va shubhali operatsiyalarni aniqlash uchun foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, to'lov tizimlarini tartibga solish uchun qo'shimcha normativ bazani ishlab chiqish maqsadida Markaziy bank Moliyaviy ommaboplik alyansi ekspertlari bilan birgalikda to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash, to'lov tizimlarini nazorat qilish, masofadan turib xizmat ko'rsatilganda va agentlik xizmatlari joriy etilganda iste'molchilar huquqlarini himoya



qilish, shuningdek, onlayn hisob-kitoblar va mobil to'lovlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hujjatlar ishlab chiqilgan va kelishish jarayonidalar.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni yaqin ikki yil ichida raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagi ishlar rejalashtirilgan:

- mavjud to'lov infratuzilmasidan oqilona foydalanish va butun mamlakat bo'ylab to'lov terminallari va bankomatlar tarmog'ini kengaytirish maqsadida Humo va Uzcard chakana to'lov tizimlarini integratsiyalash;

- moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning joriy xarajatlarini kamaytirish, moliyaviy xizmatlarning operatsion samaradorligini oshirish va ularning sifatini ta'minlash maqsadida eng yangi moliyaviy texnologiyalardan (fintek) keng foydalanish;

- ishonchli ma'lumotlardan foydalanish, ma'lumotlarni to'plash jarayonida inson omilini kamaytirish, bank tizimida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish;

- Markaziy bankning Yagona ma'lumotlar ombori (Data Warehouse) ni samarali tashkil etish va bank biznes-jarayonlarining tahliliy tizimini joriy etish;

- axborotni himoya qilish hamda bank va moliya sohasida kiberxavfsizlik buzilishi holatlarining oldini olish, moliyaviy firibgarlikka qarshi kurashish choralarini ko'rish uchun Markaziy bank huzurida zamonaviy Fin CERT markazini tashkil etish, shuningdek, banklarda, to'lov tizimlarida va to'lov tashkilotlarida samarali axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik tizimini joriy etish;

• bank kartalari orqali taqdim etilayotgan bank mahsulotlarining taklifi hisobidan aholining naqd pulsiz hisob-kitoblari hajmini ko'paytirish, bank xizmatlarining sifatini oshirish.

Umuman olganda, to'lov va bank xizmatlari sohasidagi qat'iy raqobatga barham berish zarurati aholi moliyaviy madaniyatining o'sishi sharoitida banklarga nisbatan muayyan talablarni qo'yadi. Bunday holda yuqori sifatli raqamli banking xizmatlarini taqdim etadigan banklar, shubhasiz, ustunliklarga ega bo'lishi tayin. Raqobat bozorida faqat o'z faoliyatini bank biznesining yangi talablariga va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga muvofiq o'zgartirgan banklar barqaror ishlaydi. Ko'rilgan chora-tadbirlar va yaqin kelajakda amalga oshirilishi rejalashtirilgan vazifalar ham yanada rivojlanishga, muntazam nazoratning o'rnatilishiga va bank tizimidagi kamchiliklarning bartaraf etilishiga xizmat qiladi.

### Nazorat savollari:

1. Bank moliyaviy texnologiyalari tushunchasi va uning xususiyatlari to'g'risida aytib bering.

2. Raqamli texnologiya nima va uning rivojlanish bosqichlariga tavsif bering.

3. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va raqamli banklar faoliyati nimalarda o'z aksini topgan?

4. Raqamli bank xizmatlari turlari to'g'risida qisqacha ma'lumotlar bering.

5. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holatiga baho bering.

6. Mamlakat bank tizimining raqamli iqtisodiyot sharoitidagi rivojlanish tendensiyalari nimalardan iborat?

## **II BOB. MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI**

### **Reja:**

- 2.1 Moliyaviy texnologiyalar va ularning turlari**
- 2.2 Bank mahsulotlariga talab va uni shakllantirish omillari**
- 2.3 Bank xizmatlarining turlari**
- 2.4 Bank mahsulotlari bozorini o'rganishning asosiy yo'nalishlari**

**Tayanch iboralar:** moliyaviy texnologiya, bank mahsuloti, bank xizmati, ekotizim, blokcheyn, masofaviy xizmat, internet tizimi, raqamli bank.

### **2.1. Moliyaviy texnologiyalar va ularning turlari**

Milliy bozorda jahon global tendensiyalardan so'ng "ekotizim" deb ataladigan yangi hodisa paydo bo'ldi. Bu yarim tuzilgan aktivlar to'plami emas va aniq iyerarxiyasi va markazlashuvi bilan Janubiy Koreya chayebollarining ham o'xshashi emas, umuman olganda, u korporativ markazdan pastga boshqaruv vertikallari bilan bog'langan sanoat yoki moliyaviy guruhlar to'plami ham emas. Chunki biznes XXI asr kontekstiga eng organik tarzda mos keladigan shakllarni o'zi mustaqil ravishda topadi. Ushbu yangi model uchun eng adekvat tushuncha bu "ekotizim" atamasidir.

O'tmishdagi vertikal tuzilmalardan farqli o'laroq, ekotizim shartli ravishda tarmoqsimondir. Uning elementlari turli miqyosda va profillarda bo'lishi mumkin, lekin ular bir-biri bilan barqaror aloqalarni hosil qiladi, bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va to'ldiradi. O'zaro integratsiyaga intiladigan turli platformalar tarmog'i paydo bo'lmoqda. Eng muhim ishtirokchilar o'zlari atrofida asosiy faoliyatni yaratadilar va o'z

diqqatlarini jalb qilish markazlariga aylanadilar, lekin ular to'liq hukmronlik qilishga intilmaydilar.

Mikro darajada, fintex ekotizimlari fintex mahsulotlarining ekotizimlari bilan ifodalanadi, ular o'ziga xos "markazlar" bo'lib, ularning keyingi o'sishiga yordam beradi.

Fintex mahsulotining belgilangan ekotizimi boshqa mahsulotlarga o'z interfeysidan o'z qiymatini oxirgi iste'molchisiga yetkazadigan vositachi sifatida foydalanish imkonini beradi. Odamlarning ehtiyojlarini qondirish uchun muayyan yechimni taqdim etishga majbur bo'lgan kompaniyalar buni ma'lum bir fintex mahsuloti orqali amalga oshiradilar, bu esa, o'z navbatida, fintex mahsulotini ishlab chiquvchilarga uning narxini o'sishida muhim afzallik beradi.

Fintex mahsulotining narxi ishlab chiqaruvchi kompaniyaning sa'y-harakatlarisiz o'sadi, ya'ni kompaniya o'zining yangi funksiyalarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash va ilgari surish uchun qo'shimcha resurslarini ajratishga hojat yo'q.

Ekotizim yordamida tadbirkor mahsulotning foydalanuvchi uchun odatiy iste'moliga aylanish ehtimolini oshiradi. Tadbirkor boshqa mahsulotlardan iste'molchi uchun o'z interfeysidan foydalanishga ruxsat berib, foydalanuvchilarga yangi xususiyatlarni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, ular ko'proq narsalarni qilishni, xizmatda ko'proq vaqt sarflashni va mahsulotni yaxshilaydigan ma'lumotlarni qoldirishni va ularning kundalik hayotining bir qismiga aylanishini o'rganadilar.

Oziq-ovqat ekotizimlari g'oyasi o'zaro foydalanuvchilar tomondan taqdim etiladigan qiymatni tavsiflaydi. Bu innovatsion rivojlanish va uni tarqatish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, yangi mazmunli mahsulotlarni yaratish uchun cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi.

Shunday qilib, tadbirkor yangi mahsulot yoki xizmatni yaratayotib, nafaqat uning funkcionalligini yaxshilashga, balki kelajakdagi ekotizimini shakllantirishga ham e'tibor qaratishi kerak.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ekotizim nafaqat individual fintex mahsuloti uchun (mikrodarajada), balki butun fintex bozori uchun ham (makro darajada) taalluqlidir.

Iqtisodiyotda ekotizimlarning yaratilish jarayoni va hodisalarni tahlil qilishning fanlararo evolyutsion yondashuviga mos keladi, shuning uchun uni "evolyutsion iqtisod" deb atashadi.

Umuman olganda, "Ekotizim" atamasi iqtisodiyotga biologiyadan kirib kelgan. Ekotizimning asosiy g'oyasi o'zaro bog'liqlikdir. O'zaro bog'liqlik tufayli ekotizimning elementlari o'sadi. Shu bilan birga, ekotizimning yashash imkoniyati u bilan bog'liq bo'lgan tirik organizmlar sonining ko'payishi bilan ortadi (iqtisodiy nuqtai nazardan, bu korxonalar, tashkilotlar yoki boshqa muassasalar).

Masalan, R. Ayres tabiiy jarayonlar va iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi korxonalarining faoliyat sohalari o'rtasida o'xshashliklarni keltirib chiqaradi.<sup>7</sup> Korxonalar tabiatan tirik organizmlarga o'xshashdir. Ular xuddi tirik organizmlar kabi moddiy resurslarni iste'mol qiladilar, ularni qayta ishlaydilar, tayyor mahsulot yoki xizmatlar ishlab chiqaradilar, qo'shimcha mahsulotlar yaratadilar va ma'lum manfaatlar uchun bir-biri bilan raqobatlashadilar.

T. Pauyer, G. Jerjian turli ekotizimlarning afzalliklarini hisobga olib, quyidagilarni ta'kidlaydilar: "... Tabiatda har xil turlar bir-biriga yordam berib, butun jamiyat uchun foyda keltiradi. Masalan, marjon rifida marjon polipidan yaratilgan jamoa mavjud. Shunday qilib, biznesda ekotizim ko'pincha ko'plab aloqalarga ega bo'lgan bitta kompaniya asosida quriladi."<sup>8</sup>

Ilmiy adabiyotlarda "ekotizim" tushunchasining ko'plab ta'riflari mavjudligiga qaramay, umumiy qabul qilingan tushuncha haligacha o'z aksini topmagan. Ekotizimlarni tasniflash va ularning xususiyatlari bilan bog'liq yo'nalishlar yetarlicha o'rganilmagan.

---

<sup>7</sup>Ayres, R. Hayotiy aylanish metaforasi to'g'risida: Ekologiya va iqtisod bir-biridan ajralib turadigan joyda / R. Ayres // Ekologik iqtisod. - 2004. - № 48. - B. 425-438.

<sup>8</sup>Quvvat, T. Ekotizim: Tarmoqli biznesning 12 tamoyili asosida yashash / T. Power, G. Jerjian. - Pearson Education Ltd., 2001. - 289 b.

Masalan, M. Yakobides, S. Sennamo, A. Gaver, R. Adner, M. Iansiti, R. Leven, J. Mur kabi mualliflarning ishlariga asosanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, ekotizim bu tegishli mahsulot va xizmatlarni taklif qiluvchi o'zaro hamkorlik qiluvchi va raqobatchi firmalar tizimidir<sup>9</sup>.

R. Adnerning fikricha, innovatsion ekotizimlar o'zaro bog'liq mexanizmlari sifatida qaraladi, ular orqali firmalar o'zlarining individual takliflarini mijozlarga yo'naltirilgan izchil yaxlitlikka birlashtiradi.<sup>10</sup>

Kompaniyalarning ekotizimlardagi o'zaro aloqalarini o'rganishga qaratilgan yondashuvlar orasida tarmoq yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Masalan, M.Y. Sheresheva o'z tadqiqotlarida tarmoq konsepsiyasining evolyutsiyasini kuzatib boradi va firmalararo bog'liqlik tabiatiga oid turli nazariy qarashlarni o'rganadi.<sup>11</sup> [Sheresheva, 2010].

E. Autio va LDW Tomaslarning ishlarida ekotizim fokal firma (o'zaro vertikal bog'langan firmalar) bilan bog'langan o'zaro aloqador tashkilotlar tarmog'i yoki ishlab chiqaruvchi va uchinchi tomon ishtirokchilarini o'z ichiga olgan platforma sifatida ta'riflanadi hamda ular innovatsiyalar orqali yangi qiymat yaratadi.<sup>12</sup>

M. Yakobids, K. Kennamo va A. Gaverlar o'z ishlarida o'zaro aloqador ekotizimlarni turli tarmoqlardagi korxonalarining ekotizimlarda (markaziy firmalarning sezilarli kuchiga qaramasdan) elementlarining yo'qligida bir-birini to'ldirishi, boshqaruv iyerarxiyasi, an'anaviy kompaniyalardagi boshqaruvga o'xshash tashkiliy shakl va muvojiqlashtirishi kabi xususiyatlarining muhimligini ta'kidlaydilar.<sup>13</sup>

<sup>9</sup>Yakobides, M. Ekotizimlar nazariyasi tomon / M. Jacobides, C. Cennamo, A. Gaver // Strategik boshqaruv jurnali. - 2018. - jild. 39, iss. 8. - P. 2255-2276.

<sup>10</sup>Adner, R. Innovatsion strategiyangizni innovatsion ekotizimingizga moslang / R. Adner // Garvard Business Review. - 2006. - jild. 84, № 4. - B. 98-107.

<sup>11</sup>Sheresheva M.Y. Formy setevogo vzaimodeystviya kompaniy [Kompaniyalar tarmog'i hamkorlik shakllari]. Moskva, Izdatelskiy Dom Gos universiteti - Vysshaya shkola ekonomiki, 2010.340 b.

<sup>12</sup>Autio E., Tomas LDW Innovatsion ekotizimlar: Innovatsiyalarni boshqarish uchun oqibatli. Dodgson M., Gann DM, Phillips N., tahrirlar. Oksford innovatsiyalarni boshqarish bo'yicha qo'llanma. Oksford, Oksford universiteti nashriyoti, 2014 yil.

<sup>13</sup>Yakobides M., Kennamo K., Gaver A. Industries, ekotizimlar, platformalar va arxitekturalar: Strategiyamizni umumiy darajada qayta ko'rib chiqish. Ishchi qog'oz. London, Biznes maktabi, 2015-yil.

Yevropa Ittifoqida raqamli valyutalarni muomalaga chiqarish va ulardan foydalanishni tartibga soluvchi maxsus qonun mavjud emas. 2012-yilning oktyabrida Yevropa Markaziy banki raqamli valyutalar sxemalari to'g'risida hisobot tayyorladi va unda bitkoin tizimi, amaldagi yevropa qonunchiligi doirasida bunday tizimning huquqiy maqomi tahlili qamrab olindi. Shuningdek, raqamli valyutalarni "Elektron pullar to'g'risida"gi Direktiva (2009/110/EI) bilan o'rnatilgan "elektron pullar" tushunchasi ko'lamiga kiritish va ularni mazkur hujjat doirasida

tartibga solish masalasi ham ko'rib chiqilgan. Hisobotda qayd etilishicha, bitkoin atamasi u yoki bu obyektни elektron pullarga tenglashtirishning ayrim mezonlariga mos keladi.

Biroq eng muhimi bitkoin muomalaga chiqarilgan pullarning ta'minlanganligi mezoniga javob bermaydi. Bundan tashqari, bitkoinning to'lov xizmatlari to'g'risidagi Direktiva (2007/64/EI) ta'siri doirasiga tushishi haqida ham fikrlar bildirilgan bo'lsa-da, hisobotda mazkur normativ hujjatning normalari bitkoin bilan bog'liq faoliyat va operatsiyalarga qo'llanilmasligi qayd etilgan.

AQSHning Florida, Kaliforniya va Nyu-York shtatlarida kriptovalyutalar bilan bitimlar tuzish qonuniy hisoblanadi. 2018-yilning dekabr oyiga kelib, AQSHda Chikago opsion va tovarlar birjalari bitkoinga fyuchers savdolarini boshlab yubordi.

Germaniya Hukumati qonunchilik darajasida bitkoinni moliyaviy hisob birligi va o'zaro hisob-kitoblar vositasi sifatida tan olgan. Chunki mahalliy mol yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatuvchilar tomonidan bitkoin pul mablag'i sifatida foydalanilganiga qaramay, huquqiy tartibga solish normalari joriy qilinmaganligi bois, ular 25 foiz miqdoridagi daromad solig'ini to'lashmagan. Tegishli qonun qabul qilingach, bitkoin bilan bog'liq barcha operatsiyalar soliqqa tortila boshlandi.

Yaponiyada kriptovalyuta birjasi Mt.Gox bankrotga uchragach Hukumat bitkoinni soliqqa tortish va tartibga solishning muhimligi to'g'risida bayonot bilan chiqdi. Shunga qaramay, bitkoinni tartibga solish borasida amalda biron bir chora-tadbirlar ko'rilmadi. Biroq, Yaponiya Hukumati 2017-yilning 1-apreliga kelib, bitkoinga rasmiy to'lov vositasi maqomini beruvchi qonun hujjatini qabul qildi. Bundan tashqari, kriptovalyutani mahalliy bank tizimiga integratsiyalash imkonini beradigan qator normativ hujjatlar tasdiqlandi.

Shvetsariya Hukumati bitkoinni xorijiy valyutaga tenglashtirgan. Hozirgi kunda Shvetsariya, Gibraltar va Malta blokcheyn va kriptovalyutalar sohasida ishlash bo'yicha kompaniyalar uchun eng muvaffaqiyatli yurisdiksiyalar sifatida e'tirof etilmoqda.

Avstraliya va Singapurda bitkoin aylanmasiga soliqlar saqlanib qoldi. Shuningdek, Bangladeshda kriptovalyutalar bilan operatsiyalarni amalga oshirish 12 yilgacha ozodlikdan mahrum etish ko'rinishida jazolanadi.

Ayni paytda, ko'pchilikni xususiy kriptovalyutalar bilan raqobatlashish uchun Markaziy banklar ham o'z kriptovalyutalarini muomalaga chiqarishi masalasi qiziqtiradi. Shu boisdan, Markaziy bank raqamli valyutalarini (MBRV) muomalaga chiqarish, uning milliy iqtisodiyotga ta'siri, xususan, markaziy bank, tijorat banklari va nobank moliyaviy institutlarning balanslariga ta'siri iqtisodchi olimlar, ekspertlar va monetar organlar tomonidan chuqur tahlil etilmoqda.

Xususan, ayrim tadqiqotchilar fikricha, MBRVni muomalaga chiqarish xarajatsiz muomala vositasi, xavfsiz jamg'arma vositasi va barqaror hisob birligi vazifalarini bajarish va shu asosda iste'molchilarga manfaat keltirgan holda butun monetar tizim jihatlarini transformatsiya qilinishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, Angliya banki MBRV sohasidagi tadqiqotlarini keng jamoatchilikka e'lon qildi. Tadqiqotlar doirasida MBRVning uch modeli ajratib ko'rsatilgan. Jumladan:

– moliya institutlariga vakolat berishga asoslangan model (Financial Institutions Access (Model FI)): MBRVdan foydalanishga faqat banklar va nobank moliyaviy institutlar vakolatli bo'ladi. Banklar va nobank moliyaviy institutlar Markaziy bank bilan belgilangan qimmatli qog'ozlarga almashtirish asosida MBRVlarni sotish/xarid qilish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri o'zaro operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

– butun iqtisodiyotga vakolat berishga asoslangan model (Economy-wide Access (Model EW)): Bank va nobank moliyaviy muassasalar bilan birgalikda uy xo'jaliklari va korxonalar ham MBRVdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa MBRVning iqtisodiyotdagi barcha agentlar uchun pul funksiyasini bajarishini anglatadi.



Ushbu modelda ham Markaziy bank bilan MBRVlarni sotish/xarid qilish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishga faqatgina banklar va nobank moliyaviy institutlar vakolatli bo'lsalar-da, uy xo'jaliklari va korxonalar MBRV birjalari orqali depozitlarini MBRVlarga ayirboshlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, uy xo'jaliklari va korxonalar MBRVlarni o'zaro ayirboshlashlari ham mumkin.

– moliyaviy institutlar plyus MBRV bilan ta'minlangan tor doiradagi bank vakolatiga asoslangan model (Financial Institutions Plus CBDC-Backed Narrow Bank Access (Model FI+)): MBRVdan foydalanishga banklar va nobank moliyaviy institutlarigina haqli bo'ladilar. Nobank moliyaviy institutlari ichida kamida bittasi tor doiradagi bank funksiyasini bajarib, uy xo'jaliklari va korxonalarni MBRV bilan ta'minlangan moliyaviy aktivlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda, texnologik taraqqiyotning so'nggi qulayliklarini o'zida mujassam etgan raqamli ko'rinishdagi banknotlarning kelgusi avlodlarini emissiya qilish orqali samaradorlik va xavfsizlikning oshishi ta'minlanishiga e'tibor qaratish zarur. Bu o'rinda blokcheyn ekotizimida anonimlikka barham berish mexanizmlari, xususan, nazorat qilindigan yoki boshqariladigan mashinada o'rganish (Supervised Machine Learning) kabilarni qo'llash zarur.

Bundan tashqari, MBRV chakana va yirik miqyosdagi to'lov tizimlari samaradorligi va ishonchliligini ta'minlay olishi inobatga olinishi lozim. Chakana to'lov nuqtai-nazaridan, raqamli valyuta sotuv joyida (POS), onlayn va P2P (peer to peer) formatida to'lovlarni amalga oshirishda, shuningdek, ulgurji va banklararo to'lovlarda hisob-kitoblarning ko'lami va tezligi ortishi ko'rinishida qo'shimcha qulayliklarni yaratishi muhim sanaladi.

MBRVni muomalaga chiqarishning yana bir muhim jihati shundaki, u hozirda jadal avj olayotgan xususiy pullar, virtual va raqamli valyutalarga nisbatan munosib siyosiy javob bo'lishi mumkin. Bu orqali Markaziy bank monetar siyosat maqsadiga erishish va moliyaviy

barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash yo‘lida o‘z imkoniyatlarini yanada mustahkamlab oladi. Chunki xususiy kriptovalyutalardan foydalanish ko‘lamining ortishi monetar siyosatning transmission mexanizmlari samaradorligiga keskin salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, shuningdek, Markaziy bankning so‘nggi navbatdagi kreditor (the lender of last resort) sifatidagi faoliyatining cheklanishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kriptovalyutalar bo‘yicha ilk bor 2017-yilning sentabr oyida bayonot bilan chiqdi. Unda qayd etilishicha, kriptovalyutalardan anonim operatsiyalarni amalga oshirishda keng foydalanilayotganligi oqibatida noqonuniy pul aylantirish va firibgarlikka keng yo‘l ochilib, ba‘zi mamlakatlarda xufiyona iqtisodiyotni yanada kengayishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida kriptovalyutalardan foydalanган holda to‘lov yoki boshqa operatsiyalarni amalga oshirish ko‘zda tutilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki pozitsiyasiga ko‘ra, iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish bosqichida kriptovalyutalarni joriy etish va ular vositasida operatsiyalarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq emas hamda mazkur operatsiyalarda aholining ishtirok etishi tavsiya etilmaydi. Bundan ko‘rinadiki, Markaziy bankning pozitsiyasi kriptovalyutalarning salbiy jihatlari bilan asoslantirilgan, biroq ushbu valyutalar yordamida yaratiladigan yangi imkoniyatlardan foydalanish haqida umuman fikr bildirilmagan.

#### **4.4. Moliyaviy texnologiya sohasida Hindistonning imkoniyat piramidasi**

Hindiston global fintex bo‘yicha jahonda kuchli davlatdir. Hindiston dunyoda Fintexni joriy qilishning eng yuqori darajasiga ega. Hindiston dunyodagi eng tez rivojlanayotgan Fintex bozorlaridan biridir. Bugungi kunda Hindistonda mavjud bo‘lgan 2100 dan ortiq fintex kompaniyalaridan so‘nggi 67 yil ichida 5% dan ortig‘i tashkil

etilgan. Hindistonning Fintex sanoati 50 yilda 60-2020 milliard dollarga baholandi va 150 yilga kelib ~2025 milliard dollarga baholanmoqda. Fintex bitimlarining qiymati 66 yilda 2019 milliard dollardan 138 yilda 2023 milliard dollargacha o'rtacha yillik o'sish sur'atida 20% gacha o'sadi.

Hindiston Fintex sanoat ekotizimi va to'lovlar, kredit, boylik (boyish) texnologiyasi (boy), shaxsiy moliyani boshqarish, sug'urta texnologiyasi (Insur-tech), tartibga solish texnologiyasi (Regtech), shu jumladan, keng ko'lamli sub-segmentlarini o'z ichiga oladi. Hindistondagi fintex sektori jami \$27.6 milliard dollar miqdorida mablag' oldi.

2021-yil oktyabr holatiga ko'ra 261 ta bank Hindistonning yagona to'lov interfeysida (UPI) ishtirok etdi va 21-oktyabrda 4,21 milliard dollarlik oylik bitimlar 100 milliard dollardan oshdi. Fintex sohasida 1860 startaplari mavjud. 2021-yil dekabr holatiga ko'ra Hindistonda 17 milliard dollardan ortiq taxmin bilan "unicorn maqomini" olgan 17 dan ortiq fintex kompaniyalari mavjud.

- \$24.57% – 2025-yilda Fintex bozori hajmining CAGR
- \$25% – 2021-yil 1-yarmidan boshlab 2018-yil 1-yarmiga nisbatan bitimlar sonining ko'payishi.
- \$37% – 2019-dan 21-moliya yiligacha raqamli to'lov operatsiyalarining o'sishi
- 29% – dunyodagi Fintex loyihalariga investitsiyalarning eng yuqori kutilgan rentabelligiga ega bo'lgan.

So'nggi bir necha yil ichida Hindistondagi Fintex segmenti moliyalashtirishning eksponent o'sishi kuzatildi, 2021-yilda investitsiyalarning turli bosqichlarida allaqachon 8 milliard dollardan ortiq investitsiyalar kuzatilgan.

To'lov va muqobil moliya segmentlari 90 foiz sektorning investitsiya oqimlarining 2015 foizidan ko'prog'ini tashkil etgan bo'lsa-da, insurtechs, Richtechs va boshqalardan beri tarmoqlar o'rtasida investitsiyalarni yanada adolatli taqsimlashga katta o'zgarish kiritilgan.

Hindistonda “unicorn maqomini”(yagona) olgan 17 dan ortiq fintex kompaniyalari mavjud.

Hindistonda raqamli to'lovlarning katta o'sishi kuzatilmoqda: 2021-yil sentyabr oyida bitimlarning oylik hajmi 5,7 milliarddan ortiq bitimlarni tashkil etdi, bu taxminan 2 trillion Aqsh dollariga teng (raqamli to'lovlarning umumiy hajmi). Hindistonda real vaqtda amalga oshiriladigan tranzaksiyalarning miqdori bo'yicha ham yetakchi hisoblanadi. 2020-yilda 25.5 mlrd. tranzaksiyalar real vaqtda onlayn operatsiyalarning eng ko'p soniga ega va AQSH, Buyuk Britaniya va Xitoydan oldinda.

Hindistondagi fintex inqilobi – bu muhim tashabbuslar orqali amalga oshirishning asosiy omillarini ishlab chiqish uchun zamin yaratish bo'yicha ko'p yillik sa'y-harakatlarning cho'qqisidir:

\* Moliyaviy xizmatlarga kirishni kengaytirish bo'yicha dunyodagi eng yirik tashabbus Yan Dhan Yojna 435 milliondan ortiq benefit-siarlarning yangi bank hisob raqamlarini ro'yxatdan o'tkazishga, pul o'tkazmalari, kredit, sug'urta, nafaqa kabi moliyaviy ilovalarni shakllantirishga yordam berdi. Fintex o'yinchilari Hindistonda katta iste'mol bazasiga kirish uchun texnologiya mahsulotlarini yaratish.

\* Moliyaviy savodxonlik: Hindistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha so'nggi tashabbuslarning ba'zilari Milliy moliyaviy ta'lim markazini tashkil etish va RBI moliyaviy savodxonlik markazi loyihasini amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Ushbu qadamlar Hindistonda aholining barcha qatlamlari uchun moliyaviy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan.

\* E-RUPI – bu aniq odamlar va maqsadlar uchun raqamli to'lov vositasi bo'lib, kontaktsiz va naqd pulsiz to'lov yechimlaridan foydalanishga imkon beradi va u to'g'ridan-to'g'ri imtiyozlarning yumshoq va samaraliroq o'tkazilishini ta'minlashda muhim rol o'ynashi kerak.

\* Hindiston Stack: Indiastack – bu hukumatlar, korxonalar, startaplar va ishlab chiquvchilarga Hindistondagi qog'ozsiz va naqd pulsiz to'lovlar xizmatlarini taqdim etish bilan bog'liq murakkab

muammolarini hal qilish uchun noyob raqamli infratuzilmadan foydalanishga imkon beradigan API-lar to'plami. Hindiston fintex kompaniyalarining jadal rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Bu davlat va xususiy raqamli tashabbuslarni targ'ib qilish uchun ochiq API-larga asoslangan jamoat raqamli infratuzilmasini yaratishga qaratilgan dunyo bo'ylab amalga oshirilgan eng muhim raqamli tashabbuslardan biri bo'lib, Hindistonning raqamli poydevori va rivojlanishida katalitik rol o'ynadi.

\* Mablag'lar miqdori. Venchur kapitali, xususiy kapital va institutsional investorlarning ushbu sohadagi innovatsiyalarni rag'batlantiradigan katta miqdordagi mablag'lari.

\* Hindiston Stack. Ochiq API platformalar, masalan, Aadhar, UPI, Bharat Bill to'lovlar, GSTN

\* Texnologik yangilik.

Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish kabi texnologiyalarga asoslangan yangi biznes modellarini joriy etish.

\* Internet va smartfonlarning kirib borishi. Hindistonda smartfonlardan foydalanuvchilar soni bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi (550-600 mln) va 2-o'rinda Internet foydalanuvchilari bozori hisoblanadi (795 mln+20-dekabr 2020-yil holatiga ko'ra Internet foydalanuvchilari).

\* Qulay demografiya. Hindiston aholisining 65% dan ortig'i 35 yoshgacha. Bundan tashqari, 2030-yilga kelib, Hindiston talab va hind Fintex makon o'sishini rag'batlantirish qiladi. 140 million o'rta daromadli va 21 million yuqori daromadli uy xo'jaliklari tashkil qiladi.

\* Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha tashabbuslar. PMJDY, DAY-NRLM, to'g'ridan-to'g'ri nafaqa o'tkazish, Atal pensiya Yojana va boshqalar kabi moliyaviy xizmatlardan foydalanishni kengaytirish dasturlari raqamli inqilobni tezlashtirdi va ko'proq fuqarolarni, ayniqsa, qishloq joylarda, raqamli moliyaviy xizmatlarga jalb qildi.

**Raqamli kreditlash.** So‘nggi bir necha yil ichida Tier-II, III va IV bozorlarida chiptalar hajmi va talabning oshishi, shuningdek, xatarlarni boshqarish va xizmat ko‘rsatish modellarining yaxshilanishi kuzatildi.

**Naqd pulsiz iqtisodiyot.** Raqamli to‘lovlarning yuqori darajada o‘sishi kutilmoqda (upi tomonidan boshqariladi), chunki Hindiston naqd pulsiz iqtisodiyotga o‘tmoqda.

Aktivlarni boshqarish xizmatlarini taqdim etish tobora Boyroqtex platformalariga o‘tmoqda

Hozirgi vaqtda Hindistonda shaxsiy moliya menejmenti, raqamli brokWealthTech (Sog‘liqni saqlash segmentlarida) xizmatlari, moliyaviy tadqiqotlar, robot maslahatchilari va boshqalar bilan shug‘ullanadigan 440 dan ortiq badavlat Startaplar mavjud. Hindiston hukumati ushbu sohadagi innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Hindiston hukumatining moliyaviy texnologiyalar bo‘yicha idoralararo boshqaruv qo‘mitasi (IMSC), moliyaviy texnologiyalar bo‘yicha Qo‘shma ishchi guruhlar, sovg‘alar shahri va boshqalar kabi tashabbuslar orqali amalga oshirilayotgan sa‘y-harakatlari ushbu sohada o‘sish va innovatsiyalar uchun platforma yaratishga qaratilgandir.

**Sug‘urta texnologiyalari.** So‘nggi bir necha yil ichida ushbu segmentga investitsiyalarning ko‘payishi, AI va mashinani o‘rganish bilan birga, tayyorlangan mahsulot segmentlarini yaratish uchun mo‘ljallangan.

Turli maqsadlar uchun blockchain texnologiyalari keng qabul qilinishi, shu jumladan, Bfsi va Sog‘liqni saqlash segmentlarida ham sezilmoqda. Bundan tashqari, so‘nggi bir necha yil ichida ushbu segmentda Hindistonning yetakchi ishlab chiquvchilari va xizmat ko‘rsatuvchi provayderlari paydo bo‘ldi, bu bizga ushbu texnologiyalardan foydalanish variantlarining katta ma‘lumotlar bazasini yaratishga imkon berdi.

Umuman olganda, Hindistondagi fintex kompaniyalarini tartibga solish quyidagi tartibga solish organlari vakolatiga kiradi:

\* Zaxira banki (RBI).

\* Fond birjasi Kengashi (SYeBI).

\* Sug'urta va rivojlanishni boshqarish (IRDAI).

RBI to'lovlar, hisoblar, P2P kreditlash, virtual valyutalar va boshqalarni yig'ish bilan shug'ullanadigan Hind fintex kompaniyalari faoliyatini tartibga soladi.

Hindistonda Fintex Startuplari tartibga solinadigan faoliyatdir. Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar bo'yicha maslahat Hindistonda investitsiya bo'yicha maslahatchi litsenziyasini olishni talab qiladi. Shuningdek, litsenziyalangan tijorat banklari mavjud, masalan, sotib olish kodeksiga muvofiq fond birjalarida ommaviy masalani yoki ommaviy ofertani joylashtirish. Hindistonda Fintex litsenziyasini olishlari kerak bo'lgan boshqa toifadagi shaxslar mavjud, masalan, saqlovchilar, birja vositachilari, anderrayterlar, reyting agentliklari, venchur fondlari, depozitariylar, fond birjalari.

Kreditlash bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan turli toifadagi muassasalar mavjud. Bular ro'yxatga olingan va rejadan tashqari tijorat banklari, kooperativ banklar, kichik moliyaviy banklar, bankdan tashqari moliyaviy kompaniyalar (NBFC) ni o'z ichiga olgan banklardir. Ularning barchasi fintex xizmatlarini ko'rsatish uchun Hindiston litsenziyasini olishlari kerak. Tartibga solinadigan faoliyatga Hindistonda xayriya jamg'armasini tashkil yetish, zaxira va o'zaro fondlar faoliyati kiradi.

Factoring banklar, NBFC va boshqa ba'zi davlat idoralari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Hisob-fakturalarni diskontlash banklar, NBFC va korporatsiyalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Hindistondagi fond birjasida qimmatli qog'ozlarni ommaviy takliflar sifatida ro'yxatga olish tartibga solish doirasiga kiradi, bunda kreditlar sindikatsiyasi, odatda, tartibga solinmaydi, agar ular sekuritizatsiya qilingan vositalarga aylantirilmasa.

Hindistonda to'lov xizmatlarini tartibga solish moliyaviy texnologiyalar sohasida, ayniqsa, dolzarbdir. Hindistondagi Fintex subyektlari chet el valyutasini vakolatli birjalar va banklar bilan savdo qilishlari

mumkin. Hindiston aholisiga xorijiy savdo maydonchalari orqali chet el valyutasini sotishga ruxsat berilmaydi.

**Hindistonda iste'mol kreditini tartibga solish.** Iste'mol kreditini ro'yxatga olingan tijorat banklari va rejadan tashqari tijorat banklari, NBFC, kooperativ banklar, kichik moliyaviy banklar, mikromoliya tashkilotlari o'z ichiga olgan banklar boshqarishi mumkin. Hindistonda iste'mol kreditini tartibga soluvchi qoidalar kredit agentliklaridan kapitalning yetarliligi, naqd zaxira nisbati, tartibga soluvchi likvidlik nisbati, "mijozingizni biling" ko'rsatmalariga oid standartlarni saqlashni talab qiladi. Har bir agentlik kredit turiga va qarz oluvchining turiga qarab har xil rol o'ynaydi. Masalan, infratuzilma NBFC transport, energetika, suv ta'minoti, aloqa sohalaridagi korxonalariga kreditlar berishi mumkin.

Ikkilamchi bozorda qarz qimmatli qog'ozlari va sekuritizatsiyalangan qarz vositalari bilan savdo qilishga bunday vositalar tan olingan fond birjasida ro'yxatga olinganidan keyin ruxsat beriladi. Hindistonda fintex kompaniyasini ro'yxatdan o'tkazishdan oldin, aktivlarni qayta tiklash kompaniyalari yoki sekuritizatsiya kompaniyalariga sotib olingan qarzni sekuritizatsiya qilishga va sekuritizatsiya qilingan qarzni faqat malakali institutsional xaridorlarga, shu jumladan, banklar, sug'urta kompaniyalari va xorijiy institutsional investorlarga sotishga ruxsat berilishini hisobga olish kerak. 2020-yil iyun oyida RBI kreditlarni sekuritizatsiya qilish va sotishni yengillashtirish bo'yicha ko'rsatmalar loyihasini e'lon qildi.

**Hindistonda jamoaviy investitsiya sxemalarini(CIS) tartibga solish.** Kollektiv investitsiya sxemalarining bir nechta toifalari mavjud (AIF). Umuman olganda, bunga Hindistonda o'zaro investitsiya fondlarini yaratish, Hindistonda muqobil investitsiya fondlarini (AIF) ro'yxatdan o'tkazish va SEBI-da jamoaviy investitsiya sxemalari kiradi. O'zaro investitsiya fondlari, birinchi navbatda, kotirovka qilingan aksiyalar va qarz vositalariga yo'naltirilgan bo'lib, har kim o'zaro fondga ishtirok etishi mumkin. AIFlar faoliyati asosan birjadan tashqari



vositalarga qaratilgan va asosan, institutsional investorlar tufayli investor tomonidan muhim minimal investitsiyalar uchun investitsiyalar bilan shug'ullanadi.

Kollektiv investitsiya sxemalari to'g'risidagi qoidalar pay investorlarining boshqa barcha shakllarini qamrab oladi. Kollektiv investitsiyalarni boshqarishda kompaniyalariga qat'iy qoidalar qo'llaniladi, masalan, reyting, sug'urta, baholash, yopiq harakatlar sxemalari, kafolatlangan daromadlarning yetishmasligi va reklama materiallariga cheklovlar talablari mavjud. Hindistonda fintex kompaniyasining tashkil etilishi AIF bilan shug'ullanish uchun jamoaviy investitsiyalarni boshqarish kompaniyasi sifatida ro'yxatdan o'tishdir. Ammo Hindistonda P2P kreditlash yoki bozorlarda qarz beruvchilar kabi muqobil moliyaviy xizmatlar AIF doirasida emas. Ushbu xizmatlarni tartibga soluvchi alohida qoidalar mavjud bo'lib, ularga Hindistonda fintex kompaniyasini ochishni istaganlar rioya qilishlari kerak.

**Hindistonda AIFni tartibga solish.** Hindistonda aif menejerlari uchun, xususan, ularning malakasi va minimal ish tajribasi bo'yicha me'yoriy talablar mavjud. Aif menejeri yoki homiysi kamida 2.5% yoki 680,370 USD fondiga minimal investitsiyaga ega bo'lishi kerak. Ularning investitsiyalari haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha talablar mavjud.

Hindistonda P2P kreditlashni tartibga solish. RBI P2P kredit tartibga soluvchi organ hisoblanadi. Barcha P2P kreditlash platformalari NBFC sifatida RBI-da vakolatli bo'lishi kerak. Hindistonda P2P kreditlash platformasi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun malaka talablari, boshqalar qatorida:

- \* minimal kapital 272150 USD;
- \* Ro'yxatdan o'tish uchun murojaat qilgan kompaniya Hindistonda ro'yxatdan o'tgan;
- \* ishonchli va xavfsiz axborot texnologiyalari tizimining mavjudligi;
- \* hayotiy biznes-reja;

\* Promouterlar va rejissorlar RBI tomonidan belgilangan mezonlarga javob beradi.

Hindistonda P2P kreditlash ta'minlanmagan asosda amalga oshirilishi mumkin. Kreditni qaytarish muddati 36 oy bilan cheklangan. Bir chegarasi bor 680 shu qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida xavf jihatidan AQSH dollari. Barcha p13,610p kredit platformalarida qarz oluvchiga ta'sir qilish uchun \$2 va barcha P68,037 kredit platformalarida kreditorlar uchun \$2 chegarasi mavjud. RBIGA choraklik hisobot taqdim etilishi kerak.

**Hindistonda kraudfanding.** Hindistonda kraudfanding platformasini ishga tushirishga qaror qilib, shuni hisobga olish kerakki, kraudfanding moliyaviy vositalarga investitsiyalarni o'z ichiga oladigan darajada, ular kompaniyalar yoki qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Hindistonda kraudfandingni tartibga solish bilan bevosita bog'liq qoidalar mavjud emas. Moliyalashtirishning boshqa turlariga, ya'ni qarz mablag'lari yoki kapitalga asoslanmagan narsalarga kelsak, qonun hozirda tartibga solinmagan, chunki kraudfandingning barcha turlarini "depozitlar" deb hisoblash mumkin.

**Hindistonda Fintex loyahasini boshlash: savdo hisoblari.** Hindistondagi mikro, kichik va o'rta korxonalarni moliyalashtirishni soddalashtirish uchun RBI Hindistondagi Fintex reglamentining bir qismi sifatida uchta kompaniyaga hisob diskontlash platformalarini yaratishga imkon berdi. Savdo debitorlik qarzlarini diskontlash tizimi (Treds a fintex) moliyachi korporatsiyalar, davlat idoralari va boshqalar tomonidan to'lanadigan hisob-fakturalarni chegiradigan platforma. Tredlar 3401885 AQSH dollari miqdorida minimal to'langan kapitalni talab qiladi va ta'sisчилardan boshqa yuridik shaxslarga 10% dan ortiq Treds ulushini saqlashga ruxsat berilmaydi.

**Hindistonda to'lov xizmatlari.** Hindistonda to'lov tizimlarini tartibga solish to'lov tizimlari to'g'risidagi 2007-yildagi qonunga muvofiq amalga oshiriladi. To'lov tizimi "to'lovchi va oluvchi o'rtasida

to'lovni amalga oshirish, shu jumladan, kliring, to'lov yoki hisob-kitob xizmatlarini amalga oshirishga imkon beradigan, ammo almashinuvni o'z ichiga olmaydigan tizim" deb ta'riflanadi. Bularga kredit/debet kartalari, aqlli kartalar va pul o'tkazmalari kiradi. Hindistonda to'lov tizimini ishga tushirishdan manfaatdor bo'lgan har qanday tashkilot RBIdan ruxsat olishi kerak. To'lov toifalari:

- ❖ to'lov jamlagichlari;
- ❖ prepaid to'lov vositalari;
- ❖ moliya bozori infratuzilmasi • kliring uylari);
- ❖ chakana to'lov tashkilotlari;
- ❖ karta to'lov tarmoqlari • (Visa, MasterCard, va hokazo.);
- ❖ xalqaro pul o'tkazmalari;
- ❖ bankomat tarmoqlari;
- ❖ tezkor pul o'tkazmalari.

Hindistonda to'lov tizimini ro'yxatdan o'tkazishdan oldin, oldindan to'lanadigan to'lov vositalarining uch turi mavjudligini ta'kidlash kerak:

\* har qanday sotuvchiga to'lovni amalga oshirish uchun ochiq to'lov vositalaridan foydalanish mumkin;

\* yarim yopiq bo'lganlar, bu ma'lum bir sotuvchilar to'plamiga to'lovlarni amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan to'lov vositalari;

\* faqat ushbu sotuvchiga to'lash uchun sotuvchining yopiq bo'lgan to'lov vositasi.

Elektron hamyonlar ko'pincha tovarlar va xizmatlarni onlayn xarid qilish uchun ishlatiladi. Ushbu elektron hamyonlar kredit yoki debet karta operatsiyalari uchun (Visa Verify yoki MasterCard Secure Code) kartalar kabi talablarga javob berganliklari tufayli mashhurlikka erishdilar. Shunga ko'ra, mijozlar ularni avtomatik ravishda qayta autentifikatsiya qilgan holda o'z mablag'larini debet qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar va undan to'lov vositasi sifatida foydalanadilar.

**Ochiq bank va sug'urta mahsulotlari.** Banklar axborot xavfsizligi, elektron bank va kiber firibgarlikni boshqarish bo'yicha RBI ko'rsatmalariga rioya qilishlari kerak. Hindistondagi moliya institutlarini tartibga solishning amaldagi huquqiy asoslariga muvofiq, bunday ma'lumotlar sud yoki qonun bilan vakolatli davlat organlari tomonidan ma'lumot olish uchun oshkor qilishni talab qiladigan hollarda vakolatli muassasalar tomonidan taqdim etilishi kerak.

Hindistonda sug'urta provayderlarini tartibga solish uchun mas'ul bo'lgan qonun chiqaruvchi organ IRDAI hisoblanadi. Sug'urtalovchi mukofot miqdori va IRDAI mijozlarga taklif etilayotgan sug'urta polisi shartlarini asoslab berishi kerak. Hindistonda fintex kompaniyasini ro'yxatdan o'tkazgandan so'ng, IRDAI tomonidan to'g'ri sertifikatlanmagan bo'lsa, sug'urta mahsulotlarini sotish huquqiga ega emas.

**Kredit linklari.** Kredit axboroti xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar 2005-yildagi kredit axboroti kompaniyalari to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi. Qonun qoidalariga ko'ra, bu firmalar RBIda ro'yxatdan o'tgan sertifikatni olish va minimal chiqarilgan 2721510 AQSH dollari kapitaliga ega bo'lishi kerak

Umuman olganda, Hindiston bozorida texnologiyalarning o'sishi va rivojlanishi bilan fintex kompaniyalarining roli sezilarli bo'ldi. Shu kunlarda startaplar fintexga sarmoya kiritishga moyil:

1. Taqdim moliyaviy ma'lumotlarni himoya qilish va xavfsizlik.
2. Blockchain bozorida tendensiyalarni tezkor joriy etish va rivojlantirish.
3. Texnologiya bozorida ko'tarilish tendensiyalari.

### **Nazorat savollari:**

1. Moliyaviy texnologiya ahamiyatli dvigatel tushunchasini aytib bering.

2. Smartfonlar, moliyaviy texnologiyalar va ta'lim amaliyotlarini masofadan bajarish yo'llariga tavsif bering.

3. Yevropa davlatlarida moliyaviy texnologiyalarning ijtimoiy ta'siri nima o'z aksini topgan?

4. Moliyaviy texnologiya sohasida Hindistonning imkoniyat piramidasi nimalarda namoyon bo'lgan?

5. Blockchain bozorida tendensiyalarni tezkor joriy etish va rivojlantirish nima uchun zarur?

6. Texnologiya bozorida ko'tarilish tendensiyalari nimalardan iborat?

## V BOB. MOLIYAVIY TEXNOLOGIYA YECHIMLARINING KREDIT SKORINGI

### Reja:

- 5.1. Kredit skoringi va uning mohiyati, vazifalari
- 5.2. Banklarda kredit skoringi amaliyoti
- 5.3. Xalqaro amaliyotda skoringning qo'llanishi
- 5.4. O'zbekiston bank tizimida skoring amaliyoti

**Tayanch iboralar:** skoring, kredit, kredit olish qobiliyati, mijoz, bank, koeffitsient, kredit siyosati, bank tizimi.

### 5.1. Kredit skoringi va uning mohiyati, vazifalari

Xo'jaliklar o'z faoliyatida asosan o'z mablag'i va chetdan jalb qilingan mablag'larni samarali boshqarishga harakat qiladilar. Faoliyat yakunlarini samarali boshqarish esa o'z faoliyatining ikkinchi jarayonida bo'sh pul mablag'lari qolishiga va jamg'arilib borishiga olib boradi. Bu mablag'larni harakati va jamg'arilishi esa bank tizimi orqali amalga oshiriladi va banklarda saqlanib, jamlanib boriladi. Bu jamg'arilgan mablag'larni vaqtincha ko'proq banklar vositachilik orqali samarali foydalanishlari mumkin.

Shunday qilib, banklar – bu kreditning rivojlanish natijasidir. Shuning uchun kredit munosabatlari bankka nisbatan asos bo'lib hisoblanadi. Kreditlash kredit bitimidagi ikki tomonning manfaatlarini ko'rsatadi. Banklar, xo'jalik tashkilotlarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda ularning talablarini qondirish maqsadida ish yuritadi. Qarz oluvchining iqtisodiyotini rivojlantirish, uning raqobatbardoshligi va foydaligi, ishlab chiqarish va muomalasining to'xtovsiz oshib borilishi uchun beriladigan kreditlar bank kreditlashining maqsadi hisoblanadi. Shu bilan birga mijozning manfaatlari kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanmaydi.

Shuningdek, 2004-yildan boshlab Markaziy bank huzurida tashkil etilgan Kredit axboroti milliy instituti tomonidan qarz oluvchilarning kredit tarixi va banklararo axborot almashinuvi tizimining samarali ishlashi ta'minlanmoqda. Bu tizim aniq vaqt rejimida ishlab, unga barcha bank filiallari bog'langan hamda yuridik va jismoniy shaxslarning kredit talabnomalarini ko'rib chiqishda ushbu tizimdan majburiy ravishda foydalaniladi.

Bu esa, kreditlash jarayonidagi ma'lumotlar nomutanosibligi, noto'g'ri qaror qabul qilinishining oldini olishga va shu orqali bank tizimida kredit tavakkalchiligini kamaytirish hamda banklarning kredit portfeli sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobi O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 17-dekabr 2004-yilda 1435-son bilan ro'yxatdan o'tgan «Tijorat banklarida kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma» ga asosan yuritiladi. Tijorat banki o'zi xizmat ko'rsatayotgan mijozlar faoliyati to'g'risida doimiy axborotga ega bo'lishi, uning kredit qobiliyatini, to'lov intizomi ahvolini tahlil qilib borishi, ya'ni «ma'lumotlar banki»ni barpo etishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit operatsiyalarini o'tkazilishi uchun kredit siyosatini ishlab chiqadi va unga ko'ra faoliyat yuritadi. Mijoz ssuda olish uchun bankka belgilangan tartibda hujjatlar paketini rasmiylashtirib topshirganidan keyin kredit kommissiyasining qaroriga ko'ra kredit berish lozim deb topilib, bank va kredit oluvchi o'rtasida imzolangan kredit shartnomasiga asosan mijozga kredit beriladi. Buning uchun mijozga alohida ssuda hisobvarag'i ochiladi. Ushbu hisobraqamining debitida mijozlarga ssudalar beriladi.

Bank mijozlarini kredit olish qobiliyati korxonaning olgan qarz mablag'larini samarali foydalanishi uchun ishonch bildiruvchi, qarz oluvchining olgan kreditlarini shartnoma asosida qaytarish qobiliyati va tayyorlashni bildiruvchi moliyaviy xo'jalik holatidir. Boshqacha so'z bilan aytganda, kreditga qobilik xo'jalik subyektlari tomonidan

kreditlarni o'z vaqtida va to'raligicha qaytara olish qobiliyati hamda moliyaviy ahvoriga beriladigan bahodir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarining kreditga layoqatligi bir qator ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi. Bular:

- qoplash koeffitsienti;
- likvidlik koeffitsienti;
- mablag'lar bilan ta'minlanganlik (muxtoriylik) koeffitsienti.

Shuningdek, o'z aylanma mablag'lari mavjudligi dinamikasi, foydalilik va aylanma mablag'larning aylanishi ko'rsatkichlari ham alohida ahamiyatga egadir.

Kredit layoqatligini baholash xo'jalik subyektlarini balans va foyda zararlar to'g'risidagi hisobotlashga asosan amalga olishadi. Bundan tashqari, kreditga qobillikni aniqlash davrida zaruriy hollarda statistik, analitik va boshqa ma'lumotlardan ham foydalaniladi.

Moliyaviy koeffitsientlar quyidagicha aniqlanadi.

1. Qoplash koeffitsienti qisqa muddatli tarzidagi likvid mablag'larni qisqa muddatli majburiyatlarga nisbatan tarzida hisoblanadi. U quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$Q_k = \frac{JA}{JP} \quad (1)$$

Shu bilan birgalikda, xo'jalik subyektlarining ishlab chiqarish xususiyati, aktivlarining tarkibi kabi omillar qoplash ko'rsatkichini ifodalovchi xo'jalik va tashkilotlar balansidagi haqiqiy likvidlik holatini baholashda bir muncha noaniqliklarni vujudga keltirishi mumkin.

Shu sababdan balans likvidligi ko'rsatkichini aniqlashda turli xil omillari ta'sirini kamaytirish maqsadida xo'jalik subyektlarining balans likvidligi ko'rsatkichi pul mablag'lari va yengil hal qilinadigan talablarni qisqa muddatli majburiyatlarga nisbatida aniqlanadi, ya'ni bunda tovar moddiy qiymatliklari zaxirasi hisobiga olinmasdan faqatgina real likvid aktivlar qayd etiladi.



2. Likvidli koeffitsienti – joriy aktivlardan tovar moddiy qiymatliklarni ayirish yo‘li bilan joriy passivlarga nisbati orqali aniqlanadi hamda quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$Lk = \frac{JA - TMQ}{JP} \quad (2)$$

3. Muxtoriylik koeffitsienti korxonani o‘z mablag‘lari manbalarini balansning passiv qismining jami summasiga nisbati orqali aniqlanadi va korxonani qarz mablag‘larini manbalaridan mustaqilligini ko‘rsatadi.

Tijorat banklarida mijozlarning o‘z manbalari bilan ta‘minlanganligi koeffitsienti ham hisoblab chiqiladi. Uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$AK = \frac{O'MM}{BP} \quad (3)$$

Mijozning kredit qobiliyatini aniqlovchi koeffitsentlar topilgandan so‘ng, u kredit berish bo‘yicha sinflarga ajratiladi.

#### 5.1.-jadval

#### Tijorat banklarida sinflar bo‘yicha kreditga qobillikning asosiy ko‘rsatkichlariga talablar<sup>34</sup>

№	Ko‘rsatkichlar nomi	I- sinf	II - sinf	III - sinf
1	Qoplash koeffitsienti	$Qk \geq 2,0$	$2,0 \geq Qk \geq 1,0$	$1,0 \geq Qk > 0,5$
2	Likvidlik koeffitsienti	$Lk \geq 1,5$	$1,5 > Lk \geq 1,0$	$1,0 \geq Lk > 0,5$
3	Muxtoriylik koeffitsienti	$Ak \geq 60\%$	$60\% > Ak \geq 30\%$	$30\% > Ak > 15\%$

<sup>34</sup> Toymuxamedov I. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2012.

5.1.-jadval ma'lumotlariga tayangan holda aytishimiz mumkinki, birinchi sinfga kiritilgan korxonalar umumiy shartlar asosida kreditlar beriladi. Ularga bank kreditlari berilishi yoki muayyan imtiyozlar taklif etilishi mumkin.

Ikkinchi sinf korxonalari ham umumiy shartlar bo'yicha kreditlanadi. Ularga, ba'zi qo'shimcha shartlar bajarilganda, ma'lum imtiyozlar beriladi (ishonchli kreditdan tashqari). Bunday korxonalar bilan shartnoma tuzilganda qo'shimcha nazorat chora-tadbirlari kelishiladi.

Uchinchi sinfga kiritilgan korxonalar kreditga qobiliyat past darajada deb qaraladi va faqat garov asosida kredit berilishi mumkin. Uchinchi sinfdan past baholangan korxonalar kreditlar berilmaydi.

Kredit bo'limining farmoyishiga ko'ra, hisob-operatsion bo'limida kredit oluvchi korxonaga ssuda hisob varag'i ochiladi. Qaysi turdagi xo'jalik yurituvchi subyektligiga qarab, tegishli balans hisob-varag'i bo'yicha ssuda hisobvarag'i ochiladi.

O'zbekistonda tijorat banklarining kredit berish mexanizmini qayta tashkil etish, ya'ni ko'rib chiqish, mustaqil davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

Skoring usullarini joriy etishning dolzarbligi so'ngi yillarda iste'mol kreditiga bo'lgan talabning tez o'sishi; tijorat banklarining kredit siyosati va berilgan kreditlarning qaytib kelmaslik holatlarining ko'payganligi; tijorat banklari kredit portfeli hajmining oshishi; iste'mol krediti sohasida tijorat banklari aktivlik darajasining pasayishi; mamlakatda kredit byurolarining shakllanish darajasi birinchi bosqichdaligi; iste'mol va ipoteka krediti bozorida banklarning risklilik darajasining yuqoriligi; mijozning to'lov qobiliyatni tahlil qilishda o'zlarining dasturiy ta'minot tuzilmalarini joriy etishning yuqori darajada qimmatligi va boshqalar bilan izohlanadi.

Mijozning kredit olish qobiliyati nafaqat mamlakatimizda balki, jahon bank amaliyotida kredit munosabatlarida ularning kredit olish maqsadlari va shakllarini aniqlashda asosiy baholash obyekti bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda mijozning kredit olish qobiliyatini baholashning bir nechta usullari mavjud bo'lib, ular bir-birlaridan mijozlarni umumiy baholashdagi tashkiliy tuzilma sifatida foydalaniladigan ko'rsatkichlar miqdori va usuli bilan farqlanadi.

Ammo ular mamlakat miqyosida ishlatilish holatining asosiyligi bilan farqlanishi mumkin:

- 1) to'lov qobiliyatini aniqlash usuli;
- 2) skoring usuli;
- 3) andarrayting.

Mijozning kredit olish qobiliyati tahlilining maqsadlari:

▶ Qarz oluvchi tomonidan so'ralayotgan summani kredit shartnomasi shartlari asosida qaytara olish qobiliyati va unga tayyorligini aniqlash;

▶ Ushbu tashkilotni kreditlash bilan bog'liq risklarini baholash;

▶ Berilishi mumkin bo'lgan kredit miqdori va uning shartlarini to'g'ri aniqlash hisoblanadi.

Mijozning kredit olish qobiliyati tahlili vazifalariga potensial qarz oluvchiga nisbatan umumiy tavsifnomani shakllantirish, tashkilotni iqtisodiy tahlil qilish va kredit ta'minotini sifat tomonidan baholash va boshqalar kiradi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda mijozlarni kreditga qobilligini aniqlashda skoring usullaridan foydalaniladi.

Skoring (ingliz tilidan olingan bo'lib – *scoring*) «ochkolarni hisoblash» va qaror qabul qilishda ballarni baholash degan ma'noni anglatadi<sup>35</sup>.

Banklar uchun skoring – bu, birinchi navbatda, risklarni baholash usuli va shu asosda mijozning kreditni qaytarish istiqbolini statistik usul orqali baholash demakdir.

Ikkinchidan – bu qaror qabul qilishning avtomatlashtirish jara-yonini bildiradi.

---

<sup>35</sup> Краливецкая Л.Н. «Банковское дело»: кредитная деятельность коммерческих банков: учеб. пос. – М.: КНОРУС, 2008. – 280 с.

Ayrim adabiyotlarda skoring bank tomonidan kreditlanayotgan mijoz bilan barcha bosqichlarda ishlash ma'nosini anglatadi<sup>36</sup>.

Yana boshqa bir olimlar tomonidan skoring mijozning kredit tarixi asosida potensial qarzdorni uning ijtimoiy-demografik tavsiflari asosida reyting baholash tizimi deb ko'rsatiladi.<sup>37</sup>

Boshqa bir rus iqtisodchisi O.I. Lavrushin skoring – bu kredit risklarini baholash maqsadida barcha mijozlarni turli guruhlariga ajratish uslubi; matematik yoki statistik model degan fikrni bildiradi<sup>38</sup>.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ta'riflar asosida banklardagi skoring kreditlash uslubini bank mijozini kreditga qobilligini, uning kredit tarixiga asosan, xususan, mavjud axborotlarni matematik tahliliga ko'ra ballarni hisoblash orqali aniqlash usulidir, degan ta'rifni keltirish o'rinli deb o'ylaymiz.

Ammo shuni ta'kidlash lozimki, skoring faqat mavjud axborotlarni o'rganish, ballarni hisoblashning sof matematikaga asoslangan dasturni bildiradi. Bunda inson omili ballar ortiga o'tib ketadi. Chunki ushbu ballar ortida inson omili ko'rinmaydi.

Shuning uchun skoringni mijozlarining o'tgan davrdagi kredit tarixi orqali aniq potensial qarz oluvchini kreditni o'z muddatida qaytarish ehtimolini aniqlash uslubi deb ham tushunish mumkin.<sup>39</sup>

Tijorat banklarida skoring usuli orqali mijozlarni kreditlash jarayonida risklarni baholash texnologiyasi asosiy muammolardan hisoblanadi. Chunki bank xizmatchisi tomonidan potensial qarz oluvchini kreditga qobilligini baholashda kredit riskini ham baholash talabi turadi. Bunda skoring qarori o'z ichiga ushbu riskni qo'shishni bildiradi.

<sup>36</sup> Грюнинг Х. Ван, Брайович Б.С. Анализ банковских рисков. Система оценки корпоративного управления и управления финансовым риском/ Пер.с англ. - М.: «Весь мир», 2007. -304 с.

<sup>37</sup> Ольшанский А.И. Банковское кредитование.-М., 1997.-42 с.

<sup>38</sup> Банковские риски: Учебное пособие /Под ред. О.Лаврушина -М.: КНОРУС, 2008.-232 с.

<sup>39</sup> Кабушкин С.Н. Управление банковским кредитным риском: Учебное пособие. М.: Новое знание, 2004.-184 с.

Shu bilan birga skoring mexanizmlarini bank kreditlash faoliyatiga joriy etish bu banklar tomonidan kreditlash jarayonlarini avtomatlashtirishga olib keladi. Banklar tomonidan kreditlash bilan bog'liq qaror kompyuter texnikasi orqali qabul qilinadi.

Banklarda qabul qilingan skoringlar ularning barcha operatsiyalariga joriy qilinishi mumkin. Jumladan, bank depozit operatsiyalarida, mablag'larni to'g'ri jalb qilishda, ularni bahosini to'g'ri aniqlashda, investitsiya operatsiyalarida, yangi bank xizmatchilarini ishga qabul qilishda yoki kredit operatsiyalarini amalga oshirishda.

Shuning uchun biz ishimizda faqat kredit skoringiga to'xtalib o'tamiz.

Kredit skoringi – bu bank tomonidan mijozni kredit olish qobiliyatini baholash, ya'ni qarz olish uchun ariza bergan shaxslarni kredit risklarini tez va obyektiv baholashning statistik usulidir<sup>40</sup>.

Bunda yuqorida aytib o'tilganidek, bank xodimi o'z mijozni to'g'risidagi shaxsiy fikrini hisobga olmasdan mavjud bo'lgan kredit tarixi asosida ularning olayotgan kreditlarining hajmi va kreditlarni o'z vaqtida qaytarish ehtimolini matematik (statistik) modellar yordamida aniqlash tushuniladi<sup>41</sup>.

Mavjud bo'lgan statistik modellar asosida birinchi marotaba o'simliklar dunyosiga nisbatan ishlab chiqilgan bo'lib, uning asoschisi Devid Dyuran Fisher hisoblanadi. U 1936-yilda o'simliklarni "yaxshi" va "yomon" guruhlarga ma'lum bir ballar asosida ajratishga harakat qilgan.

Birinchi skoring kartalari XX asrning 40-yillarida AQSHda paydo bo'lgan. Unda ekspertlar tomonidan 10 tadan oshmagan tavsiflovchi ko'rsatkichlar asosida skoring ballari qo'yilgan.

1941-yilda AQSHda yoppasiga bank ekspert-tahlilchilarining frontga ketishi munosabati bilan banklarning kreditlash faoliyatida skoring usullaridan foydalanish keng qo'llanila boshladi. Devid Dyuran

<sup>40</sup> Панова Г.С. Кредитная политика коммерческого банка.-М: ИКЦ «ДИС»,1997.-286 с.;

<sup>41</sup> Усоскин В.М. Современный коммерческий банк.- М.: 1993.-204 с.

Fisherning «o'simliklarga nisbatan qo'llagan» «yaxshi», «yomon» tuslanishini bank kreditlariga nisbatan qo'llashga harakat qilgan.

Skoring dasturlarning birinchi marotaba yoppasiga dasturiy ta'minot asosida qo'llanilishi 50-yillarda Amerikadagi Diners Clubning «Tushlik qilib, imzo chek» nomli kartochnalik dasturli tizimi bank kreditlarini baholash va berishda qo'llanila boshlandi.

Demak, kredit skoringi birinchi marotaba kredit kartochnalarining tizimlik dasturi asosida shakllangan. Skoring dasturi va usuli orqali mijozga berilgan kreditning risk darajasi emas balki mijozning xulq-atvoridagi ochilmagan qonunlari ham baholanishi mumkin.

Hozirgi kunda skoring usullari 2 xil usulda «Microsoft Office Excel» va boshqa maxsus dasturiy ta'minotlar orqali olib borilmoqda.

Bugungi kunda AQSHda mijozlarni baholashda o'z milliy kredit skoring tizimiga ega bo'lgan 3 ta kompaniya mavjud. Ular:

Fair, Isaac & Company (FICO). Uning egalari bo'lib Bill Fer va Erl Isaaklar hisoblanadilar. Ular statistik modellar yordamida 1956-yilda mijozlarning kredit olish qobiliyatini baholashda o'z tizimini yaratgan shaxslardir. Shu bilan birga jahon skoring tizimida kredit skoringini yaratgan shaxslar ham shular hisoblanadi.

Wells Fargo. Ular 1997-yilda kreditlash skoring tizimini bank amaliyotiga yoppasiga joriy etganlar.

Franklin & Crand Company har bir bank va ularning mijozlari uchun foydalanishi mumkin bo'lgan kredit skoring tizimini yaratishga harakat qilgan.

Kredit skoringi – bu bank yoki kredit tashkiloti tomonidan qarzdorni olgan ballari orqali baholash jarayonidir.

Kredit skoringi umumiy holda turli kredit tarixlarini o'rganish orqali to'lov intizomiga ta'sir ko'rsatuvchi risk darajasini aniqlashga imkon beradi.

Kredit skoringi ham boshqa tushunchalar kabi turli vazifalarni bajarishga qaratilgan.

Umumiy bank amaliyotida kredit skoringi ikkita vazifani bajaradi:

▶ skoring modellarini yaratish – kredit olish qobiliyatini baholash modellari;

▶ qaror qabul qilishning skoring tizimini tuzish.

Banklarda skoring modellarini tuzishda kuzatilayotgan holatlar quyidagilardan iborat

▶ biznes-jarayonlar yo‘lga qo‘yilgan va tartibga solingan, faqatgina skoring tizimining tahliliy komponentlari integratsiyasi talab etilmoqda.

▶ biznes-jarayonlar oyoqqa turish arafasida, kredit arizasi bilan to‘liq ishlash jarayonlarini maksimal joriy etish va ularning to‘liq ta‘minlash shart.

Banklar skoring modellarini shakllantirishda quyidagi vositalarga e‘tibor qaratishlari kerak:

▶ kredit portfelini o‘rganish;

▶ skoring modellarini tuzish;

▶ Skoring modellari samaradorligini baholash;

▶ import/ eksport skoring modellari;

▶ Skoring infratuzilmasini qurish.

Kredit skoringi turlari bo‘lib quyidagilarni keltirish mumkin:

▶ Application-skoring – mijozni kredit olishi uchun uning kredit olish qobiliyatini baholash;

▶ Behavioral Scoring – axloqiy skoring, bank tomonidan «boshqaruv» qarorlari doirasida qarzdorlarning alohida raqamlarini va umuman, kredit portfelini baholash;

▶ Collection Scoring – «yomon» mijozlarga nisbatan va «qoniqarsiz» deb tavsiflangan mijozlarga nisbatan qaratilgan ustuvor ishlarni aniqlash. Collection-skoring bankni qarzdorlar bilan barcha bosqichlarda samarali ishlashini tashkil etishi mumkin;

▶ Fraud Scoring – potensial va mavjud mijozlar bilan vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ko‘zbo‘yamachiliklarni aniqlash va bartaraf etishga imkon yaratishi mumkin.

Umuman olganda, skoring – bu ishni tashkil etish usuli bo‘lib hisoblanadi.

Bu bank tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni markazlashgan tarzda baholash va qaror qabul qilish tizimidir. Shunga ko‘ra banklar oldida quyidagi vazifalar qo‘yilmoqda:

- 1) Kredit mahsulotlarini boshqarish.
- 2) Qaror qabul qilish strategiyasini tashkil etish.
- 3) Kreditlarni sotish monitoringini shakllantirish.
- 4) Bank kredit portfeli va skoring modeli adekvatligini kuzatib borish.

Kredit skoringi uchun zamonaviy qaror – bu...

▶ skoring modellarini yaratish (ekspert, matematik, tahlil va moliyaviy baholash). Ushbu modellar integratsiyasidir.

▶ Kredit mahsulotlari tizimini yaratish va ulardan foydalanish (bir necha minut ichida, qarzdorning strategik tahlili).

▶ Tahlil va skoring uchun tashqi manbalaardagi axborotlardan foydalanish (qora ro‘yxat, kredit byurosi, o‘zining lokal ma’lumotlar bazasi).

▶ Kredit siyosati uchun oddiy qoidalar va boshqaruv qoidalarini yaratish – bonuslar tizimi/ jarimalar potensial qarzdorlarni baholash uchun.

▶ Kredit mutaxassislari uchun turli qoidalarni arizalarni tarqatish, yaratish va boshqarish borasidagi vazifalarni bo‘lib berish (turli huquqlar bo‘yicha).

▶ Kredit mutaxassislari uchun turli skoring reytinglarining egiluvchan interpretatsiyasini belgilab berish.

▶ Alohida olingan qarzdor va umuman, jami kredit portfelini tez va sifatli baholash dinamikasini yaratish imkoniyatidir.

Kredit skoringining funksional imkoniyatlari bo‘lib quyidagilar tushuniladi:

- ▶ Markazlashuv;
- ▶ Skoring modellarini tuzish;



- ▶ Qarzdorlarning strategik tahlilini yaratish;
- ▶ Tashqi axborot manbalari bilan ishlash;
- ▶ Kredit siyosati qoidalarini boshqarish;
- ▶ Haqqoniy qarorlarni qabul qilish;
- ▶ Skoring reytinglari interpretatsiyasini tartibga solish;
- ▶ Skoring hisobotlari.

Banklarning kredit skoringda mijozlarning kredit olish qobiliyati yaratilgan model orqali bashoratlanadi. U mijozning tavsifi va uning qarzni qoplash axloqiy holati bilan bashoratlanadi.

Banklarning kredit skoringi uchun asosiy axborot manbai bo'lib quyidagilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

▶ Kredit skoringida axborot olish qarz oluvchi tomonidan anketa to'ldirilayotgan davrdan boshlanadi.

▶ Axborot paketini kollektor kompaniyasining «qattiq» ta'siri asosida shakllantirish. Bunda banklar tomonidan faqatgina mijoz o'z qarzini to'liq to'laganidan so'ng yoki u bankrot deb e'lon qilingunga qadar kredit ishi tizimga qaytarilmaydi.

▶ Mijozning kreditga qobilligi tahlili va kredit skoringi uchun tashqi axborot manbalaridan foydalanish (qora ro'yxat, kredit byurosi va o'zining lokal axborot bazasi va boshqalar).

Yirik kredit byurosi tomonidan axloqiy kredit kartalarini yozish imkoniyati katta. Ularda mijozlar bo'yicha statistik axborotlar miqdori yetarli hisoblanadi. Ammo bank xizmatchilari uchun bunday instrumentlar yetarli hisoblanmaydi. Ular aniq olingan bankning kredit mahsuloti xususiyatlarini e'tiborga olmaydilar. Xorijlik bank xizmatchilarining fikricha tashqi axborot manbalari kredit skoringida 40% bankda esa axborotlarning haqqoniyligi ko'pi bilan 70% ni tashkil etadi. Qolgan ma'lumotlar va kredit riskini baholash vazifasi, albatta, bank xodimining tajribasi, uning professional qobiliyati va kredit riskini bashoratlash imkoniyatiga bog'liq bo'lib qoladi.

## 5.2. Banklarda kredit skoringi amaliyoti

Tijorat banklari O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish, rivojlangan bozor munosabatlarini joriy etish, xalq xo'jaligining barcha sohalarida tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun faol yordam beruvchi real sektordir. Shuning uchun banklar faoliyatida xizmat ko'rsatish turlarini maksimal darajada kengaytirish, ularning sifatini yaxshilash, mijozlarni kompleks o'rganish va ularga xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydigan xalqaro andozalarga o'tkazish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekistonda axborotlashtirish sohasida yaratilgan mukammal qonunchilik bazasi jamiyatimizning barcha jabhalari qatori bank tizimiga ham kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etishga imkon yaratdi. Bank tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi mijozlarga bank xizmatining yangi turlarini ko'rsatish, xizmatlar samaradorligi va mijozlarning bankka bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda. Bugunga kelib mamlakatimiz bank tizimida mijozlarga pul jo'natmalarining elektron to'lovlar tizimidan foydalangan holda qisqa vaqt ichida amalga oshirish imkoni yaratilgan, shuningdek, bank mijozlariga mobil aloqa vositalari va global internet tarmog'i orqali interaktiv xizmatlar ko'rsatish ham yo'lga qo'yilgan, shu bilan birga, banklar tomonidan statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, elektron hujjat aylanishi, xususan, elektron raqamli imzo texnologiyalari qo'llanilib kelinmoqda.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri AKT asosida bank xizmatining yangi turlarini kengaytirish, AKT sohasiga oid qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, bank amaliyotiga ilg'or texnologiyalarni kiritishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish va ularni mijozlarga taqdim etish, ushbu ishlar

ko'lami orqali banklar investitsiya faolligining kuchayishi va kapital-lashuviga erishish, moliya-bank tizimida barqarorlikni ta'minlashga ko'maklashishdan iboratdir.

Axborotlashgan jamiyatda bank tizimi faoliyatiga AKTni keng joriy qilish ko'zlangan vazifalarni amalga oshirishning asosiy yo'llaridan biridir. Bugungi kunda AKT nafaqat biznes jarayoning vositasi, balki bu jarayonning integratsiyalashgan qismi hisoblanadi.

Ayni paytda bank tizimi o'z faoliyatini AKTdan ayri holda davom ettira olmaydi. Sababi bank har kuni, har soniyada AKTga ehtiyoj sezadi hamda undan foydalanadi. Bank tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi mijozlarga bank xizmatining yangi turlarini ko'rsatish, xizmatlar samaradorligi va mijozlarning bankka bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday xizmat turlaridan biri bankning asosiy faoliyat turi hisoblanmish kredit faoliyatidir.

Banklarning muvaffaqiyatli kredit siyosati olib borishining zaruriy sharti jahon amaliyotidan ma'lumki, qarzdorlar to'g'risida to'liq axborot almashinuvi hisoblanadi. Qarzdorlar to'g'risidagi to'liq axborotning kredit berish vaqtida kredit tashkilotida mavjud emasligi muddatida qaytarilmagan kreditlarning o'sishiga olib keluvchi asosiy sabablardan biridir. Qarzdorlar to'g'risidagi to'liq axborot olishning zaruriy sharti va asosiy ta'minotchisi zamonaviy axborot texnologiyalaridir. Kredit portfelining hajmi va qarzdorlar soni oshgani sayin banklar uchun bo'lajak va mavjud qarzdorlar haqida to'laqonli axborotga ega bo'lish qiyinlashadi. Bunday ma'lumotlarni olish va tahlil qilish uchun ko'p vaqt sarflanadi, mijoz esa qisqa muddatda mablag' olishni istaydi. Kredit axborot almashish tizimi jahon amaliyotida mana shu zarurat tufayli yuzaga kelgan va shu zaruriyatning yechimi sifatida AKTga asoslangan bank texnologiyalaridan foydalanilgan.

2004-yil 23-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qarz oluvchilarning kredit tarixi to'g'risidagi axborotni hisobga olish tizimini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul

qilindi. Vazirlar Mahkamasining mazkur Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Kredit axboroti milliy instituti (KAMI) hamda O'zbekiston banklari uyushmasi huzuridagi Banklararo kredit byurosi tashkil etildi va respublikamizda kredit axboroti almashinuvi tizimi shakllanishiga imkon yaratdi. Unga ko'ra mazkur institutga tijorat banklari va ularning qarz oluvchilarning kredit operatsiyalari, qarz oluvchilarning majburiyatlarini ta'minlash turlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, tegishli ma'lumotlar bazasini shakllantirish, kredit siyosatidagi o'zgarishlarni va tijorat banklarining kredit portfeli holatini tahlil etish maqsadida kredit axborotining yagona reestrini yuritish, shartnoma asosida tijorat banklariga va kredit-axborot byurolariga kredit axboroti berishning mexanizmlari yaratildi. Bu tizim, kreditor va qarzdor orasidagi axborot bo'shlig'ini to'ldirgan holda, kredit riskini kamaytirish, aholi va kichik biznesni kreditlash hajmini oshirishga ko'maklashuvchi vosita bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutildi.

Axborotlashgan jamiyatda elektron hukumat rivojlanishining hozirgi bosqichida kredit axboroti almashinuvi tizimining yanada takomillashuvini taqozo etmoqda edi. Xususan, kredit axboroti almashinuvi jarayonida faqatgina banklarning ishtiroki ta'minlanishi bilan chegaralanmasdan, ushbu munosabatlarga boshqa kredit tashkilotlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning jalb etilishi davr talabiga aylandi. Ya'ni, mazkur munosabatlarda boshqa kredit tashkilotlari, jumladan, mikro-kredit tashkilotlari, kredit uyushmalari, lombardlarning ishtiroki ko'zda tutilmagan, shuningdek, lizing sug'urta tashkilotlarining kredit axboroti almashinuvida ishtiroki belgilanmagan edi. Shuning uchun bank tizimi hamda nobank kredit tashkilotlari va lizing sug'urta tashkilotlarining hozirgi rivojlanish bosqichi kredit axboroti almashinuvi tizimini bevosita tartibga soladigan alohida qonun hujjati qabul qilishni taqozo etdi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2011-yilning 4-oktyabrida imzolangan O‘zbekiston Respublikasining “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi Qonuni 2012- yilning 1-yanvaridan kuchga kirdi

Yuqorida keltirilgan Qonunga muvofiq kredit axboroti almashinuvi bo‘yicha huquqiy bazaning yaratilishi va buning asosida zamonaviy kredit axboroti almashinuvi tizimining tashkil etilishi quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

- ✓ kredit tavakkalchiligining kamayishi;
- ✓ kredit intizomining mustahkamlanishi;
- ✓ kredit portfeli sifatining yaxshilanishi;
- ✓ muammoli aktivlar bo‘yicha zaxira yaratish xarajatlari kamaytirilishi;
- ✓ kredit portfeli hajmining oshirilishi;
- ✓ kredit bozorida raqobatning oshirilishi;
- ✓ foiz stavkalarining kamaytirilishiga erishish.

Kredit axboroti almashinuvi tizimi jismoniy va yuridik shaxslarning avval olingan kreditlari va boshqa qarz majburiyatlari bo‘yicha kafolatlarning bajarilishi to‘g‘risida ma‘lumotlardan tashkil topgan kredit tarixini shakllantiradi. Kredit tarixi esa, tizimni faoliyatga keltiruvchi asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Bu qarz oluvchi majburiyatlari va ularni ijro etish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, shuningdek, qarz oluvchiga moliyalash taqdim etilishi xatarini baholash uchun ta‘sir etadigan (bankrotlik, sud qarorlari, muassislar tarkibi) boshqa ma‘lumotlardir. Kredit tarixi qarz oluvchining to‘lov intizomini aniqlashga yordam beradi, ya‘ni qarz oluvchi o‘z zimmasidagi to‘lov majburiyatlarini qanchalik to‘liq, o‘z vaqtida va muntazam bajarishi aniqlanadi. Shu tariqa, kredit tarixi qarz oluvchining o‘ziga xos nufuzini belgilaydigan mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ijobiy kredit tarixiga ega qarz oluvchi ancha yengil shartlar asosida (qarzni ta‘minlashga talablar pastligi, summaning ko‘p va moliyalash muddatining uzoq bo‘lishi) osonlik bilan qarz olishi mumkin.

Chakana bank xizmatlari borasida o'z faoliyatini samarali olib borgan xorijiy Rayffayzenbank boshlig'i fikriga ko'ra, buning uch usuli bo'lishi mumkin:

1. Biror-bir yaxshi maqsadli kreditni olib, o'sha kredit bo'yicha model qurish;

2. Boshqa mamlakatda tayyorlangan modelni sotib olish;

3. Ushbu holat uchun ideal hisoblangan o'z modelini yaratish. Ammo bu banklar uchun mushkul va qimmat bo'lishi mumkin.

Fair, Isaac & Company mutaxassislari tomonidan shakllantirilgan mijozni kredit olish qobiliyati bo'yicha tavsifnoma quyidagilardan iborat.

1) Kreditlarni qoplash bo'yicha to'lovlarning retrospektiv ma'lumotlari.

2) Qarzdor tomonidan kreditning foydalanish usuli.

3) Mijoz kredit tarixining davomiyligi.

4) Ariza beruvchi tomonidan qarz olish uchun beriladigan arizaning davriyligi.

5) Iste'molchining kreditlar paketi (Kombinatsiyasi)

6) Mijozni kredit olish qobiliyatini baholash ariza beruvchi tomonidan so'ralayotgan kredit turiga bog'liq.

Devid Dyuran tomonidan ishlab chiqilgan skoring modeli bank amaliyotida keng tarqaldi. Uni jismoniy shaxslarni kreditlashda va ularning riskini aniqlashga keng qo'llash mumkin.

O'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish yo'nalishiga ko'ra, kredit skoringi bir nechta turlarga bo'linishini oldingi savolda ko'rib o'tgan edik.

Shunga ko'ra bugungi kunda bank tizimlariga joriy qilish mumkin bo'lgan quyidagi bir nechta kredit skoringi dasturlari turlari mavjud:

1) Behavioral – mijozning kredit kartasi orqali unga belgilanadigan optimal limit, uning to'lov qobiliyatidagi o'zgarishlar va istiqboli aniqlanadi. Bunday skoring «axloqiy skoring» deb ham ataladi.

2) Collection – kollektor agentliklari tomonidan muddati o‘tgan qarzlilar bilan yoki «qoniqarsiz» deb tavsiflangan kreditlar (mijozlar bilan to‘liq ishlash imkoniyatini beradi).

3) Applikation – kredit olish uchun ariza topshirgan mijozlar bilan ishlaydigan dolzarb skoring turi hisoblanadi.

4) Fraud – ishonchli bo‘lmagan mijozlarni aniqlash va ularning ko‘zbo‘yamachilik bilan shug‘ullanish darajasini izlab topishga imkon beradi.

Tijorat banklari mijozni kredit skoring usulida baholashlari uchun bir nechta ko‘rsatkichlardan foydalanishlari kerak.

Hozirda banklar kredit faoliyatiga joriy qilingan zamonaviy skoring modellarida 13-25 ta parametrlar: 13 ta – iste‘mol krediti uchun va 25 ta avtokreditlari yoki ipoteka kreditlari uchun ishlatiladi.

Umuman olganda, banklarning kredit skoring modeli quyidagi parametrlarga asoslanadi: shaxsiy ma‘lumotlar, moliyaviy va qo‘shimcha yordamchi ma‘lumotlar. Shaxsiy ma‘lumotlar: jinsi, yoshi, oilaviy holati, boqimandasi bor/yo‘q, ma‘lumoti. Moliyaviy: umumiy mehnat staji, oxirgi ish joyidagi ish staji, ish haqi darajasi va umumiy xarajatlari.

Qo‘shimcha ma‘lumotlari jumlasiga qo‘shimcha daromad manbaining mavjudligi, avtomobil va garajining mavjudligi, dala hovli, shaxsiy yer uchastkasining mavjudligi kabilar kiradi.

O‘zbekistonda ham yildan-yilga iqtisodiyotni kreditlash ortib bormoqda. Kreditlashning ko‘payib borishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda, aholini moddiy rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Biroq kreditlash hajmining bunday o‘shib borishi o‘z navbatida mazkur sohadagi moliya institutlari o‘rtasida raqobatni ham kuchaytiradi. Eng yaxshi mijoz uchun kurashda tahdid-tavakkalchiliklarni tez va munosib baholay oladigan, moliyalashtira biladigan va mablag‘ni vaqtida qaytara oladigan tashkilotlar yutib chiqadilar. Xalqaro amaliyotga qaraladigan bo‘lsa, mazkur vazifalarni hal etishning samarali vositasi kredit skoringdir.

Ehtimol tutilayotgan (potensial) qarz oluvchining kredit layoqatini baholashning bu tizimini moliya tashkilotlarimiz subyektiv skoring tarzida amaliyotda qo'llab kelmoqdalar. Chunonchi, qarz beruvchi kredit tashkilotiga kredit so'rab murojaat qilgan paytda kredit bo'limining xodimi taqdim etilgan hujjatlar asosida uning kredit layoqatini baholaydi hamda kredit berish yoki bermaslik haqida xulosa tayyorlaydi. Uchrashi ehtimoli bo'lgan subyektiv omillarni bartaraf etish uchun xulosa endi kredit qo'mitasida ko'rib chiqiladi. Lekin subyektiv skoringga xos xususiyatlar aholini va kichik biznesni chakana kreditlashda uni qo'llashni samarasiz qilib qo'yadi.

Chakana kreditlash uchun eng samaralisi statistika skoringidir. Bunday skoring qarz oluvchining kreditni qaytarish imkoniyatlari va istagini baholashning avvalgi kreditlar to'g'risidagi axborotlarni matematika va statistika usullari yordamida kompyuterda ishlovdan o'tkazishga asoslangan tizimdir.

Statistika skoringini ishlab chiqish va undan foydalanish uchun moliya tashkilotiga 500 dan ortiq berilgan va qaytarilgan (uzilgan) kreditlar to'g'risidagi ma'lumotlar jamlamasi zarur. Uni tahlil etish tahdid-tavakkalchiliklar darajasiga ta'sir qiluvchi kredit operatsiyalarining mufassal tavsifini aniqlash imkonini beradi.

Statistika skoringi ikkinchi jahon urushi yillarida banklarda kredit sohasida professional mutaxassislar keskin kamayib ketganligi sababli yuzaga keldi. Banklar kredit layoqatini baholash borasida ko'pincha yetarlicha tajribasi bo'lmagan yangi xodimlarni ishga yollash va eski xodimlarni almashtirishga majbur bo'lgach, kredit bo'yicha qaror qabul qilish yuzasidan mutaxassis bo'lmagan kishilar uchun qoidalar ishlab chiqdilar va bu qoidalar skoring tizimlarining ibtidosi, timsoli bo'lib qoldi.

Statistika skoringi yechimining soddaroq qoidalari skoring xaritasi (baholash varag'i) hamda kredit tahdid-tavakkalchiliklarini baholash qoidalari majmuidan iboratdir. Ko'rib chiqilayotgan kredit operat-



siyasining barcha ko'rsatkichlari tahdid-tavakkalchilikning har bir identifikatsiya qilingan omili uchun ball oladi. Ballar summasi yakuniy kredit balni tashkil etadi. Bu ball alohida shkala bo'yicha baholanayotgan operatsiyadagi kredit tahdid-tavakkalchiligi qanchalik katta ekanligi ehtimolini ko'rsatib beradi.

Skoringni qo'llash banklar uchun kelajakdagi kredit operatsiyalarini oldingi berilgan kreditlarda kuzatilgan kredit risklarini mavjud bo'lish yoki bo'lmasligini aniqlab berishga imkon yaratadi.

Qarz oluvchining ayrim tavsiflariga xos kredit tahdid-tavakkalchiligi darajasidan kelib chiqib, muayyan qarz oluvchining quyida misol tariqasida keltirilayotgan skoring ballik ko'rinishidagi umumiy kredit tahdid-tavakkalchiligi aniqlanadi.

5.2.-jadval ma'lumotlariga asoslangan holda aytish mumkinki, kredit olish uchun berilgan ariza-buyurtma 62 balldan iborat yakuniy skoring natijasiga ega bo'ldi.

Ilgari skoring bali 62 bo'lgan 10 ta kreditdan 9 tasi o'z vaqtida, to'la-to'kis uzilgan, bittasi esa muammoli kredit bo'lib qolgan. Demak, ko'rib chiqilgan kredit ariza-buyurtmasi 10 foizli tahdid-tavakkalchiligi bo'lgan muammoli kredit bo'lishi mumkin. Bordi-yu, bank bo'limi ayni shunday skoring baliga ega bo'lgan 100 ta kredit berish haqida qaror qabul qiladigan bo'lsa, ularning 90 tasi vaqtida, to'liq qaytariladi, 10 tasi esa, muammoli bo'lishi mumkin. Bank yoki mikrokredit tashkiloti ana shunday ehtimollikni bilgach, kredit tahdid-tavakkalchiligining o'zi uchun maqbul darajasini belgilab olishi mumkin.

Statistika skoringini qo'llash ehtimol tutilgan (potensial) qarz oluvchining kredit layoqatini tez, ishonchli tarzda baholash imkonini beradi.

Jumladan, «Russkiy standart» bankida skoring tizimini joriy etish iste'mol kreditlari berish muddatini qisqartirdi, bu ishni 2 hafta o'rniga 15 daqiqada amalga oshirish imkonini berdi. Bu esa bank chakana kreditlash borasida Rossiya bozorida tezgina yetakchi mavqeni egalashiga olib keldi.

**O'zbekiston tijorat banklarida qo'llanilishi kutilayotgan  
kredit skoring xaritasi namunasi<sup>42</sup>**

<i>Indikator</i>	<i>Qarz oluvchi ko'rsatkichi</i>	<i>Ball</i>
Arizachining uy-joy mulki maqomi	Uy mulkdori	+18
Arizachining yoshi	40 yosh va undan katta	+6
Arizachining oilaviy ahvoli va oilasi tarkibi	Uylanmagan/turmushga chiqmagan	-5
	Uylangan, bolalari bor	+11
	Uylangan, bolalari yo'q	+8
Faoliyat turi	Hunarmand	+12
Biznes sohasida necha yildan beri shug'ullanadi	2 yildan kamroq	-8
Yillik daromad (faoliyatdan jami va ish haqi)	30 mln so'm va undan ko'proq	+15
Qarzdorlikning joriy darajasi (shu jumladan, mo'ljallanayotgan kredit)	2-10 mln so'm	+14
Muassasada olingan avvalgi kreditlar	2 marta va undan ortiq	+25
Avvalgi kredit vaqtida o'tkazib yuborilgan eng ko'p muddat	30 kundan ortiq	-45
Mo'ljallanayotgan kredit valyutasi	So'm	+5
So'ralayotgan (talab qilinayotgan) kredit summasi	10 mln so'mdan kamroq	+6
Jami		+62

Skoring bank tashkilotlariga ko'plab miqdordagi chakana kreditlarni qamrab olish imkonini beradigan, nisbatan qimmat bo'lmagan vositadir. Ma'lumki, chakana kreditlarda har bir qarz bo'yicha daromadlar moliya tashkilotining qarz oluvchining kredit layoqatini an'anaviy usul bilan tahlil etishdagi xarajatlarini qoplay olmaydi.

<sup>42</sup> Mazkur namunadagi barcha ma'lumotlar va ballar misol tariqasida keltirilmoqda. Real baho ko'p miqdordagi kuzatuvlar tahlili natijasida aniqlangan tegishli omil salmog'iga qarab belgilanadi.

Oqibat natijada chakana kreditlar bo'yicha foiz stavkalari, odatda, uzoq muddatli investitsiya kreditlari bo'yicha stavkalardan anchagina oshib ketadi.

Statistika skoringini qo'llash moliya tashkilotlari kredit bo'limlarining xodimlari professional malakasi darajasiga bog'liqligini kamaytiradi. Skoringga asoslangan kreditlash alohida ko'nikma talab etmaydi, kredit berish to'g'risidagi qaror matematik modul yordamida qabul qilinadi, mutaxassislarning subyektiv fikri esa, faqat alohida hollardagina inobatga olinadi. Statistika skoringini qo'llash kredit berishni soddalashtiradi, kreditlashni maqbullashtirish va uni kamroq miqdordagi xodimlar bilan yanada xolislik asosida amalga oshirish imkonini beradi. Skoring asosida kreditlash jarayonini avtomatlashtirish amalda inson omilini istisno etishga zamin yaratadi, daromadlilikni oshirish maqsadidagi moliyalashtirish operatsiyalari bilan bog'liq tahdid-tavakkalchiliklarni kamaytiradi, ishni tashkil etishning ochiq-oshkoraligini ta'minlaydi. Bunday baholash tashkilotni va uning xodimlarini kreditlar berish va ularning vaqtida qaytarilishi uchun javobgarlikka tortish tahdidi va tavakkalchiliklarini kamaytirishi ham bag'oyat muhimdir.

Bugungi kunda O'zbekistondagi tijorat banklari skoring tizimlari chakana kreditlashni rivojlantirishning zarur va kerakli vositasi ekanligini tushuna boshladilar. Banklarga xizmat ko'rsatishning amaldagi tizimi kredit so'ralgan ariza-buyurtmalarni ishlovdan o'tkazish uchun ancha vaqt talab qiladi. Ssuda so'rovchisining kredit layoqatini baholashni "qo'lbola" amaliyoti va kredit buyurtmalarini banklarning kredit qo'mitalari tomonidan ma'qullash tajribasi o'z ichiga chakana kreditlashni ham oladigan moliyaviy mahsulotlar ko'payib borishi bilan o'z vazifasini uddalay olmay qolyapti.

Ba'zi banklar iste'mol kreditlari berishda skoring-kalkulyator deb yuritiladigan usulni ham qo'llamoqdalar. Veb-saytda skoring-jadvalni to'ldirib, qarz olishning dastlabki bahosi va ehtimolini bilish, boshqacha

qilib aytganda, iste'mol krediti berish yuzasidan skoring-tahlildan o'tish mumkin.

Ammo ana shunday hollarda ham gap subyektiv skoring haqida boradi, binobarin kredit berish har bir kreditga doir buyurtma-ariza kredit xodimi tomonidan va bankning kredit qo'mitasi tomonidan individual tarzda tahlil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Shu sababli ham, statistika skoringiga o'tish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Bunday skoringni moliya tashkilotlarigina emas, balki kredit byurolari ham o'tkazishlari mumkin. Hamma-hammasi ularning ma'lumotlar bazasiga, vakolat doirasiga va bozordagi strategiyaga bog'liq.

Kredit byurolarining skoring tizimlari banklar, mikromoliya tashkilotlari va lizing kompaniyalari uchun eng «xaridorgir», talab katta bo'lgan mahsulotlardan biridir. Chunki bu ma'lumotlar asosida banklar ham va boshqa nobank tashkilotlari ham o'z bo'lajak qarz oluvchilari to'g'risida to'liqroq axborotlarga ega bo'ladilar.

Xalqaro tajriba shundan shohidlik beradiki, O'zbekistonda statistika skoringini joriy etish va kreditlash jarayonini avtomatlashtirish moliyalashtirishning daromadlilikini va hajmini oshirish, ayni bir vaqtda operatsiyalar bilan bog'liq xarajatlarni anchagina qisqartirish, muammosi bo'lgan qarzdorlar sonini kamaytirish va kredit portfeli sifatini yaxshilash imkonini beradi.

### **5.3. Xalqaro amaliyotda skoringning qo'llanishi**

Moliya va tijorat munosabatlari rivojlangan Yevropa davlatlarining bank qonunchiligi Yevropa Hamjamiyati tashkil etilganidan buyon Hamjamiyat tomonidan qabul qilinadigan normativ hujjatlar asosida tartibga solinib kelinmoqda.

Xorijiy davlatlarning yirik banklarida yozma ravishda kredit siyosati to'g'risida memorandum ishlab chiqiladi va barcha bank xodimlari o'z faoliyatini shu memorandum asosida olib borishlari zarur. Memorandumning tarkibi har bir bankning faoliyatini hisobga olgan holda har xil

bo'lsada, u bank faoliyatining asosiy yo'nalishlarini qay tariqada olib borishni o'z ichiga oladi. Memorandumda olib boriladigan siyosatning asosan, ya'ni ko'proq ishonchli va foyda keltiruvchi kreditlar berish, kreditlar berishda mavjud kredit resurslarni hisobga olish, kredit berishning oxirgi chegarasini belgilab berish va boshqalar ko'rsatiladi. Memorandumda kredit siyosatining umumiy maqsadi aniq aks ettiriladi.

Memorandumda kreditlash shakllaridan foydalanish tartibi, kredit siyosatining ustuvor yo'nalishlari, kreditlarga foiz hisoblash, ularni undirish va balansdan o'chirish masalalari aniq aks ettiriladi.

Hujjatda qaysi kreditlarni berish bank uchun foydali va qaysi kreditlarni berishdan bank saqlanishi lozimligi, bank xodimlariga kreditlar berish, kreditlarning sifatini nazorat qilish shakllari va boshqalar ko'rsatiladi.

Buning uchun quyidagilar aniqlanadi:

- bank uchun ma'qul bo'lgan kreditlar turlari;
- qanday kreditlar berish bank uchun risklik;
- sifatli kreditlarning tarkibi;
- muammoli kreditlarning tarkibi;
- bankning kreditlash bilan bog'liq faoliyati doirasi;
- bankning o'z xodimlariga kredit berish doirasidagi siyosati;
- qarzdorlikning har xil darajalariga ko'ra kreditlarning hajmini qisqartirish;
- kredit riskini boshqarish, tekshiruv va nazorat doirasidagi bankning siyosati.

O'z navbatida AQSH bank amaliyotiga nazar solsak, ushbu davlatda tijorat banklari o'z hisobidan savdo va sanoat kompaniyalarining aksiyalarini sotib olish huquqiga ega emas. Biroq, shunday bo'lsa-da, aksariyat banklar o'z mijozlarining ishonchnomalari orqali bunday kompaniyalarning boshqaruvida ishtirok etadi.

AQSH tijorat banklari faoliyatining o'ziga xos jihati shundaki, ularning aksariyat operatsiyalarni amalga oshirishda niqoblangan ko'rinishda ishtirok etishi hisoblanadi. Bu yirik banklarning korrespondentlik operatsiyalari orqali mayda banklarning resurslaridan foydalanishida

namoyon bo'ladi. AQSH markaziy shaharlarining yirik banklari markazdan uzoqda joylashgan mayda banklar bilan korrespondentlik munosabatlariga kirishish orqali ularning resurslari bir qismini qo'lga kiritadi. Bunday operatsiyalar banklararo depozit asosida ham amalga oshiriladi.

So'nggi yillarda AQSHda davlatning banklar faoliyatiga aralashuvi kuchayganligini kuzatish mumkin. Bu bir tomondan banklar faoliyatidagi xatoliklar tufayli jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ro'y berganligi bilan bog'liq. O'z navbatida federal yerlar banklari, mahsulot kredit korporatsiyasi va eksport-import banki davlat mulki hisoblanadi. Yirik bir Amerika banklarining memorandum sxemasi 5 bo'limni, ya'ni umumiy qoidalar, kreditlar kategoriyasi, kredit siyosatining har xil masalalari, kredit portfeli sifati ustidan nazorat hamda bank qo'mitalarini o'z ichiga oladi. Kredit siyosati to'g'risidagi memorandumda bankning kredit ekspansiyasini amalga oshirish lozim bo'lgan geografik hududlar aniq aks ettiriladi.

2-ildavda xorijiy mamlakatlarda, jumladan, AQSH Siti banki kredit siyosati memorandum aks ettirilgan. Unda, umumiy qoidalar, ssudalarning alohida turlari, kredit siyosatining turli masalalari, ssudalarning sifati ustidan nazorat, qo'mitalardan tashkil etilganligini ko'rish mumkin.

### 5.3-jadval

#### Dunyoning bir qator yetakchi tijorat banklarining aktivlar tarkibi<sup>43</sup>

(foizda)

Aktivlar	Doychebank (Germaniya)	Kredi Lionz (Fransiya)	Banesto (Ispaniya)	Vozrojenie (Rossiya)
Pul mablag'lari	3.90	3.09	12.94	6.0
Kreditlar	78.65	66.06	25.28	47.0
Qimmatli qog'ozlar	15.50	16.17	23.87	9.0
Boshqa aktivlar	1.95	13.87	37.91	38.0
Jami	100.0	100.0	100.0	100.0

<sup>43</sup> www.deltacredit.ru

Bu deyarli hamma banklar uchun dolzarb hisoblanib kelmoqda. Chunki hozirda barcha rivojlangan xorijiy davlatlarda kreditlash bilan bog'lik operatsiyalar bank aktiv operatsiyalarining asosiy turi bo'lib qolmoqda. Hozirgi vaqtda kreditlar bank aktivlarining asosiy qismini egallaydi.

5.3.-jadvalda dunyoning bir qator yetakchi tijorat banklarining aktivlar tarkibi keltirilgan. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda xorijiy banklar amaliyotida jismoniy shaxslarga beriladigan ssuda operatsiyalari hajmi o'sib bormoqda. Masalan, Fransiya va Germaniyada bunday ssudalar miqdori korxonalar va tashkilotlar oladigan ssudalar miqdori bilan tenglashdi, AQSHda esa bunday ssudalar miqdoriga ko'ra birinchi o'ringa chiqdi.

Tijorat banklarining jismoniy shaxslar bilan amalga oshiradigan operatsiyalarini shartli ravishda ikki yirik guruhga bo'lish mumkin: iste'mol krediti va uy-joy krediti.

Iste'mol krediti aholining tovarlarni sotib olish talabini rag'batlantiradi. Ayniqsa, o'rtacha daromad ko'radigan shaxslar iste'mol kreditidan keng foydalanadilar.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda individual mijozlarga beriladigan ssudalar ichida ahamiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinni ipoteka ssudalari egallaydi. Ular asosan uy-joy qurish, ularni ta'mirlash yoki sotib olish maqsadlariga beriladi. Bunday kreditlar uchun garov sifatida uy, yer uchastkasi olinishi mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida uy-joy kreditining muddati 7 yildan 20 yilgacha, ayrim hollarda 30 yilgacha belgilanadi. Bunday kreditlar yuqori foiz riskiga ega, chunki bu muddat mobaynida jalb qilingan resurslarning bahosi oshishi mumkin. Shuning uchun tijorat banklari uy-joy kreditini berishda suzib yuruvchi foiz stavkalaridan foydalanadilar.

Jahon amaliyotida bank kreditlarini yagona, umumlashgan tasnifi yo'q, chunki kreditlarni turli xil shakllari har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, uning urf-odatlariga, aholi orasida ssudalarni berish va qaytarish tarixan shakllangan usullariga bog'liq bo'ladi.

Shunday bo'lsa ham eng ko'p uchraydigan bank kredit operatsiyalarini turli xil mezonlar va o'lchovlaridan kelib chiqqan holda, guruhlashtirish mumkin.

5.4.-jadval

**Qaytarish muddati bo'yicha kreditlarni tasniflash<sup>44</sup>**

Davlatlar Muddati	Rossiya	AQSH	Buyuk Britaniya	Fransiya
Qisqa	1 yilgacha	1 yilgacha	3 yilgacha	2 yilgacha
O'rta	1-3 yil	1-6 yil	3-10 yil	2-7 yil
Uzoq	3 yildan ortiq	6 yildan ortiq	10 yildan ortiq	7 yildan ortiq

4-jadvalda xorijiy mamlakatlarda qaytarish muddati bo'yicha kreditlarni tasniflash ishlari faol olib borilishi ko'rsatilgan. Unga ko'ra aytish mumkinki, kreditlarni qaytarish muddati bo'yicha 3 turga, qisqa, o'rta va uzoq muddatga bo'linadi. Bunda kreditlarning qaytarish muddatlari 1 yilgacha, 1-3 yilgacha va 3 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatlarni o'z ichiga oladi. Kreditlarning muddati mamlakatning iqtisodiy barqarorlik darajasi va inflyatsiya darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Aksariyat mamlakatlarda, jumladan, g'arbiy Yevropaning ko'p-gina mamlakatlarida kreditlar muddatiga ko'ra uch turga: qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlarga bo'linadi. Bunda qisqa muddatli kreditlar jumlasiga bir yil muddatgacha beriladigan kreditlar, o'rta muddatli kreditlarga bir yildan besh yilgacha va uzoq muddatli kreditlarga besh yildan ortiq muddatga beriladigan kreditlar kiritiladi.

Jahon bank amaliyotida kredit mutaxassisi kredit talabnomasini tahlil qilishda kredit skoringi tizimidan foydalanadi. Mazkur tizim

<sup>44</sup> Internet ma'lumotlari asosida tayyorlandi



kredit talabnomasining har bir bandiga alohida baho berishga asoslangan. Hozirgi vaqtda jahon bank amaliyotida kredit talabnomasini baholashda ball tizimining quyidagi shkalalari qo'llanilmoqda.

5.5-jadvalda mijozni kredit olish layoqatini ballar asosida baholash tizimi keltirilgan bo'lib, ular qaysi ballarga qanday kredit va qancha miqdorda berilishi mumkinligini subyektiv va obyektiv baholashga imkon yaratilishidan darak beradi.

Biroq ball tizimining bunday shakli qo'llanganda, bank o'z mijozlarini yo'qotishi mumkin. Chunki mijozlar o'zlarining kredit talabnomalarini bank noto'g'ri baholagan, degan xulosaga kelib, mazkur bank xizmatidan foydalanishidan bosh tortishi mumkin. Bundan tashqari, talabnomaning qonunga xilof ravishda baholanishi natijasida, mijoz bank ustidan sudga ariza berishi mumkin. Bunday sharoitda bank o'zi qo'ygan har bir ball bahoni dalillar bilan isbotlab berishiga to'g'ri keladi. Ballik baho qo'yishda bank yumshoq baho siyosatidan foydalanmasa, o'zi juda mushkul ahvolda qolishi mumkin.

#### 5.5.-jadval

#### Kredit talabnomasini baholash jadvali<sup>45</sup>

Ball	Kredit berish yoki bermaslik to'g'risida qaror
28 gacha	- Kredit berish rad etilsin
29 - 30	- 500 \$gacha kredit berish mumkin
31 - 33	- 1000 \$gacha kredit berish mumkin
34 - 36	- 2500 \$gacha kredit berish mumkin
37 - 38	- 3500 \$gacha kredit berish mumkin
39 - 40	- 5000 \$gacha kredit berish mumkin
41 - 43	- 8000 \$gacha kredit berish mumkin

Kreditning differensial yondashuv tamoyili ham mohiyatini aks ettiruvchi jihatlardan hisoblanadi. Kredit munosabatlarida bank barcha mijozlarga bir xilda yondashmaydi. Masalan, ishonchli mijozlarga kredit uchun ta'minot talab qilmasdan kredit ajratishi mumkin yoki

<sup>45</sup> Abdullayev Y. va boshqalar. Bank ishi. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya". 2010.532 b.

ishonchsizroq mijozlardan kredit qiymatidan ancha yuqori qiymatga ega bo'lgan ta'minot talab qilishi mumkin. Kredit to'lovi sifatida foiz o'rnatish jarayonida ham bank mijozlarga turlicha yondashishi mumkin.

Har qanday bankning ko'rsatadigan xizmatlari nuqtayi nazaridan uning kredit portfelini tartibga solib turish o'ta muhimdir. Zero, kreditning ba'zi bir turlarini berish qonun bilan chegaralangan, ba'zi bir kredit turlari esa umuman taqiqlangan.

Shuningdek, banklar faoliyatining tartibga solinishi borasida Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi va amaliyoti diqqatga sazovor. Ushbu davlatda banklar faoliyati Rossiya Federatsiyasining 1990-yil 2-dekabrda «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Mazkur qonun bilan milliy qonunchiligimizning bank operatsiyalarini tartibga soluvchi normalari o'rtasidagi farqlarni qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Rossiya Federatsiyasining yuqorida keltirilgan qonuni 1-moddasida «bank» atamasiga «bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan kredit tashkiloti» deb ta'rif berilgan hamda qonunning keyingi matnlarida bankni ifodalash uchun kredit tashkiloti atamasi qo'llanilgan.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining yuqorida keltirilgan qonuni 20-moddasi 1-qismi 5-bandida bank tomonidan litsenziyada nazarda tutilmagan bank operatsiyalarining amalga oshirilishi, shu jumladan, bir marta amalga oshirilganida Rossiya Banki kredit tashkilotining bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyasini chaqirib olishi mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi qonuni 29-moddasi 2-qismida «Kredit tashkiloti kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini va ularni belgilash tartibini, omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini bir tomonlama o'zgartirishga haqli emas»ligi belgilangan bo'lib, mazkur masalada O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni 28-moddasi 1-qismida bank operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari va

vositachilik haqi miqdori banklar tomonidan mustaqil belgilanishi nazarda tutilgan bo'lib, bank tomonidan kredit va omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini bir tomonlama o'zgartirish huquqiga ega emasligi belgilanmagan.

Mazkur holatlar asosida milliy qonunchiligimizni takomillash-tirish banklarning o'z faoliyatida turli suiiste'molliklarga yo'l qo'yi-shining oldini olishga xizmat qiladi.

#### **5.4. O'zbekiston bank tizimida skoring amaliyoti**

Mamlakatimizda moliya-kredit infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Mazkur infratuzilmaning muhim bo'g'in-laridan biri kredit tarixi (o'tmishi) nuqsonsiz qarz oluvchiga anchagina qulay shartlarda bankda yoki mikromoliya tashkilotida kredit olish imkoniyatini beradigan kredit byurosidir. Kredit byurosi bank-moliya tashkilotlariga ko'plab turdagi xizmatlarni taqdim etadi, shu jumladan, skoring o'tkazilishida ko'makdosh bo'ladi.

Biroq olib borilgan tadqiqot natijasida mamlakatimiz bank tizimi-da kredit skoringni joriy etish ayrim muammolar mavjuddir. Bu muam-molar quyidagilardan iborat:

➤ Hozirgi kunda kredit skoringi taxminiy ravishda joriy etil-moqda. Respublika tijorat banklarida mijozlarni kreditga qobilligini aniqlashda ballarni matematik usulda sanab chiqish bilan shug'ullana-yotgan banklarning soni juda kam.

➤ Kredit skoring kartalari bank-kredit tahlilchilarining ekspert bilimlariga tayanib qolingan. Bu esa banklarning mijoz bazasini kama-yishiga va sifat darajasining pasayishiga sabab bo'ladi.

➤ Mamlakatdagi kredit institutlarining risk departamentlarida tez qaror qabul qilish imkoniyatining yo'qligi, tekshiruvlarning qiyinligi va uzoq davom etishi bilan xarakterlanadi.

Eng asosiysi, bunday usullardan foydalanilganda quyidagi savol-larga javob olish imkoniyatining juda pastligi:

➤ nima sababdan bizda kredit portfeli sifati yomonlashib bormoqda?

➤ mijozni yanada aniqroq baholash uchun nima qilish zarur?

➤ bizning tajribamiz asosida baholash hisob-kitoblarida nimalarni o'zgartirish kerak?

➤ kredit skoring usuliga, ya'ni iste'mol kreditining bozor ishtirokchilarining hali to'liq bilim saviyasining o'sib yetmaganligi ta'sir ko'rsatadi;

➤ skoring tizimlarida asosan oldingi qarz oluvchilarning olgan kreditlari bo'yicha kredit olish qobiliyati baholanadi, skoring modellari kelgusidagi mijozlarning xulq-atvori va ularning kelgusidagi o'zlarini tutishlari faqat bashoratlanadi;

➤ dastur real insonni emas, balki uning o'zi to'g'risidagi axborotni baholaydi. Bunda yaxshi tayyorlangan mijoz yolg'on ma'lumotlar asosida kredit olish huquqini qo'lga kiritishi mumkin;

➤ skoring modellari doimiy ravishda qayta ishlashni va yangilanishni talab etadi, chunki kredit berishning ijtimoiy-iqtisodiy holatlari doimo vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Ammo shunga qaramay chakana mijozlarni kreditlash uchun eng samaralisi statistika skoringidir. Bunday skoring qarz oluvchining kreditni qaytarish imkoniyatlari va istagini baholashning avvalgi kreditlar to'g'risidagi axbrotlarni matematika va statistika usullari yordamida kompyuterda ishlovdan o'tkazishga asoslangan tizimidir. Statistika skoringini ishlab chiqish va undan foydalanish uchun moliya tashkilotiga 500 dan ortiq berilgan va qaytarilgan (uzilgan) kreditlar to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanmasi zarur. Uni tahlil etish tahdid-tavakkalchiliklar darajasiga ta'sir qiluvchi kredit operatsiyalarining mufassal tavsifini aniqlash imkonini beradi.

Biz yuqorida ko'rib o'tgan statistika skoringi yechimining soddaroq qoidalari kredit skoring xaritasi (baholash varag'i) hamda kredit tahdid-tavakkalchiliklarini baholash qoidalari majmuidan iborat bo'lib qolmoqda. Chunki bu yerda bank tomonidan ko'rib chiqilayotgan kredit

operatsiyasining barcha ko'rsatkichlari tahdid-tavakkalchilikning har bir identifikatsiya qilingan omili uchun ball oladi. Ballar summasi yakuniy kredit ballni tashkil etadi. Bu ball alohida shkala bo'yicha baholanayotgan operatsiyadagi kredit tahdid-tavakkalchiligi qanchalik katta ekanligi ehtimolini ko'rsatib beradi.

Kredit skoringni qo'llash tijorat banklari tomonidan paydo bo'ladigan kredit risklarini pasaytiribgina qolmay, balki banklarning kredit operatsiyalarini to'liqroq avtomatlashtirishga, bank xodimlarini mijozlar tarixi va kredit olishga qobilligini kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda aniqlash imkoniyatini oshiradi. Bu zamonaviy bank xizmatlari va ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Kredit skoringi bank bo'limiga ko'plab miqdordagi chakana kreditlarni qamrab olish imkonini beradigan, nisbatan qimmat bo'lmagan vositadir. Ma'lumki, chakana kreditlarda har bir qarz bo'yicha daromadlar moliya tashkilotining qarz oluvchining kredit layoqatini an'anaviy usul bilan tahlil etishdagi xarajatlarini qoplay olmaydi. Oqibat natijada chakana kreditlar bo'yicha foiz stavkalari, odatda, uzoq muddatli investitsiya kreditlari bo'yicha stavkalardan anchagina oshib ketadi.

Statistika skoringini qo'llash bank-moliya tashkilotlari kredit bo'limlarining xodimlari professional malakasi darajasiga bog'liqligini kamaytiradi. Skoringga asoslangan kreditlash alohida ko'nikma talab etmaydi, kredit berish to'g'risidagi qaror matematik modul yordamida qabul qilinadi, mutaxassislarining subyektiv fikri esa, faqat alohida hollardagina inobatga olinadi. Statistika skoringini qo'llash kredit berishni soddalashtiradi, kreditlashni maqbullashtirish va uni kamroq miqdordagi xodimlar bilan yanada xolislik asosida amalga oshirish imkonini beradi. Skoring asosida kreditlash jarayonini avtomatlashtirish amalda inson omilini istisno etishga zamin yaratadi, daromadlilikni oshirish maqsadidagi moliyalashtirish operatsiyalari bilan bog'liq tahdid-tavakkalchiliklarni kamaytiradi, ishni tashkil etishning ochiq-

oshkoraligini ta'minlaydi. Bunday baholash tashkilotni va uning xodimlarini kreditlar berish va ularning vaqtida qaytarilishi uchun javobgarlikka tortish tahdidi va tavakkalchiliklarini kamaytirishi ham bag'oyat muhimdir.

Bugungi kunda O'zbekistondagi tijorat banklari skoring tizimlari chakana kreditlashni rivojlantirishning zarur va kerakli vositasi ekanligini tushuna boshladilar. Banklarga xizmat ko'rsatishning amaldagi tizimi kredit so'ralgan ariza-buyurtmalarni ishlovdan o'tkazish uchun ancha vaqt talab qiladi. Ssuda so'rovchisining kredit layoqatini baholashni «qo'lbola» amaliyoti va kredit buyurtmalarini banklarning kredit qo'mitalari tomonidan ma'qullash tajribasi o'z ichiga chakana kreditlashni ham oladigan moliyaviy mahsulotlar ko'payib borishi bilan o'z vazifasini uddalay olmay qolyapti. Ammo ana shunday hollarda ham gap subyektiv skoring haqida boradi, binobarin kredit berish har bir kreditga doir buyurtma-ariza kredit xodimi tomonidan va bankning kredit qo'mitasi tomonidan individual tarzda tahlil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Biroq barcha muammolarni hisobga olgan holda shuni ishonch bilan aytish mumkinki, bank kredit amaliyotiga kredit skoringini joriy etishning ijobiy tomonlari mavjuddir. Ularni qisqacha qilib quyidagilardan iborat deb bilamiz:

▶ Yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lganda statistik skoring banklar uchun yaxshi hisoblanadi. Chunki ular real kredit portfeli kuzatuvlariga asoslanadi.

▶ Bunday holatda optimal instrument sifatida collection-skoring tizimi eng maqbul hisoblanadi.

▶ Bunda yuqorida ochib berilgan ushbu tizimi imkoniyatlari kengaytirilishi zarur. Birinchidan, tizimni integratsiyasida – tizim bir bankning ma'lumotlari asosida emas, balki kompaniya ishlaydigan bir nechta banklar ma'lumoti bilan ishlashi kerak. Ikkinchidan, hard-collection tizimida qarzdor bilan yuridik ishlarni avtomatlashtirish mexanizmi orqali ish olib borilishi zarurdir.

▶ Kelajakda sollection-skoringning bir nechta yo‘nalishlarini rivojlantirish mumkin:

▶ Matematik va statistik apparatni yangilanishi hisobiga tizim samaradorligini oshirish (axloqiy model, Markov zanjiri va boshqalar);

▶ Qarzdorga nisbatan ta’sir etishning yangi vositalarini joriy etish – axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish, interaktiv vositalar orqali ta’sir ko‘rsatish (instant messaging, IP-telefoniya va boshqalar.);

▶ Qonunlar o‘zgarishi orqali tizimning funksional imkoniyatlarining kengayishi.

▶ Aholining kredit bozoriga ko‘plab kirib kelishi portfellar sifatini yaxshilash, xizmat ko‘rsatish vaqtini qisqartirish, yolg‘onchilikni kamaytirish kabi samarali ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini izlab topishni talab etmoqda.

▶ Oxirgi iste‘molchi skoring tizimini tushunib yetishi kerak. Bu model unga eng optimal va samarali iste‘mol kreditlash tizimi bilib qolishi zarur. Skoringni ishlab chiqqan kompaniya, uni ishlatgan kredit tashkiloti, aholi barchasi skoringdagi qarorlar, uning samarali ko‘rsatgichlari va funksional sifatleri har bir individual holatda tatbiq etishga loyiq ekanligi bilan ajralib turish zarur.

▶ Skoring modeli bundan tashqari, yana dolzarb sanalgan quyidagi muammolarni hal etishga imkon yaratadi:

▶ Axborot oqimlarining ko‘payishi;

▶ Qaror qabul qilish vaqtini kamaytirish zarurligi;

▶ Har bir mijozga individual yondoshuv talabi;

▶ Qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish;

▶ Mehnat xarajatlarini pasaytirish;

▶ O‘zgarayotgan bozor sharoitlariga tez ko‘nikish (moslashish);

▶ Kredit skoringi-samarali ishlash instrumenti sifatida skoring tizimi kredit mutaxassislariga qo‘shimcha va yordamchi ma‘lumotlarni maksimal tarzda berib turadi.

Shu sababli ham, statistika skoringiga o‘tish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Bunday skoringni bank-moliya tashkilotlarigina emas, balki

kredit byurolari ham o'tkazishlari mumkin. Hamma-hammasi ularning ma'lumotlar bazasiga, vakolat doirasiga va bozordagi strategiyaga bog'liq. Kredit byurolarining skoring tizimlari banklar, mikrobank-moliya tashkilotlari va lizing kompaniyalari uchun eng «xaridor»ga, talab katta bo'lgan mahsulotlardan biridir.

Shuning uchun fikrimizcha kredit skoring modellarini mamlakatimiz kredit tizimida joriy etishda quyidagi tavsiyalarni keltirishimiz maqadga muvofiqdir:

1) Kredit skoringi yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lganda yaxshi hisoblanadi. Chunki ular real kredit portfeli kuzatuvlariga asoslanadi.

2) Bunday holatda optimal instrument sifatida collection-skoring tizimi eng maqbul hisoblanadi. Ya'ni muddati o'tgan qarzlilar bilan ishlash skoringi – kreditni to'lamaganlar uchun qachon qanday choralar qo'llash zarurligi aniqlashga imkoniyatlarni ochib beradi. Bunda yuqorida ochib berilgan ushbu tizim imkoniyatlari kengaytirilishi zarur. Birinchidan, tizimning integratsiyalashuv jarayoni natijasida ushbu tizim faqat bir bankning ma'lumotlari asosida emas, balki kompaniya ishlaydigan bir nechta banklar ma'lumoti bilan ishlashi kerak. Ikkinchidan, kelajakda solleksion-skoringning bir nechta yo'nalishlarini rivojlantirish mumkin.

3) Matematik va statistik apparatni yangilanishi hisobiga tizim samaradorligini oshirish hisobiga qarzdorga nisbatan ta'sir etishning yangi vositalarini joriy etish – axborot texnologiyalaridan kengroq foydalanish, interaktiv vositalar orqali ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish mexanizmlari vujudga keladi.

4) Tashqi va ichki axborot oqimlarini ko'paytirish hamda har bir mijozga individual yondoshuvni shakllantirish zarur.

Umuman olganda, mamlakatimiz bank tizimining ham o'zgarayotgan bozor sharoitlariga tez moslashish bu davr talabidir. Bu esa o'z navbatida ularning kredit munosabatlarini avtomatlashtirish vazifalarini birlamchi maqsad sifatida ko'rib chiqishlarini zarur qilib qo'yimoqda.



Xulosa qilib aytganda, yuqorida ko‘rib o‘tilgan skoring modellari, ulardan kredit skoringlarini joriy etish orqali kredit tizimida iste‘mol va ipoteka kreditlarini berish, ularni samarali, kam xarajatsiz boshqarish imkoniyatlari oshadi. Shu bilan birga ushbu skoring modellarini yurtimizdagi ko‘p minglik kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga joriy etilish yo‘llarini izlab topilishiga hamda xar turli sohaga taalluqli mijozlarning moliyaviy hujjatlarini tahlil qilish bo‘yicha alohida skoring usullarini ishlab chiqishga yordam beradi deb o‘ylaymiz.

### **Nazorat savollari:**

1. Mijozni kredit olish qobiliyati tushunchasiga ta‘rif bering.
2. Kredit skoringi va uning mohiyati nimadan iborat?
3. Kredit skoringining vazifalarini sanab bering.
4. Banklarda kredit skoringi amaliyoti to‘g‘risida gapirib bering
5. Xalqaro amaliyotda skoringni qo‘llanish darajasi qanday?
6. O‘zbekiston bank tizimida skoring amaliyoti muammolari nimalardan iborat?

## VI BOB. MASOFAVIY BANK XIZMATLARI

### Reja:

6.1 Masofaviy bank xizmatlarining nazariy va konseptual asoslari

6.2 Masofaviy bank xizmatlari turlari va ularning xususiyatlari

6.3 O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlari amaliyoti tahlili

6.4 O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini takomillash-tirish yo'llari

**Tayanch iboralar:** Masofaviy bank xizmatlari, SMS banking, Internet banking, to'lov tizimi, kliring to'lovlari, telefon-banking.

### 6.1. Masofaviy bank xizmatlarining nazariy va konseptual asoslari

Ma'lumki, zamonaviy iqtisodiyot postindustrial bo'lib, uni ko'pincha yangi, innovatsion, bilimlar iqtisodiyoti, vakolatlar, tarmoqlarning o'zaro ta'siri deb ataladi va bu tasodifiy emas. Bugun dunyoda amalga oshirilayotgan raqamlashtirishdan orqada qolishning iloji yo'q. O'zbekiston ham bu jarayonni birinchi bo'lib boshlagani yo'q, biroq u zamonaviy voqe'larga tez moslashib, sur'atini oshirmoqda, jumladan, raqamli iqtisodiyot sohasida ham.

Dunyoda 319 ga yaqin raqamli banklar mavjud va ular tomonidan foydalaniladigan pullarning 90 foizi elektron hisoblanadi. Naqd pul oqimlari va bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi, chunki u uzoq vaqtdan beri global rivojlanish vektoriga aylangan. Shuning uchun, buni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi va unga iste'molchilar ham, umuman, iqtisodiyot ham tezda moslashishi kerak.

Bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bank faoliyatiga, boshqaruv qarorlarini qabul qilishga, mijozlar bilan ishlashni tashkil etishga, shuningdek, moliya bozorini o'zlashtirishda foydalanish mumkin bo'lgan innovatsion vositalar majmuasiga mutlaqo yangi talablarni qo'yadi. Boshqa tarmoqlarda qo'llaniladigan marketing usullari har doim ham bank sektoriga taalluqli emas.

Ko'p narsa iste'molchilar afzal ko'rgan narsadan tashqari, tashqi sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan "xaridor manfaati"ga bog'liq, xususan, iqtisodiyotning holati, banklar va ularning egalari haqidagi jamoatchilik fikri, kutilayotgan inflyatsiya darajasi va boshqalar.

Mamlakatimizda elektron to'lovlar va elektron tijoratni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 24-sentyabrdagi "Plastik kartochkalar bo'yicha to'lov tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-sonli qaroriga muvofiq Birlashgan Respublika protsessing markazi tashkil etildi. Markazda UZKART plastik kartalari orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun banklararo to'lov tizimi yaratilib, WebMoney Transfer elektron to'lov tizimi ishga tushirildi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, "Statistika, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat va litsenziyalash tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farnonida hamda 2012-yil 18-iyuldagi "Ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida iqtisodiyotda, ayniqsa, bank, moliya va tijorat tuzilmalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan keng foydalanilayotgani ta'kidlangan edi.

Mazkur qonun hujjatlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish uchun tadbirkorlikni rag'batlantirish maqsadida plastik kartochkalar va boshqa elektron to'lov

vositalaridan foydalangan holda Internet tarmog'i orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini rivojlantirish bo'yicha dasturiy-texnik infratuzilmani takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi.

2017-yil dekabr oyi oxirida Markaziy bank 2018-yilda iste'molchilarni masofaviy identifikatsiyalashni joriy qilishini boshlashi haqida xabar bergan edi, bu esa barcha bank operatsiyalarini mobil ilova yoki veb-sayt orqali (ofislarga bormasdan) amalga oshirish imkonini beradi va shu orqali banklarni IT-kompaniyalarga aylantiradi.

O'zbekiston rasman raqamli bankingni rivojlantirishga kirishdi. 2018-yil yanvar oyida qonunchilikda "raqamli bank" atamasi birinchi marta paydo bo'ldi va masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi.

Bu shuni anglatadiki, barcha bank operatsiyalari masofadan turib amalga oshiriladi. Oddiy qilib aytganda, agar mijozga hisob varaq ochish, kredit olish yoki uni qaytarish kerak bo'lsa, unda hech qayerga borish shart emas – bularning barchasini uyda, mobil ilova yoki veb-sayt orqali amalga oshirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi "Bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-son qarori mamlatimizda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qarorda ilg'or xalqaro bank tajribasini o'rganish, bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasining "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi va "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunlari ijrosi yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bank va moliya institutlari o'z mijozlariga elektron to'lovlar, internet-banking, mobil internet-banking, mobil aloqa kabi onlayn-banking xizmatlarini taqdim etmoqda.

Ayni paytda mamlakatimiz tijorat banklari o'z mijozlariga eng so'nggi va yuqori texnologiyali axborotga asoslangan onlayn-banking xizmatlarini taqdim eta boshladi.

Masofaviy bank xizmatlari – bu turli bank operatsiyalarini masofadan turib amalga oshirish imkonini beruvchi xizmatlar majmuidir. Bankka bormasdan kompyuter yoki mobil telefondan foydalanish kifoya.

Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan imkon qadar qulay foydalanish imkonini beradi va bank bilan ishlashda vaqt va moliyaviy xarajatlarni minimallashtiradi.

Masofaviy xizmat ko'rsatish tizimi mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlarga qarab ikki xil bo'lishi mumkin:

- axborot;
- tranzaksiya.

Axborot banki mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga qaratilgan bo'lsa, tranzaksiya banki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi.

Masofaviy bank xizmatining asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida turli xil ma'lumotlarning masofaviy almashinuvidir. Shu bilan birga, bank ushbu operatsiyaning xavfsizligini ta'minlaydi.

## **6.2. Masofaviy bank xizmatlari turlari va ularning xususiyatlari**

Bank-mijoz – mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatilgan tizim. Ushbu dastur mijozning barcha ma'lumotlarini (asosan, hisob-kitob hujjatlari va hisob ko'chirmalari) kompyuterda saqlaydi. Modem orqali bank va mijoz kompyuteri o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatiladi.

Internet-banking – bu mijozlarga Internet orqali o'z depozit hisobvaraqlarini, shu jumladan, bank kartalari hisob varaqlarini boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Ushbu xizmat turi mijoz bankka masofadan ulanganda real vaqt rejimida to'lovlarni amalga oshirishga

mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi veb-brauzer orqali tizimga kiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi o'zining barcha ma'lumotlarini (to'lov hujjatlari va hisobvaraqdan ko'chirmalar) bank veb-saytida ko'rish imkoniyatiga ega.

Internet-banking orqali mijoz istalgan vaqtda ish joyida yoki Internetga kirish imkoni bo'lgan boshqa joyda:

- to'lovlarni amalga oshirish;
- to'lov jarayoniga rioya qilish;
- zarur hisobotlarni, shu jumladan, hisob raqamiga mablag'larni

olish huquqini oladi.

Internet-banking texnologiyasidan foydalangan holda mobil banking tizimi ham qurilmoqda.

Ushbu xizmatga quyidagilar kiradi:

- SMS xabarnoma;
- elektron pochta xabarnomasi;
- shaxsiy IVR-kabinet;
- shaxsiy veb-kabinet.

SMS-banking – mijoz tomonidan ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga SMS-xabar jo'natish orqali bank mijozlarini o'zlarining depozit hisobvaraqlari, shu jumladan, karta hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalari to'g'risida ushbu hisobvaraqlar holati to'g'risida xabardor qilish. SMS-banking xizmati mijozga quyidagilar haqida tezkor ma'lumot olish imkonini beradi:

- ❖ hisob raqamiga pul mablag'larini qabul qilish;
- ❖ hisobvaraqdan mablag'larni yechib olish;
- ❖ hisob balansi;
- ❖ kun davomida amalga oshirilgan bank operatsiyalari.

24 soatlik xabar berish tizimi mijozning kartasidagi pul mablag'laridan ruxsatsiz foydalanish xavfini kamaytirish va ulardan foydalanishni nazorat qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda aholi real vaqt rejimida kartadan kartaga o'tkazmalari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish (R2R), byudjet va kommunal to'lovlarni amalga oshirish, mikro kreditlar olish va ularni to'lash, onlayn omonatlarni amalga oshirish, omonat va kredit hisobvarag'ini ochishda, masofadan turib, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalari va boshqa xizmatlar borasida tijorat banklarining mobil ilovalaridan keng foydalanmoqda.

O'z navbatida, korxonalar va tashkilotlarga real vaqt rejimida o'z bank hisobvaraqlaridagi mablag'larni boshqarish va to'lovlarni amalga oshirish, xizmat ko'rsatuvchi bankka valyuta mablag'larini sotib olish (konvertatsiya qilish) uchun elektron ariza yuborish, elektron shaklda taqdim etish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish va boshqa xizmatlardan foydalanish uchun bankka ko'chirma yuborish imkoniyatlari yaratildi.

Tijorat banklarida IVR shaxsiy hisobi yoki interaktiv ovozli javob (IOJ) xizmati ham mavjud.

Ushbu intellektual platforma mobil yoki statsionar telefon orqali bankning xizmat raqamiga qo'ng'iroq qilib, shaxsiy IVR-kabineti orqali onlayn tarzda bank mahsulotlari va xizmatlari, shuningdek, mijozlarning depozit hisobvaraqlari haqida ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

IVR xizmatidan foydalanuvchi axborot xizmatlari haqidagi xabarlarini mustaqil ravishda faollashtirishi yoki bekor qilishi, shuningdek, o'zining bank/karta hisobvarag'i holatini kuzatishi va so'nggi tranzaksiyalar to'g'risida ma'lumot so'rab SMS-xabar ko'rinishida javob olishi mumkin.

Har bir mijozning shaxsiy IVR akkauntiga kirishi PIN-kod bilan himoyalangan.

Cheksiz E-Mail-xabarnoma – bu karta hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risida bank mijozlarining elektron pochta orqali avtomatik ravishda bildirishnoma jo'natish xizmati.

Shaxsiy elektron pochta manziliga real vaqtda avtomatik ravishda quyidagi xabarlarini olish imkonini beradi:

- nazorat varaqasi (yoki plastik karta hisobvarag'i) bo'yicha daromad-xarajat operatsiyasini amalga oshirishda;
- har kunning oxirida yoki boshida hisob balansiga;
- kredit operatsiyalari bo'yicha hisoblangan foizlar;
- savdo terminalining inkassosi va undirilgan summasi haqida;
- omonat bo'yicha foizlarning navbatdagi hisobi to'g'risida.

Elektron pochta xabarnomalari tizimining afzalliklari:

Bank xodimlarining ish vaqtidan qat'iy nazar real vaqt rejimida E-Mail ko'rinishida ma'lumotlarni olish imkoniyati;

— xizmatdan Internetga ulangan kompyuterdan ham, GPRS/WAP xizmatiga ulangan mobil telefondan ham foydalanish;

— xavfsiz kanal orqali pochta serveri va mijoz o'rtasida maxfiy ma'lumotlar almashinuvi.

SMS va E-Mail-xabarnomalar xizmatlari korxonalar va tashkilotlar rahbarlari, xususiy tadbirkorlar, shuningdek, korporativ karta egalari uchun qiziqish uyg'otmoqda.

Shaxsiy veb-ofis – mijozning yashash joyidan qat'iy nazar, kun yoki tunning istalgan vaqtida onlayn rejimda karta hisobi holatini kuzatish imkonini beradi.

Shaxsiy Internet akkaunti mijozning karta hisob varaqlari va debet kartalaridan foydalanishini nazorat qilishning ishonchli vositasidir. Unga kirish foydalanuvchi nomi va parol bilan himoyalangan.

Shaxsiy veb-akkauntga kirishda mijoz quyidagi imkoniyatlarga ega:

- hisobvaraqlari va kartalari haqida umumiy ma'lumot – hisobvaraqlar va kartalar ro'yxati, kartalar turi (nomi), foydalanish mumkin bo'lgan hisob yoki kartadagi mablag'lar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar;
- o'zi tanlagan kalendar oyi uchun karta yoki hisob qaydnomasi bo'yicha ko'chirma yaratish;



- karta yoki hisob qaydnoma bo'yicha mini-ko'chirma olish (karta yoki hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan oxirgi 10 ta tranzaksiya haqida);
- Hisobidagi kiruvchi / chiquvchi operatsiyalar uchun hisobdagi o'zgarishlar to'g'risida SMS / E-mail xabarnomalarini sozlash (ulash / o'chirish).

WAP-bankingning quyidagi afzalliklari mijozlar uchun maksimal qulaylikni ta'minlovchi WAP-banking modeli platformada mobil banking tizimlarini rivojlantirish uchun istiqbolli ekanligini isbotlaydi:

1. Oddiylik – mijoz tizimni masofadan turib, faqatgina mobil telefon brauzerida WAP-sayt manzilini ko'rsatgan holda ishga tushirishi mumkin.

2. Elementar sozlamalar – elementar telefon sozlamalari talab qilinadi. Umuman olganda, mavjud uyali aloqa operatorlari rivojlanishi bilan qo'shimcha xizmatlarni joriy etishni yo'lga qo'yish qiyin bo'lmaydi.

3. Interfeysning aniqligi – WAP-sayt har xil darajadagi aniqlikdagi logotip va piktogrammalarning istalgan soni bilan bezatilishi mumkin.

4. Funksionallik – funksional qamrov faqat bankka bog'liq.

5. Arzonlik – WAP profili orqali ishlashda GPRS trafik narxi minimal bo'ladi, bundan tashqari, mijozning tanlovi bor: agar amalda u bepul ishlashni xohlasa, u GPRS – Internet profilini o'rnatishi mumkin.

6. Ko'p qirrali – vep-saytlar turli xil mobil telefonlarda bir xil tarzda ko'rsatiladi.

### **6.3. O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlari amaliyoti tahlili**

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng miqyosda rivojlanishi va ularning keng joriy etilishi jahon taraqqiyotining katalizatori bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, sarmoyalarni keng jalb etish, yangi ish o'rinlari yaratish,

ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etish va samarali boshqaruv tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

UNCTADning 2019-yilgi raqamli iqtisodiyot bo'yicha hisobotiga ko'ra, 7 ta raqamli (Microsoft, Apple, Amazon, Google, Facebook, Alibaba i Tencent) kompaniyalarning jami global bozor capital-lashuvidagi ulushi 2/3 qismini tashkil qiladi. Global axborot kommunikatsiya texnologiyalar sektoridagi qo'shilgan qiymatning qariyb 40 foizi AQSH va Xitoyga to'g'ri keladi. Raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2019-yil yakuni bo'yicha 2,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich AQSHda 10,9 foizga, Xitoyda 10 foizni, Hindistonda 5,6 foizni, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoq umumiy yalpi ichki mahsulotidagi 3 foizni tashkil etdi.

#### 6.1.-jadval

#### Bank omonatchilarining Milliy axborot bazasida ro'yxatga olingan mijozlar soni va ularning hisob raqamlari to'g'risidagi ma'lumotlar<sup>46</sup> (1-yanvar holatiga)

Yil	Mijozlar soni	Hisob varaqlar soni
1997-yil	187415	206514
1998-yil	245481	291682
1999-yil	270434	291034
2000-yil	313204	301861
2005-yil	656137	2007607
2010-yil	1100541	3612506
2015-yil	1432849	5030704
2019-yil	1880634	7263621
2020-yil	2094262	7740964

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Milliy ma'lumotlar bazasida ro'yxatdan o'tgan mijozlar soni 01.01.2020 yil holatiga ko'payib, 2094262

<sup>46</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.


tani, hisobvaraqlar soni esa 7740964 taga yetdi. Ularning o'lishi keyingi yillarda mos ravishda 111,4 va 106,6 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1989-son Qaroriga muvofiq, "Xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning billing tizimlari bilan yanada integratsiyalashuvini hisobga olgan holda real vaqt rejimida chakana to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar uchun kliring tizimi" nomli Markaziy bankning loyihasi ishlab chiqilgan. Mazkur to'lov tizimi orqali to'lovlar hajmi muntazam ortib, ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lami kengaymoqda.


Bank omonatchilarining Milliy axborot bazasida ro'yxatga olingan mijozlar soni va ularning hisobvaraqlari to'g'risidagi barcha ma'lumotlar tijorat banklari va to'lov tizimining xo'jalik yurituvchi subyektlari uchun kafolatlardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, Markaziy bankning kliring hisob-kitob tizimi respublikada faoliyat yurituvchi chakana to'lov tizimlarining (Uzcard va Humo) bank kartalaridan foydalangan holda kliring operatsiyalari natijalari bo'yicha banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha hisob-kitob banki funksiyasini ham bajaradi. Markaziy bankning kliring tizimi orqali onlayn to'lovlarni amalga oshirishga qiziqish bildirgan tashkilot va idoralar soni muttasil ortib bormoqda. Bugungi kunda u orqali 30 dan ortiq xizmat turlari uchun to'lovlar amalga oshirilmoqda.

Eslatib o'tamiz, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublika bo'yicha bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimidan foydalanuvchilarning umumiy soni 14 571,1 ming nafarni, shundan bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimidan foydalanuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 822,5 nafarni tashkil etdi. 2020-yil 1-yanvar holatiga bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimidan foydalanuvchilarning umumiy soni mos ravishda 143,5 foizga, yuridik va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 119,0 foizga, jismoniy shaxslar soni esa 144,9 foizga o'sdi. (6.1.-rasmga qarang).



**6.1.-rasm. O‘zbekiston Respublikasida mijoz turlari bo‘yicha masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni, ming nafar (1-yanvar holatiga) <sup>47</sup>**




**6.2.-rasm. O‘zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari soni, mingta (1-yanvar holatiga). <sup>48</sup>**

6.2.-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yil 1-yanvar holatiga muomalada 25776 ming dona bank plastik kartochkalari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yil davomida plastik kartochkalarining umumiy soni 5229 mingtaga yetgan.

<sup>47</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking yillik hisoboti.

<sup>48</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking yillik hisoboti.

O‘zbekistonda bugungi kunda ommaviy o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish axborot-ma’lumot terminallarining keng tarmog‘i mavjud bo‘lib, bu plastik kartochka egalariga kecha-yu kunduz xizmat ko‘rsatish imkonini beradi, terminallar, bankomatlar va o‘z-o‘zini ta’mirlash xizmati, qolaversa, barcha hududlarda xizmat ko‘rsatish shoxobchalari tashkil etilgan.




**6.3.-rasm. O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatilgan to‘lov terminallari soni. (1-yanvar holatiga ko‘ra).<sup>49</sup>**

6.2-6.3 – rasm ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish terminallari soni yildan-yilga ortib borayotganini ko‘rish mumkin.

Agar 2020-yil yanvar oyida o‘rnatilgan terminallar soni 392361 tani, bankomatlar va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish infokiosklari soni 9203 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yil 1-yanvar holatiga o‘rnatilganlar soni 438 410 tani, ya’ni, o‘shish 11,7 foizni, o‘rnatilgan bankomatlar va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish infokiosklari soni esa 11,8 mingtani tashkil etib, 28,2 foizga o‘sdi.

<sup>49</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking yillik hisoboti.



**6.4.-rasm. O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatilgan bankomatlar va kiosklar soni.**

Bugungi kunga qadar respublikada xalqaro talablarga javob beradigan va uchta tizimdan iborat – banklararo, bank ichidagi va chakana to‘lov tizimlaridan iborat samarali to‘lov tizimi yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabr-dagi “Milliy to‘lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3945-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan axborotlashtirish markazi ishga tushirildi. Milliy banklararo protsessing markazining muvaffaqiyatli ishga tushirilishi mamlakatimizda chakana to‘lov tizimlarining ko‘payishi hamda bank kartalari asosida to‘lov xizmatlarini ko‘rsatuvchi chakana to‘lov tizimlari o‘rtasida raqobat muhitini yaratish, to‘lov xizmatlaridan foydalanuvchilar uchun komissiya to‘lovlarini kamaytirish hamda ilg‘or texnologiyalardan foydalangan holda masofaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmini oshirish maqsadida tashkil etilgan.

#### **6.4. O‘zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish yo‘llari**

“Raqamli” bankingning ayrim funksiyalari allaqachon respublikaning ayrim tijorat banklari tomonidan qo‘llanilmoqda, biroq O‘zbekistonda haligacha ochiq bank xizmatidan foydalanish amaliyoti, ya’ni to‘liq “raqamli” bank mavjud emas, shuning uchun APning joriy etilishi mijozlarga real vaqt rejimida ma’lumotlarni olish, bank yechimlarini qabul qilish uchun ko‘proq moslashtirilgan resurslarga kirishni ochib berishga imkoniyat yaratadi. Buning asosiy sababi, valyutani liberalashtirish jarayoning boshlanishi bilan banklar o‘rtasida paydo bo‘lgan yaqin vaqtgacha raqobatning mavjud emasligidir. Eskirgan bank qoidalari ham raqamli banklarning rivojlanishiga to‘sqinlik qildi. Hukumat aynan shu va boshqa omillarni “raqamli” banklarga yo‘naltirish orqali hal qilmoqchi. Shunday qilib, tez orada mamlakatda butunlay “raqamli” jismoniy ofissiz, lekin eng qulay masofaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi banklar paydo bo‘lishi mumkin.

Bir necha oy o‘tgach, onlayn depozitlar foydalanuvchilar uchun ochiq bo‘ldi (ular birinchi bo‘lib “Hamkorkbank”da joriy etildi), keyin esa mobil ilova orqali valyutani konvertatsiya qilish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Endi ilovalarning funksionalligi ancha kengroq: mijozlar masofadan turib nafaqat omonat ochish va valyutani almashtirish, balki kredit olish uchun ariza berishi, kartaga buyurtma berishi, kartaga pul o‘tkazishi, pul o‘tkazmasini qabul qilishi, hisobvaraqaqlarini boshqarishi, tovarlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishi va boshqa xizmatlardan foydalanishi mumkin.

Biroq, sohaning to‘liq raqamli transformatsiyasi hali amalga oshirilmagan. Bozor ekspertlarining ta’kidlashicha, sohani raqamlashtirish darajasi hali ham past. Banklar hali ham yo‘lning boshida va hali ham raqamli deb tan olinishdan yiroq.

Mamlakatning deyarli barcha banklari mobil ilovalarni, hatto ikkitasini (jismoniy va yuridik shaxslar uchun) sotib olgan bo'lsa-da, ularning aksariyati "yuqoridan" farmonning rasmiy ijrosi hisoblanadi.

"Raqamli" bank oddiy texnologiya emas, balki odamlar o'rtasidagi munosabatlar paradigmasini o'zgartirishidir va buni texnologiya yordamida qilish eng qulayidir.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yangi bank mahsulot va xizmatlarining joriy etilishi mamlakatimizda bank bozorining kengayishiga sharoit yaratmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti rivojlanib borayotgani sari tijorat banklari ham o'z faoliyatini diversifikatsiya qilib, chakana savdo operatsiyalari va mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini ko'paytirmoqda.

Hozirda AT-mutaxassislari elektron to'lovlar va elektron tijoratni amalga oshirishni avtomatlashtirish uchun turli texnologik yechimlarni taklif qilmoqda. "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazining bank tizimi faoliyatiga oid xulosalari mamlakatimiz bank tizimida zamonaviy interaktiv xizmatlarning ahamiyatini ko'rsatib turibdi.

Shunday qilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yangi segmentini ifodalovchi ma'lumotlar uzatish tarmog'ining jadal rivojlanishi, eng tezkor axborot manbai bo'lmish Internet tarmog'ining jadal kirib borishi axborot almashinuvi uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Elektron biznes, elektron tijorat, elektron hujjat almashinuvi, elektron hukumat bunga yorqin misoldir.

Bugungi kunda mahsulot innovatsiyasini yoki tashkiliy-iqtisodiy innovatsiyani tadqiqot ishlari bosqichisiz va birinchi navbatda bozorni o'rganishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Aynan marketing tadqiqotlari natijalari bankning tashkiliy-iqtisodiy rivojlanish sohasidagi strategik qarorlari asosida yotadi.

O'zbekistonda raqamli banklar faoliyati uchun sharoitlar yaratilmoqda. Bu O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida ham ko'zda tutilgan.



Demak, endilikda innovatsion bank texnologiyalari orqali masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri bo‘ladi. Keng ma’nodagi marketing tadqiqotlari bank faoliyatiga ta’sir etuvchi barcha omillarni (mahsulot ishlab chiqish bilan bog‘liq ichki omillar va bozorga yaxshi moslashish uchun sharoit yaratish bilan bog‘liq tashqi omillar) o‘rganishga xizmat qiladi.

Banklar marketing tadqiqotlaridan olingan moliyaviy bozor ma’lumotlaridan ijodiy foydalansalar, o‘zlari uchun sezilarli raqobat ustunliklarini yaratishlari mumkin. Biroq, marketing tadqiqotining o‘zi innovatsiyalarni boshqarishda muvaffaqiyatni kafolatlay olmaydi.

Bozor tadqiqotida innovatsion jarayonlar dinamikasiga qarab turli usullardan foydalanish mumkin. Muayyan hududiy bozorga chiqish yoki mutlaqo yangi xizmatni ishga tushirish va mahalliy moliya bozoriga kiradigan yangi bank xizmatlarini sotish hajmini bashorat qilish uchun, ularni amalga oshirish uchun, masalan, o‘tmishdagi xizmatlarga o‘xshash xizmatlarga bo‘lgan talab dinamikasini bilishning o‘zi kifoya qilmaydi. Chunki, har bir alohida olingan pozitsiyaga turli omillar ta’sir qilishi mumkin.

To‘lov tizimini rivojlantirish, shu jumladan, real vaqt rejimida hisobvaraqlarni boshqarish va bank operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatishda banklarning axborot tizimlarining o‘zaro hamkorligini tashkil etish Markaziy bank faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi.

Bundan tashqari, bank tizimida ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish samaradorligini oshirish uchun bank risklarini baholashning zamonaviy tizimi joriy etiladi va innovatsion texnologiyalardan keng foydalaniladi.

Shuningdek, 2019-yilning dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlarida qog‘oz muomalasini taqiqlash to‘g‘risida”gi qarori imzolangan bo‘lib, unda 2021-yil 1-yanvardan

boshlab vazirliklar, idoralar va ijro etuvchi hokimiyat organlari blankalar va hujjatlarni, jadvallarni qog'oz shaklida to'ldirishdan butunlay voz kechishini va elektron formatga o'tishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Prezidenti 2020-yil 28-aprelda "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Shunday qilib, 2023-yilga kelib O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi raqamli iqtisodiyotning ulushini ikki baravar, elektron davlat xizmatlari ulushini esa 2022-yilga borib 60 foizga yetkazish rejalashtirilgan (hozirgi kunda EPIGU orqali 178 ta davlat xizmatlari ko'rsatilmogda). Shuningdek, 2023-yilgacha ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 barobarga oshirish va ularning eksportini 100 million dollarga yetkazgan holda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, Prezidentning 2020-yil 5-oktabrdagi qarori bilan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlandi. Unda raqamlashtirishni rivojlantirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlari mintaqaviy sharoitlari bo'yicha yanada batafsil yoritilgan.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 17-martdagi "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan yana bir muhim hujjatdir. Unda poytaxtda ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, umumiy ovqatlanish, chakana va ulgurji savdo sohalariga ilg'or AKTni joriy etishni nazarda tutuvchi "Raqamli Toshkent" kompleks dasturi belgilab berilgan. Darvoqe, mazkur dastur yana bir loyiha – 2023-yilgacha barcha hududlarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan "Xavfsiz shahar" loyihasi bilan chambarchas bog'liq.

Shu boisdan O'zbekiston Markaziy banki foydalanuvchilarni masofaviy identifikatsiyalashni joriy etish bo'yicha ishlarni boshlashni rejalashtirmogda.

Ushbu mexanizmning ishga tushirilishi bank xizmatlarini soddalashtiradi va operatsiyalar ustidan nazoratning zarur darajasini ta'min-

laydi. Yagona masofaviy identifikatsiya mexanizmi tizimidan foydalanilgan holda, mijoz turli moliyaviy xizmatlarga murojaat qilganda moliyaviy institutlarga ma'lumotlarni qayta taqdim etishi shart emas.

Shunday qilib, yangi innovatsion mahsulotlar va xizmatlar bozori-ning konsentratsiya darajasi bank infratuzilmasining ishlashini va yangi savdo tarmog'ini yaratishni ta'minlaydigan sotish darajasini kafolatlashi kerak.

Savdo tarmog'ining rivojlanishi, agar u xaridorlar o'rtasida bankning iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'sishiga yordam beradigan asosiy bozorlarni shakllantirishni kafolatlasa, istiqbolli hisoblanadi. Agar yangi mahsulotlar bozorlarini shakllantirish, shuningdek, asosiy bozorlarni shakllantirish uchun shart-sharoitlar ta'minlangan bo'lsa, bank mahsulot liniyasining tuzilishi istiqbolli hisoblanadi.

Mamlakatimizda innovatsion texnologiyalardan foydalanuvchilar, shuningdek, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish (mijoz banki, internet banking, mobil banking, sms banking) foydalanuvchilar sonining ortib borayotganligi to'lovlar uzluksizligini ta'minlash, yangi innovatsion mahsulotlardan foydalanish, bank xizmatlari ommabopligini oshirish uchun turli to'lov tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish, to'lov tizimlari uchun yagona axborot muhitini shakllantirish, ularning nazorati va monitoringini davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganidan dalolat beradi.

Qayd etish joizki, savdo tashkilotlaridagi treyderlar parallel ravishda mahalliy va xalqaro kartalarga xizmat ko'rsatadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Masofaviy bank xizmatlarining nazariy asoslari deganda nima tushunasiz?
2. Masofaviy bank xizmatlarini konseptual asoslarini aytib bering.
3. Masofaviy bank xizmatlari va ularning xususiyatlariga ta'rif bering.

4. O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini joriy qilish me'royiy-huquqiy asoslarini tavsiflab bering.

5. O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini joriy qilish mexanizmini aytib bering.

6. O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlari turlarini joriy qilish bosqichlari qanday?

7. O'zbekistonda internet banking-xizmatlari kelajagini tavsiflang.

8. O'zbekistonda kliring bank xizmatlari tizimi nimalarda o'z aksini topgan.

9. Masofaviy bank xizmatlari va mijoz munosabatlariga fikr bildiring.

## VII BOB. KAPITAL VA INVESTITSIYA

### Reja:

**7.1 Investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyati va uning nazariy asoslari**

**7.2 Investitsiya loyihasi tahlilining mohiyati va iqtisodiy ahamiyati**

**7.3 Investitsiyalarning diversifikatsiyalanishi va tasniflanishi**

**Tayanch iboralar:** investitsiya, kapital, investitsiya loyihasi, manba, real investitsiyalar, investitsion siyosat, moliyaviy investitsiyalar

### **7.1. Investitsiyalarning iqtisodiy ahamiyati va uning nazariy asoslari**

Mamlakatimiz Iqtisodiyotini transformatsiyalash jarayonida investitsiya faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya'ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga bog'liq. Har qanday jamiyatning baraqaror iqtisodiy rivojlanishini investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda bu narsa yaqqol namoyon bo'lmoqdaki, har qanday mamlakatning bundan keyingi yuksalishini investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

“Investitsiya” atamasi lotin tilidagi “*invest*” so'zidan kelib chiqqan bo'lib “qo'yish”, “mablag'ni safarbar etish”, “kapital qo'yilmasi” ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda “investitsiya” tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ularni

tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur.


Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir. Investitsiyalarning iqtisodiyotdagi o'rni beqiyosligi uning aniq mohiyatini o'rganib chiqishni talab qiladi. Iqtisodiy lug'atda "Investitsiyalar – kapitalni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida sanoatga, qishloq xo'jaligiga va boshqa tarmoqlarga sarf qilinadigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi", – deb tariflangan.

Ishlab chiqarish nazariyasi va, umuman, maqroiqtisodiyotda investitsiyalar yangi kapitalni (ishlab chiqarish vositalarini hamda inson kapitalini qo'shib hisoblaganda) yaratish jarayonidir. Moliya nazariyasida esa investitsiya deganda real yoki moliyaviy aktivlarni olish tushuniladi, ya'ni bugungi sarf-xarajatlarning maqsadi kelajakda daromad olishdir. Demak, bizningcha, "Investitsiyalar – bo'sh turgan kapitalni iqtisodiy-ijtimoiy samara olish maqsadida harakatga keltirishdir". Bizga ma'lumki, iqtisodiy o'sish investitsiya resurslarisiz bo'lishi mumkin emas, bu resurslar o'z mohiyati bilan ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan mablag'dir. Pul mablag'lari shaklidagi investitsiyalar nominal investitsiyalardir. Bu investitsiyalar moddiy-lashib, amalda ishlab chiqarishga jalb etilgandan so'ng real investitsiyalarga aylanadi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati tog'risida"gi qonuniga ko'ra investitsiyalar mo'ljallangan obyekti bo'yicha tabaqalashtirilgan. Shunga muvofiq investitsiyalar quyidagi turlarga ajratilgan. (7.1.-rasm)

"Investitsiyalar va investitsiya faoliyati tog'risida"gi qonuniga asosan:

**investitsiya loyihasi** – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui;



7.1.- rasm. Investitsiyalarning obyektlari bo'yicha turlari<sup>50</sup>

**investitsiya majburiyati** – belgilangan maqsadlarga erishish uchun investor tomonidan qabul qilinadigan majburiyat;

**investitsiya siyosati** – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investitsiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta'minlashga, investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo'naltirilgan investitsiyaviy faolligini oshirishga doir o'zaro bog'liq tadbirlar majmui;

**investitsiya faoliyati** – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui;

**investitsiya faoliyatining ishtirokchisi** – investitsiyalarning amalga oshirilishini buyurtmalarni bajaruvchi sifatida yoki investorning topshirig'i asosida ta'minlaydigan investitsiya faoliyati subyekti;

**investitsiya shartnomasi** – investitsiya faoliyati subyektlari o'rtasida tuziladigan, investitsiya shartnomasi taraflarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydigan yozma bitim;

**investitsiyalar** – investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar

<sup>50</sup> <https://lex.uz/docs/-4664142> O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 2019 yil 25 dekabr. O'RQ-598-son

hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek, reinvestitsiyalar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

– mablag'larni, shu jumladan, pul mablag'larini (shu jumladan, chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni;

– ko'char va ko'chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);

– intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan, u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjatlar, ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni;

**investor** – foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o'zining mablag'larini va (yoki) qarz mablag'larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti;

**mahalliy investorlar** – investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi rezidenti maqomiga ega bo'lgan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

**reinvestitsiyalar** – investitsiyalardan olingan, tadbirkorlik faoliyati va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan, foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va vositachilik haqlari, texnik yordam, texnik xizmatlar uchun to'lovlar va haqlarning boshqa turlari;

**to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari** – chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari;



**chet el investitsiyalari** – chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek, reinvestitsiyalar;

**chet ellik investorlar** – chet davlatlar, chet davlatlarning ma‘muriy yoki hududiy organlari, davlatlar o‘rtasidagi bitimlarga yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tuzilgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyekti bo‘lgan xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatadigan yuridik shaxslar, har qanday boshqa shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar, chet davlat fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;


**O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – aksiyalarining (ulushlarining, paylarining) yoki ustav fondining (ustav kapitalining) kamida o‘n besh foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar.

Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikning asosiy prinsiplari investitsiya qilish va investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llaniladi.

Investitsiyalar mo‘ljallangan obyektiga ko‘ra kapital, moliyaviy va ijtimoiy turlarga bo‘linadi.

Asosiy fondlarni yaratish va takror ko‘paytirishga, shu jumladan, yangi qurilishga, modernizatsiya qilishga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kapital investitsiyalar jumlasiga kiradi.

Aksiyalar, korporativ, infratuzilmaviy va davlat obligatsiyalariga, shuningdek, qimmatli qog‘ozlarning boshqa turlariga kiritiladigan investitsiyalar moliyaviy investitsiyalar jumlasiga kiradi.



**7.2.-rasm. Investitsiyalar va investitsiya faoliyatining asosiy tamoyillari**<sup>51</sup>

Inson salohiyatini, ko‘nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini rivojlantirishga, shuningdek, nomoddiy boyliklarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga kiradi.

Investitsiyalarni amalga oshirish shakllari quyidagilardan iborat:

- yuridik shaxslarni tashkil etish yoki ularning ustav fondlarida (ustav kapitallarida) ulushli tarzda, shu jumladan, mol-mulk va aksiyalar (ulushlar) sotib olish yo‘li bilan ishtirok etish;
- O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlarni, jumladan, qarz majburiyatlarini olish;

<sup>51</sup> <https://lex.uz/docs/4664142> O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. 2019-yil 25-dekabr. O‘RQ-598-son

- konsessiyalarni olish, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, o'zlashtirish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga doir konsessiyalarni olish, shuningdek, mahsulot taqsimotiga oid bitimlarda ishtirok etish;

- mulk huquqini, shu jumladan, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mulk huquqini, mualliflik huquqlarini, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xau, ishchanlik obro'sini (gudvillni), shuningdek, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlariga bo'lgan mulk huquqini ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda olish;

- yer uchastkalariga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan, ijara asosida egalik qilish va foydalanish) hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini olish.

Investorlar qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa shakllarda ham investitsiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Investitsiya faoliyati investitsiyalar kiritishning turli shakllarini birlashtirish vositasida amalga oshirilishi mumkin.

Investitsiyalarning birlamchi yoki takroran kiritiladigan shakllari o'zgartirilishi ularning investitsiya sifatidagi darajasi o'zgarishiga olib kelmaydi.

Investitsiya resurslari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- pul mablag'lari (shu jumladan, chet el valyutasi) va boshqa moliyaviy mablag'lar, shu jumladan, kreditlar, paylar, ulushlar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar;

- ko'char va ko'chmas mol-mulk (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklar) hamda ularga bo'lgan huquqlar;

- intellektual mulk obyektlari, shu jumladan, u yoki bu turdagi ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjatlar, ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlar;

• yer uchastkalariga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish hamda ulardan foydalanish huquqi, shuningdek, mulk huquqlaridan kelib chiquvchi boshqa ashyoviy huquqlar.

Ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarining obyektlari investitsiya faoliyati obyektlaridir.

Barpo etilishi va foydalanilishi qonunchilikda belgilangan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlik talablariga va boshqa talablarga javob bermaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini, erkinliklarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan obyektlarga investitsiya qilish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, yakka tartibdagi tadbirkorlari va yuridik shaxslari – rezidentlari, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, chet davlatlar, chet davlatlarning ma'muriy yoki hududiy organlari, xalqaro tashkilotlar hamda chet ellik yuridik shaxslar va fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar investitsiya faoliyatining subyektlaridir.

Hammaning e'tibori uchun rasmiy ravishda e'lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kirmagan hujjatlar sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi va investitsiyaviy munosabatlarni tartibga solish, ushbu hujjatlardagi ko'rsatmalarni bajarmaganlik uchun investitsiya faoliyati subyektlariga nisbatan biror-bir sanksiya qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari ommaviy axborot vositalari orqali, shu jumladan, o'z rasmiy veb-saytida investitsiya faoliyati sohasida o'zining ishtiroki va qabul qilingan qarorlar to'g'risidagi axborotni e'lon qilishi shart. Investitsiya resurslarini shakllantirish investitsiya jarayonini amalga oshirishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Aniq loyiha kapitalini investitsiyalash va moliyalashtirish turlari bu resurslarga zarur miqdorda shakllantirishni talab etadi. Umuman olganda, istiqbolda investitsion

loyihalarni amalga oshirish jarayonida qishloq xo'jaligi korxonalarining nafaqat kreditga layoqatliligini aniqlash, balki ularning loyiha tahlillari va samaradorligiga ham e'tiborini qaratish zarur.

## **7.2. Investitsiya loyihasi tahlilining mohiyati va iqtisodiy ahamiyati**

Loyiha tahlilida, asosan, investitsiya loyihasi o'rganiladi. Bizning iqtisodiy adabiyotlarimizda investitsiya so'zi yangi tushuncha sifatida kirib keldi. Shu tufayli uning mohiyati, talqini hamon yetarlicha yoritilmagan. Bu esa ko'p adabiyotlarda, ma'ruza va nutqlarda kapital sarmoya bilan sinonim tushunchalar sifatida qarab kelinmoqda.

Investitsiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda qaysi darajadagi investitsiya bo'lmasin, albatta, uzoqni ko'zlab ish tutadi, ya'ni undan olinadigan daromad bugun emas, balki kelgusida bo'lishini mo'ljallaydi. Shu tufayli investitsiyadan foyda olish yoki birorta natijaga erishish uchun uni oldindan chuqur o'rganish va tahlil qilishga to'g'ri keladi. Ana shu investitsiyadan foyda olishni ko'zlab qilingan tahlil "Loyiha tahlili" bo'lib hisoblanadi.

Demak, loyiha tahlilida bugungi qilingan xarajatlarning (investitsiyaning) kelgusi davrda keltiradigan foydasi (daromadi) o'rganiladi. Buni investitsiya loyihasi orqali aniqlash mumkin. Investitsiya loyihasi deganda foyda olish maqsadida qo'yilgan investitsiyadan foydalanish rejasining (strategiyasining) asosli ravishda ishlab chiqilishi tushuniladi.

Ana shu jarayon loyiha tahlilida atroflicha o'rganilishi, iqtisodiy jihatdan asoslanishi lozim. Umuman olganda, investitsiya loyihasi juda keng ma'noni anglatadi va quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- \* g'oyaning tug'ilishi;
- \* investitsiya qo'yiladigan obyektни aniqlash;
- \* shu obyektga qo'yilishining foydaliligini asoslash;
- \* kompleks tarzda ekspertiza o'tkazish;

\* investitsiyaga pul mablag'ini topish va qo'yish;

\* uning samaradorligini ta'minlash.

Shu jarayonlarning hammasi loyiha tahlilida o'rganilishi lozim. Chunki har qanday loyihani amalga oshirish uchun uning moddiy ta'minoti – pul mablag'i, moddiy va mehnat resurslari lozim. Ularning har biridan qancha kerakligini asoslash ham loyiha tahlilining muhim vazifalaridan biridir.

Shunday qilib, loyiha tahlili bozor munosabatlari shakllanayotgan jamiyat uchun shunchaki fan sifatida emas, balki obyektiv zarurligi bilan o'z o'rniga ega bo'ladi. Bu esa ushbu fanning boshqa fanlar o'rtasida turgan o'rniga, o'ziga xos predmeti, obyekt, metodi kabi nazariy asoslarini ishlab chiqarishni taqozo qiladi.

Loyiha tahlilining ahamiyati shundaki u orqali investitsiya loyihasi ishtirokchilari uni amalga oshirish jarayonida o'zlarining aniq harakatlarini, vazifalarini belgilab oladilar. Shundan kelib chiqqan holda oldin investitsiya loyihasining bajarilishida kimlar ishtirokchi bo'lishi mumkinligini diqqat bilan aniqlab olish lozim. Investitsiya loyihasining amalga oshirilishida, odatda, quyidagi shaxslar ishtirokchi bo'lishlari mumkin:

\* homiy (mulkdor, investor)lar;

\* tashkilotchilar;

\* pudratchilar (agar investitsiya qurilishga qo'yilgan bo'lsa);

\* sub pudratchilar;

\* qurilish materiallari, jihozlar va uskunalarni yetkazib beruvchilar;

\* sug'urta va moliya ishlari bo'yicha maslahatchilar;

\* marketing va reklama bo'yicha maslahatchilar;

\* qonunlar va soliqlar bo'yicha maslahatchilar;

\* kreditorlar va boshqa hamkorlar;

\* loyihaning bajarilishiga ma'lum menejerlar;

\* loyihaning bajarilganligini qabul qilib oluvchilar.

Shu ishtirokchilarning hammasi o'z vazifasini bajarishda ma'lum burchi va funksiyasiga ega. Ana shularning har biri aniq bo'lishi lozim. Buni esa loyiha tahlili ta'minlab beradi. Loyiha tahlilining ahamiyati bu

bilan cheklanib qolmaydi. Uning ko'lamini va mazmuni ancha keng. Loyiha tahlilining ahamiyatiga yana quyidagilarni kiritish mumkin.

- Qilinadigan ishni oldindan obdon o'rganish imkonini berishi.
- Sarf qilingan xarajatlarning qachon va qaysi hajmda qaytishini oldindan belgilab berishi.
- Xususiy tadbirkorlikka boshqa huquqiy va jismoniy shaxslarning, chet el firmalari va fuqarolarning investitsiyalarini jalb qilish imkonini berishi.
- Mulkdorning mulkini asrash, ko'paytirish yo'llarini ko'rsatishi.
- Ko'r-ko'rona ish boshlash va turli iqtisodiy hamda moliyaviy inqirozlarning oldi olinishi.
- Tadbirkorlarning faoliyatini oldindan aniq belgilab berishi va uning muvaffaqiyati uchun ishonch hissini uyg'otishi.
- Investitsiyaning maqsadga muvofiqligini ta'minlashi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida boqimandalikka barham berish va tashabbuskorlikni uyg'otish imkonini berishi.
- Mulkdorning mas'uliyatini, tadbirkorning javobgarligini oshirishi.


Loyiha tahlili – xarajatlar va daromadlar hamda loyiha bilan bog'liq bo'lgan qaltislikni (tavakkalchilikni) tizimli baholash va ochib berish asosida loyihalarni tayyorlash, baholash va tanlab olish usulidir. Loyiha tahlilining katta qismi loyiha davrining dastlabki bosqichida, ya'ni uni qabul qilish yoki qilmaslik to'g'risida qaror qabul qilingungacha amalga oshiriladi.

Loyihaning daromadlilikini aniqlash loyiha tahlilining vazifasi hisoblanadi. Daromadlilik esa loyihadan olinadigan daromad bilan unga qilingan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Ya'ni loyihaning daromadlilikini aniqlash uchun uning barcha natijalarini aniqlash hamda loyihadan olingan daromadlar unga qilingan xarajatlardan ortish yoki ortmasligini hisoblab ko'rish kerak.

Chunki loyihani amalga oshirish uchun bugun qilinayotgan xarajatlar bilan undan qandaydir vaqt o'tgandan keyin olinadigan daromadlarni bevosita solishtirib bo'lmaydi. Loyihaning ko'pgina aktivlari va inshootlari uzoq muddat xizmat qilishi buning sababi hisoblanadi.

Loyihaning ayrim xarajatlari va natijalarini, masalan, qurilish ishlari xarajatlarini o'lash va baholash oson. Loyiha xarajatlari turli xilda bo'lishi tufayli loyiha har xil nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi.

### 1. Loyiha texnik jihatdan asoslanganmi?



7.3.-rasm. Loyiha tahlilining makro va mikrodarajadagi vazifalari<sup>52</sup>

1. Loyiha tijorat talablariga javob beradimi?
2. Loyiha o'z-o'zini moliyaviy jihatdan qoplaydimi?

<sup>52</sup> Muallif tomonidan mustaqil tuzildi



3. U iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydimi?
4. Loyiha atrof-muhitga qanday ta'sir o'tkazadi?
5. Loyiha mahalliy ijtimoiy-madaniy xususiyatlarni hisobga olganmi?

7. Loyihani amalga oshirishning institutsional (tashkiliy) imkoniyatlari bormi?

Ijobiy natijalar yalpi xarajatlardan ortish-ortmasligini aniqlash zarur. Xarajatlarni tahlil qilish uchun quyidagi savollarga javob olishimiz kerak:

- Loyihaning biz istagan natijasi qanday?
- Loyiha xarajatlarini kim ko'taradi va uning ijobiy natijalaridan kim foydalanadi?

- Loyihaning ijobiy natijalari qachon va qayerda paydo bo'ladi?

Loyihaning yakuniy qiymati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun loyihaga aloqador bo'lgan kishilarning turli guruhlarini olgan foyda va qilgan yo'qotishlarni qanday taqqoslash va jamlash kerak? Bu loyihaning yakuniy ijobiy natijasi boshqa mumkin bo'lgan loyihalar natijasidan nimasi bilan farq qiladi? Loyiha tahlili loyihani shakllantirish jarayonining o'zidayoq uning turli jihatlari ta'sirini va rolini o'zgartirish imkonini beradi. Har qanday yangi axborot, agar foydali bo'lsa, ilgari qabul qilingan qarorlarni o'zgartirish uchun sabab bo'lishi mumkin. Demak, loyiha-smeta hujjatlari loyiha tahlili jarayonida, ya'ni loyihaning turli jihatlari ko'rib chiqish natijalari va yangi olingan axborotlardan kelib chiqib, ilgari berilgan baholarni tuzatish bilan birga ishlab chiqiladi.

Loyiha tahlili o'z faoliyati jarayonida o'ta muhim va keng qamrovli vazifalarni bajaradi. Bu vazifalar iqtisodiyotning darajasi va ko'lamini nuqtai nazaridan mikro va makro darajadagi ikki guruhga bo'linadi.

Loyiha tahlilida bir qancha metodologik yondoshuvlar bilan birga ko'plab usullar ham qo'llaniladi. Loyiha tahlilining usullari, birinchidan, o'ziga xosligi bilan farq qilsa, ikkinchidan iqtisodiy tahlil, statistika kabi fanlarning usullaridan ham keng foydalanadi.

### 7.3. Investitsiyalarning diversifikatsiyalanishi va tasniflanishi

Har qanday investor biznes yuritish sarf-xarajatlariga e'tibor qaratishadi. So'nggi yillarda ushbu sarf-xarajatlarni qisqartirish borasida talay ishlar amalga oshirildi: valyuta bozori erkinlashtirildi, naqd pul-larni berish uchun ma'muriy to'siqlar olib tashlandi, bank va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi erkinlashtirilmogda, biznesni rivojlantirish yo'lidagi ma'muriy to'siqlar bartaraf etilmogda, soliq islohoti amalga oshirilmogda. Xususan, investorlarni ularning mulk huquqi nechog'lik himoyalangani qiziqtiradi. Investor biznesga o'zining pullari, mehnati, tajribasi va o'z innovatsion ishlanmalarini kiritadi. Bu holatda u juda ko'plab risklarni o'z zimmasiga oladi. Biznes turli sabablar: talab kutilganidek katta bo'magani, bozorda kuchli raqobatchilar yoki investorning mahsulotini siqib chiqaradigan yangi mahsulotlar paydo bo'lgani tufayli ziyonli bo'lib qolishi mumkin. Bunday tijoriy risklar bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy hol. Ularni ishbilarmonning o'zi, aytaylik, marketing dasturlari yoki ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash orqali boshqarishi kerak.

Xususan, har qanday biznes, xatto eng muvaffaqiyatlisi ham, zarur bo'lgan vaqtgacha o'zgarishsiz ishlay olmaydi. Biroq, biznesning barqarorligini oshiradigan va o'zgargan xolatlar ta'siri ostida foyda yo'qotish xavfini sezilarli darajada kamaytiradigan muhim yo'nalish mavjud. Bu yo'nalish diversifikatsiya deb nomlanadi.

Diversifikatsiya – (lotinchadan tarjima qilinganda «*xilma-xillik*») bu xavflarni kamaytirish uchun turli xil aktivlarga sarmoya kiritish. Diversifikatsiya – muhim investitsion tushunchadir. Bu investitsiya

portfeli xavfini kamaytirib, shu bilan birga, aksariyat hollarda daromadni kamaytirmaydi.

Bu yerda asosiy savol tug'ildi: Nima uchun investitsiyalarni diversifikatsiya qilish muhim?

Javob oddiy – investitsiya kiritish xavfini minimallashtirish maqsadida.

Aytaylik, Siz qandaydir mahsulot ishlab chiqaruvchi fabrikaning egasisiz. Bu sohada siz allaqachon amaliy tajribaga va chuqur bilimga ega bo'lganingiz – faqat ishlab chiqarish sohasi bilan cheklanganingizni anglatmaydi. Axir, bu soha endi kutilgan rentabellikni ta'minlamasligi yoki jozibador rentabellik loyihalarni oqilona tanlab oladigan mutaxassislarimizga bema'lol murojaat qilishingiz mumkin.

Diversifikatsiyadan oqilona foydalanish nafaqat investorni noxush o'zgarishlar yuz bergandagi yo'qotishlardan xalos qilishi mumkin, balki kapitalni bir necha barobar ko'paytirishga yordam beradi. Shunday qilib, sizga investitsiyalar uchun bir nechta yo'nalishlarni kashf etishingizni maslahat beramiz, chunki qancha ko'p sohalarga sarmoya kiritsangiz, shunchalik xavf past bo'ladi, ayniqsa, inqiroz davrida.

Shuningdek, bugungi kunda banklar ham aktivlar bo'yicha yo'qotishlarga oid tavakkalchilikni kamaytirish maqsadida o'zining kapitalini va likvid resurslarini yetarli darajada saqlab turishi, aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralarni aktivlarni tasniflash asosida shakllantirishi, shuningdek, o'z aktivlarining diversifikatsiya qilinishini ta'minlashi kerak.

Biroq, tabiiy bozor mexanizmlarining ta'siri tufayli yuzaga kelgan risklardan tashqari, mulk huquqini poymol qilish bilan bog'liq boshqa risklar guruhi ham bor. Ishbilarmonlarda ularni kamaytirish imkoniyati juda past va cheklangan. Shu sababli mulk huquqini himoya qilish – bu davlatning eng asosiy majburiyatlaridan biri sanaladi. Faqat davlatda bu funksiyani to'laqonli bajarish uchun qurollar to'plami bor: bular – qonunchilik, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sud tizimi va boshqalar. Modomiki samarali iqtisodiyotga ega bo'lishni istar ekan,

davlat o'z qudratiga tayangan holda quyidagilarni amalga oshirishi kerak (shart):

- Barqaror, shaffof, biri boshqasini inkor etmaydigan qonunchilik;

- Mansabdor shaxslarning o'zboshimchaligi oldini oluvchi, ijroiya hokimiyatini vakillik va sud hokimiyatlari, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari nazoratiga bo'sundiruvchi, bo'lingan hokimiyatlarga ega, ularni tiyib va posangi bo'lib turuvchi tizim;

- Qonunlarning bajarilishini ta'minlash va iqtisodiyot subyektlari huquqlarini himoya qilishga chog'langan samarali va mustaqil sud tizimi;

- Biznes yuritish uchun teng va adolatli shart-sharoitlar.

Iqtisodiy kategoriya sifatida investitsiyalar quyidagicha tasniflanadi:

- Birlamchi (avaylangan) jamg'arilgan kapitalni ko'paytirish maqsadida kapitalni tadbirkorlik obyektlariga joylashtirish;

- Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida investitsiya faoliyati ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar.

Investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapital. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisob-lansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalarga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Investitsiyalar xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmat-baho qog'ozlarga (aksiyalar, obligatsiyalar) qo'yilishi mumkin.


Investitsiya jarayoni – bo'sh sarmoyaga ega bo'lganlar bilan sarmoya talab qilayotganlarning uchrashish jarayoni. Ikkala tomon, odatda, moliyaviy institutlarda yoki moliyaviy bozorda uchrashadilar. Ayrim vaqtda, xususan, mulkiy qiymatlar (masalan, ko'chmas mulk)

bilan bitim imzolanganda sotuvchi va xaridorlar bevosita muomalaga kirishadilar.

Investitsiya obyeksi deyilganda, mablag'larni, yani qonun doirasidagi barcha boyliklar safarbar qilinayotgan obyektlar tushuniladi, ular yangi korxonalar yoki amalda faoliyat yuritayotgan korxonalar, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari, intellektual mulk va boshqalar bo'lishi mumkin.

Investitsiya subyektlari – investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatdir. Odatda, har qanday investitsion faoliyat muayyan maqsadga yo'naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan investitsiya g'oyasiga asoslanadi.

Investitsiya loyihasi uch tomonlama cheklangan bo'lib, muayyan iqtisodiyotda, hududda amalga oshirilishi bilan, belgilangan vaqt bilan cheklanadi. Mazkur hududda belgilangan vaqtda loyiha amalga oshirilsa, u o'zining maqsadiga erishish kuchiga egadir. Investitsiya loyihalari yana bir tomondan cheklanishi, ya'ni unga safarbar etiladigan resurslar qiymati (xomashyo, mehnat va moliyaviy resurslari qiymati) o'zgarib boradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, investitsiya loyihasini quyidagicha tasniflash mumkin:



7.4.-rasm. Investitsiya loyihalarining tasniflanishi<sup>53</sup>


<sup>53</sup> <http://em.tiame.uz/storage/web/source/1/elektron%20kutubxona/15>

Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g'oyasi investitsiya loyihasining qaror topishiga olib keladi. Investitsiya loyihasi tushunchasini uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida o'zgarishlar, tarkibiy islohatlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog'liq.

Harakat yo'nalishi bo'yicha investitsiyalarni tarkibli yangilash, ratsionallashtirish, kengaytirish, almashtirish va hokazolarga mo'ljallangan investitsiyalarga ajratish mumkin. Maqsadlari va ular bilan bog'liq xatarlar nuqtayi nazaridan venchurli (xatarli) bevosita, portfel va annuitet investitsiyalar bo'ladi. Venchur kapital shakli katta xatar bilan bog'liq yangi faoliyat sohalarida chiqariladigan yangi aksiyalardir. Xatarli kapital kapitalning shakllarini: ssuda kapitali, aksiyadorlik kapitali va tadbirkorlik kapitalini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalash kim tomonidan amalga oshirilganligi nuqtayi nazaridan ikki turga, ya'ni ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi. Ichki investitsiyalar – bu mazkur davlat hududida ichki investorlar tomonidan yo'naltiriladigan investitsiyalardir. Tashqi investitsiyalar – bu xorijiy investorlar tomonidan yo'naltiriladigan investitsiyalar bo'lib, chet el mulkdorlari tomonidan iqtisodiyotning turli (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va h.k) uzoq muddatga qo'yilgan kapital mablag'laridir. Investitsiyalarni turlari bo'yicha tavsiflanishini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:



**7.5.-rasm. Investitsiyalarning tasniflanishi<sup>54</sup>**


Investitsiyalashning bosh bosqichlari quyidagilar bo'ladi: resurslarni kapital qo'yimalarga aylantirish (resurslarning kapitallashuvi), ya'ni bunda investitsiyalar investitsion faoliyatning aniq obyektlariga transformatsiyasi jarayoni yuz beradi; qo'yilgan mablag'larning kapital qiymati o'sishiga aylanishi (ekspluatatsiyaga berilgan obyektlar va ishlab chiqarish quvvatlari shaklida); kapital qiymatining daromad (foйда) shaklida o'sishi, ya'ni investitsiyalashning oxirgi (so'nggi) maqsadi amalga oshiriladi.

Shunday qilib, investitsiyalarning bosh va oxirgi nuqtalari tutashadi. Bunda yana ketma-ketlik, bir-biri bilan yangi aloqa shakllanib: daromad (foйда) – resurslar – oxirgi natija, ya'ni jamg'arish jarayoni takrorlanadi.

Investorlarning turli mulkchilik shaklida amalga oshiradigan investitsion faoliyatlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirib, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni (aholini ish bilan ta'minlash, milliy boviklarning ko'payishi va millat farovonligini yanada yaxshilash) bartaraf etishda katta rol o'ynaydi.

<sup>54</sup> Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2008.-28 b.

## INVESTITSIYA FAOLIYATINING YO'NALISHLARI



7.6.-rasm. Mamlakatimizda investitsiya faoliyatining asosiy yo'nalishlari<sup>55</sup>

### Nazorat savollari:

1. Investitsiyaning mohiyati va mazmuni nimalardan iborat?
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarga bo'lgan obyektiv zarurat nimalar bilan belgilanadi?
3. Investitsiyalar kapital qo'yilmalardan qanday farqlanadi?
4. Investitsiyalarni klassifikatsiyalash deganda nimani tushunasiz?
5. Investitsiya loyihasi tahlilining mohiyati va iqtisodiy ahamiyati nimalardan iborat?
6. Investitsiyalarning diversifikatsiyalanishi va tasniflanishini tushuntirib bering.

<sup>55</sup> Nazariy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi



## VIII BOB. KORXONALARDA INNOVATSIYALAR

### Reja:

- 8.1 Korxonalarda innovatsion faoliyat va innovatsiya
- 8.2 Korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil qilish
- 8.3 Innovatsion loyiha yaratish va amalga oshirishning asosiy bosqichlari
- 8.4 Innovatsion loyihalarni baholash
- 8.5 Zamonaviy sharoitda innovatsion tovarlarning raqobatbardoshligi

**Tayanch iboralar:** innovatsiya, investitsiya, yangilik, innovatsion loyiha, innovatsion faoliyat, raqobatbardoshlik.

### 8.1. Korxonalarda innovatsion faoliyat va innovatsiya

Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda umumjahon bozor iqtisodiyoti paydo bo'lmogda, iqtisodiyot «globalashmogda», mahsulotlar tez (3-4 yilda) almashmogda, yangiliklar (innovatsiyalar) doimiy ravishda yaratilmogda. Bu sharoitlarda marketing va innovatsiyalarning roli va ahamiyati ortib bormogda.

Yuqori texnologik tovar va xizmatlar bozori kengayib bormogda, bu bozor hajmi har yili o'rtacha 1,2-2 %ga o'sib borib, xomashyo – neft, gaz, yog'och bozorlaridan bir necha marotaba kattaroqdir. Rossiya Federatsiyasi bu bozorda atigi 0,3 % joy olgan, AQSH – 32 %, Yaponiya – 23 %, Germaniya – 10 % bozor ulushiga ega.

Ko'rinib turibdiki, istiqbolga qarab o'z iqtisodiyotlarini innovatsion yondoshuv asosida qurgan mamlakatlar hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rinlarda bormogdalar. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar va dasturlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmogda. Ushbu

dasturlarning asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va texnik qayta qurollantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda bank tizimini qo‘llab-quvvatlash ishlari turganligi mamlakatimiz iqtisodiyotini raqobatbardoshligini va barqaror o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashga zamin yaratadi.

Innovatsiyalar jahon iqtisodiyotidagi tuzilmaviy o‘zgarishlarning harakatlantiruvchi omili bo‘ldi. Iqtisodiyot rivojlanishining innovatsiyaviy turi ishlab chiqarilayotgan mahsulotga xarajatlarning kamayishiga sabab bo‘lib qolmaydi. Balki innovatsiyalar iqtisodiyotning tarmoqlar tuzilmasiga, ixtisoslashuv hamda tarmoqlar va tub tarmoqlar o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarining rivojlanishiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston yuksak texnologik, zamonaviy ishlab chiqarishlarni yaratish hisobiga milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga intilmoqda. Bunday sharoitda jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvdagi eng muhim vazifalardan biri – bu iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazishdir.

So‘nggi yillarda iqtisodiy manbalarimizda «innovatsiya», «innovatsion jarayon» va «innovatsion faoliyat» terminlari ko‘p uchramoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotni modernizatsiyalash davrida keng ko‘lamda talqin etilmoqda. Shu boisdan innovatsiya tushunchasining mohiyatini anglashda atroflicha yondoshish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy manbalarda «innovatsiya» ga turlicha ta‘rif berilgan. Ko‘plab xorijiy iqtisodchi olimlar N. Manchev, I. Perlaki, V.D. Xartman, Y. Mensfild, B. Tviss, I. Shumpeter, Y. Rodjers va boshqalar ushbu tushunchani turlicha talqin qilishadi<sup>56</sup>.

Masalan, B. Tviss: – «Innovatsiya – bu kashfiyot yoki g‘oya, iqtisodiy mazmunga ega jarayon». F. Nikson: «Innovatsiya – bu texnik, ishlab chiqarish va tijorat tadbirlarining majmui bo‘lib, yangi bozorlarda yangilangan ishlab chiqarish va qurilmalarni yuzaga kelishi».

I. Shumpeter: «Innovatsiya – bu ishlab chiqarish omillarining ilmiy-tashkiliy umumlashuvi bo‘lib, tadbirkorlik ruhiyatiga undaydi».

---

<sup>56</sup> <https://poisk-ru.ru/s4254317.html>

B. Santo: «Innovatsiya – bu shunday ijtimoiy, texnik, iqtisodiy jarayonki, g'oya va kashfiyotlarni amaliyotda foydalanish, mahsulot, texnologiyalarni yaxshi sifat fazilatlariga ega bo'lishiga olib keladi, ya'ni innovatsiya yuqori samarani ko'zda tutadi. Uning yuzaga kelishi bozorda qo'shimcha daromad keltirishi mumkin». Ushbu ta'riflarni umumlashtirib aytish mumkinki, innovatsiyalar – bu ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonlarini, texnologiyalarni takomillashtirish, mahsulot va xizmatlarning yangi sifat jihatlarini ta'minlash, boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan barcha texnik, texnologik, iqtisodiy, tashkiliy boshqaruv jarayonlari majmuidir.

Innovatsiya iborasi inglizcha «*innovation*» so'zidan olinib, yangi ilmiy-texnik yutuqni ifodalab, yangi mahsulotni amalda qo'llanilish jarayonini bildiradi. Innovatsiyalar o'zida tom ma'noda yangilik ma'nosini berib, u mikromiqyosdan to makromiqyosgacha amal qiladi, ya'ni unda korxonada ishlab chiqarish mexanizmiga nisbatan uning samaradorligini oshirish maqsadida ma'lum bir o'zgarishlar kiritish yoki mamlakatning iqtisodiy siyosatida yangi yo'nalishlarni joriy qilinishi tushuniladi.

Innovatsiyaning turli ta'riflari tahlilidan kelib chiqib, Avstriyalik olim Y. Shumpeter uning 5 ta alohida tavsiflarini ajratib berdi:

– yangi texnika va texnologik jarayonlardan foydalanish yoki yangi bozorlarni ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta'minlash;

– yangi xususiyatlarga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishga joriy qilish;

– yangi xomashyo turlaridan foydalanish;

– ishlab chiqarishni tashkil etish va uning moddiy-texnik bazasini ta'minlashdagi ijobiy o'zgarishlar;

– yangi sotish bozorlarini yuzaga keltirish.

Innovatsiyalarning asosiy turlari:

– mahsulotlar innovatsiyasi;

– texnika-texnologiya innovatsiyasi;

– tashkiliy boshqaruv innovatsiyasi.

Mahsulotlar innovatsiyasi – eng keng tarqalgan bo‘lib, juda ko‘p korxonalarda mavjud. Bunda bir korxonadan boshqa korxonaga o‘tish xarakteri farqlanadi. Ayrimlar uchun an’anaviy profilga kiruvchi mahsulotlar assortimentini almashtirish yoki mahsulotlar sonini sezilarli darajada oshirish, boshqalar uchun iste’mol talablarini inobatga olgan holda an’anaviy mahsulotning iste’mol sifatini oshirishdir.

Texnika-texnologiya innovatsiyasi – bu innovatsiyaning yetakchi motivi bo‘lib, bozor talabini qondiruvchi yangi mahsulotlar ishlab chiqarish hisoblanadi.

Tashkiliy-boshqaruv innovatsiyasi – ko‘proq firmaning barcha darajalarida, bo‘limlar, bo‘linma va xizmatlarda ishni qayta tashkil etish orqali tavsiflanadi. Innovatsion jarayon – bu tashkilotda yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish va tarqatish bilan bog‘liq faoliyatdir.

Innovatsion jarayonlar, asosan, uy xo‘jaliklari, firma, kompaniyalar, korporatsiyalar miqyosida ro‘y berib vujudga keladi, asta-sekin to‘liq xo‘jalik tizimiga, makroiqtisodiyot tarmoqlariga singib boradi.

Innovatsion jarayonlar maqsadini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- masalaning yangi texnik yechimini topishni ixtiro qilish;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tashkil etish;
- yangi mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etish;
- mahsulotga bo‘lgan talabni aniqlash;
- mahsulotni seriyalab ishlab chiqarish;
- yangi mahsulotni bozorga olib kirish;
- mahsulotni raqobatbardoshligini, sifatini oshirish yo‘li bilan yangi bozorga o‘rnashib olish.

Innovatsion jarayon subyektlarini quyidagilarga bo‘lish mumkin:

1. Novatorlar – ilmiy-texnik bilimlar generatori hisoblanadi. Bular qatoriga tartibdagi ixtirochilar, tadqiqot tashkilotlari kirishi mumkin. Ular ixtirolardan foydalanishda keladigan daromadlarning bir qismini olishga muvaffaq bo‘ladilar.

2. Dastlabki retsipientlar – yangilikni birinchi bo‘lib o‘zlashtirgan tadbikorlar hisoblanadi. Ular yangiliklarni bozorga tezlik bilan chiqarish yo‘li bilan qo‘shimcha daromad olishga intiladilar. Ular «kashshof» nomini olganlar.

3. Dastlabki ko‘pchilik – kiritiladigan yangiliklarni ishlab chiqarishga birinchilardan bo‘lib joriy etgan firmalar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ularga qo‘shimcha daromad ta‘minlaydi.

4. Orqada qoluvchilar – kiritiladigan yangiliklardan kechgacha qolib, ma‘naviy eskirgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga olib keluvchi vaziyat bilan yuzma-yuz to‘qnashuvchilar sifatida namoyon bo‘ladilar.

Novatorlardan tashqari boshqa barcha guruhlar imitatorlar hisoblanadi.

Innovatsion jarayonni 3 ta mantiqiy shakli farqlanadi:

- Oddiy ichki tashkiliy (tabiiy)
- Oddiy tashkiliy oraliq (tovar)
- Kengaytirilgan

Oddiy ichki tashkiliy innovatsion jarayon – bu yangilikni bir korxonada kiritilishi va foydalanishidir. Bu holda yangilik tovar xarakteriga ega bo‘lmaydi.

Oddiy tashkiliy oraliq innovatsion jarayonda yangilik oldi-sotdi predmeti hisoblanadi. Bu innovatsion jarayon shakli yangilikni yaratuvchi bilan ishlab chiqaruvchining funksiyasini uning iste‘molchi funksiyasidan farqini ko‘rsatadi.

Kengaytirilgan innovatsion jarayon – bu yangilanish, yangi ishlab chiqaruvchilar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ishlab chiqaruvchining monopol xarakteri buziladi, tomonlar orasidagi bog‘liqlik raqobat orqali ishlab chiqarilayotgan tovarlarni iste‘mol xususiyati takomillashtirib boradi. Tovar innovatsion jarayoni sharoitida eng kamida ikkita xo‘jalik subyekti harakat qiladi – ishlab chiqaruvchi va iste‘molchi. Agar yangilik – texnologik jarayon bo‘lsa, u yerda ishlab chiqaruvchi va iste‘molchi bitta xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘lishi mumkin.<sup>3</sup>

Innovatsion jarayonning yettita tarkibiy elementlari mavjud bo'lib, ularning birlashuvi innovatsion jarayon strukturasi tashkil qiladi. Bu elementlar quyidagilar:

- innovatsiya tashabbusi
- innovatsiya marketingi
- innovatsiyani ishlab chiqish
- innovatsiyaning amalga oshirilishi
- innovatsiyani joriy qilish
- innovatsiyaning iqtisodiy samaradorligini baholash
- innovatsiya diffuziyasi (tarqalishi).

Innovatsion jarayonning boshlanishi bo'lib tashabbus hisoblanadi. Tashabbus – bu innovatsiya maqsadini belgilashdan, innovatsiya orqali bajariladigan ishni tashkil etishdan, innovatsiya g'oyalari qidirishdan hamda uni texnik-iqtisodiy asoslash va g'oyalarni moddiylashtirishdan tashkil topgan faoliyatdir. G'oyalarni moddiylashtirish – g'oyani Tovar-ga aylanishini bildiradi.

Yangi mahsulot asoslangandan keyin kiritilayotgan innovatsiyaning marketing tadqiqoti olib boriladi. Bunda yangi mahsulotga bo'lgan talab o'rganiladi, mahsulot ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi, innovatsiya kiritilishi kerak bo'lgan bozorga chiqayotgan tovar iste'mol xususiyatlari va tovar xarakteristikasi aniqlanadi.

Keyin esa innovatsiya amalga oshiriladi, ya'ni bu innovatsiyaning katta bo'lmagan partiyasini bozorda paydo bo'lishi, uni tarqalishi, samaradorlik bahosi va diffuziyada namoyon bo'ladi. Innovatsiyaning tarqalishi innovatsiyani realizatsiya qilishga qaratilgan kompleks choratadbirlarni o'z ichiga oladi. Innovatsiyani amalga oshirish va uni tarqalishiga ketgan xarajatlarni statistik tahlil qilish asosida innovatsiyaning iqtisodiy samaradorligi hisoblanadi.

Innovatsion jarayon innovatsiya diffuziyasi bilan yakunlanadi. Innovatsiya diffuziyasi avvaldan egallab kelingan, yangi mintaqa, yangi bozorlarda innovatsiyaning tarqalishini nazarda tutadi.

Umumlashtirib aytish mumkinki, innovatsion faoliyat – bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalashda asosiy dastaklardan biridir va shu sababli iqtisodiy tizimning barcha pog‘onalari innovatsion faollikni oshirish zarur.

## **8.2. Korxonalarda innovatsion faoliyatni tashkil qilish**

Iqtisodiy rivojlanishni innovatsion yo‘naltirilganligi, texnologik yangilanishning o‘ziga borayotgan zaruriyati innovatsion faoliyatda tashkil qilish tamoyillari va tarkibiy-tashkiliy o‘zaro aloqalarga aniq va mos kelishning muhimligini ta’kidlaydi. Gap innovatsion impulslarni iqtisodiy haqiqatga kiritishning muvofiq yo‘llarini qidirib topish haqida ketmoqda. Tushunarliki, innovatsion o‘zgarishlarni kengayib borgani sari innovatsion rivojlanishning vazifaviy – elementar bazasini ilmiy asoslangan shakllanishi talab qilinadi.

Innovatsiyalarni tashkil qilish o‘z ichiga uchta asosiy jihatlarni oladi:

1. Innovatsion faoliyatning yangiliklarini ishlab chiqish, tadbqiq etish va ishlab chiqarishni birgalikda amalga oshiruvchi odamlarning birlashmasi bo‘lgan subyektni;
2. Tashkilotning innovatsion faoliyatdagi zaruriy vazifalarni bajarishga qaratilgan jarayonlari va harakatlarining majmuasini;
3. Tizimni ichki tartibga solinganligi va uning elementlari tizimchalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni takomillashuvini ta’minlovchi tuzilmalarni.

Ushbu nuqtayi nazardan innovatsiyalarni tashkil qilishni innovatsion faoliyatni tartibga solish jarayoni sifatida, subyekt, firma, institut, innovatsion korxonalar sifatida, bo‘linmalarining tarkibi va o‘rnini belgilab beruvchi hamda innovatsion faoliyatda amalga oshiriladigan shakllar, usullar, jarayonlar tadbirlarini tartibga soluvchi tashkiliy tuzilmalar sifatida tushunish kerak.

Tashkilot firma nuqtai nazaridan odamlarning birlashmasi yoki innovatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha ishlarni bajarish haqidagi ularning kelishuvi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Turli xildagi elementli va turli o'lchamlardagi firmalar, kompaniyalar, assotsiatsiyalar, OO'Y, ilmiy institutlar, texpolislar, texnoparklar va h.k. innovatsion faoliyatining subyektlari bo'ladilar. Bu barcha tashkilotlar ishlab chiqarishni haqiqiy yangilanishini amalga oshiruvchi asosiy manbalar va xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'ladilar. Yashash davrasining "o'zining" bosqichi bilan yaqindan bog'langan maxsus innovatsion biznesni paydo bo'lishi vaqtning taqozosi bo'ladi.

Masalan, innovatsion korxonalar va tashkilotlar fundamental tadqiqotlar (akademik va OO'Y sektori va ITI (amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlamalar)ga ixtisoslashishlari mumkin, bular ilmiy innovatsion korxonalar, Oliy o'quv yurtlari, kichik tadbirkorlik subyektlari, ilmiy-texnik majmualar va birlashmalar bo'lishlari mumkin. Tajribaviy namunalarni yaratish va tadbiq etish bosqichi bilan ham tadbirkorlik tuzilmalari va ham ITTKI ning rivojlangan bazasiga ega firmalar, institutlar va korporatsiyalar bog'langanlar. Amaliy ITTKI va TKI bazasida innovator-izbosarlar bazaviy texnologik, ilmiy-texnik va mahsulotli yangiliklarni yaratadilar.

Ilmiy-texnik va mahsulotli yangiliklarni tadbiq etish va ishlab chiqarish bilan, qoidagi ko'ra, yaxshi resurs bazasi, malakali xodimlar, bozordagi belgilangan o'rinlarga ega yirik firmalar shug'ullanadilar. Tadqiqotchilar firmaning o'lchamini kashfiyotlar soni bilan bog'lama-salar ham, G'arbiy Yevropada innovatsion rivojlanishning katta tajribasi to'plangan. Ammo Fransiya va Buyuk Britaniyada shunday fikr tarqalganki, ilmiy ishlab chiqishlar bosqichida akademik va OO'Y sektori va kichik firmalar asosiy rolni o'ynaydilar.

Tajribali ishlab chiqarish, marketing va sotish bosqichida turli ko'lamli biznes ilgariga chiqadi, shuning bilan bir vaqtda yangiliklarni ishlab chiqarish va tarqatish yirik va o'rta korxonalar va sanoat kompaniyalarida amalga oshiriladi.



Innovatsion faoliyatda vujudga kelgan mehnatni iqtisodiy taqsimlanishining turiga muvofiq kichik va o'rta ko'lamdagi korxonalarining ko'pchiligi yarim fabrikatlar, butlovchilarni ishlab chiqarishga ixtisoslashayotgan hamda asosiy biznesni ta'minlash va unga xizmat ko'rsatish vazifasini bajaruvchi yirik firmalarning subpudratchilari bo'ladilar.

Yangiliklarni yashash darajasining o'z bosqichiga bosh firmadan kurtaklab chiqqan ("spin. ofat") deb ataluvchi, ilmiy-texnik yangiliklarni mustaqil ravishda ishlab chiquvchi bo'linmalar ham xizmat ko'rsatadilar. Innovatsion korxonalar yana ular faoliyatining obyekti bo'lgan innovatsiyalarning ustuvor turiga ko'ra ham farqlanadilar. Masalan, ular quyidagi sinflarga bo'linadilar:

- yangi ilmiy kashfiyotlar, qo'llashning yangi usullari va pionerli (birinchi) kashfiyotlarni mo'ljallovchi yetakchi innovatorlar;

- oldin qilingan kashfiyotlar asosidan tubdan yangi jarayonlar va mahsulotlarni yaratuvchi yetakchi innovatorlar;

- eski usul asosida bazaviy innovatsiyalarni yaratuvchi innovatorlar;

- yangilikni ishlab chiqaruvchi, modernizatsiyalovchi va ratsionallashtiruvchi innovatorlar;

- oldingi mahsulotlar va texnologiyalarni o'rinni bosuvchi yangilikni yaratuvchi innovatorlar;

- yangiliklarni sotishlar va marketingga ixtisoslashuvchi innovatorlar;

- yangi bozorlardagi talabni qanoatlantiruvchi innovatsiyalarni yaratuvchi innovatorlar;

- iqtisodiyotning har xil sohalarida yangiliklarning diffuziyasi, tarqatilishi va ko'paytirilishi bilan shug'ullanuvchi innovatorlar.

Innovatsion korxonalar ham ishlab chiqarilayotgan innovatsiyalarning yangiligi darajasi (tubdan yangilar, nisbatan, qisman, mahalliy yangilik yoki imitatsiyaga egalar) muvofiq ixtisoslashadilar.<sup>4</sup>

### 8.3. Innovatsion loyiha yaratish va amalga oshirishning asosiy bosqichlari

Iqtisodiyotga loyihalarni boshqarishning nisbatan yangi konsepsiyasi (Project Management) jadal ravishda kirib kelmoqda. Bu konsepsiyaning asosini loyihasiga har qanday tizimning vaqt va mablag'lar sarflanishi bilan bog'liq dastlabki holatini o'lchashga qarash tashkil qiladi. Oldindan ishlab chiqilgan dasturlar bo'yicha byudjet va vaqtli chegaralashlar doirasida amalga oshirilgan bu o'zgarishlar jarayoni esa – loyihalarni boshqarishdir. Hozirgi vaqtga kelib loyihalarni boshqarish barcha sanoati rivojlangan va yangi sanoatli mamlakatlarda investitsion faoliyat metodologiyasi tomonidan tan olingan. Mamlakatimiz amaliyotida bu konsepsiya dasturiy – maqsadiy dasturlar (DMD)ni qo'llanilishida o'z aksini topgan.

“Innovatsion loyiha” tushunchasi quyidagicha ko'rib chiqilishi mumkin:

- innovatsion faoliyatni maqsadli boshqarish shakli;
- innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni;
- hujjatlar majmuasi.

Innovatsion loyiha innovatsion faoliyatni maqsadli boshqarishni shakli sifatida fan va texnikani ustuvor yo'naltirilgan rivojlantirishning aniq maqsadlari (vazifalari)ga erishishga qaratilgan tadbirlarning resurslar, muddatlar va ijrochilar bo'yicha o'zaro asoslangan va o'zaro bog'langan murakkab tizimidan iboratdir. Innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni sifatida – bu innovatsiyalarga olib keluvchi ilmiy, texnologik, ishlab chiqarish, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlarini belgilangan izchillikda bajariladigan majmuasidir.

Shuning bilan bir vaqtda innovatsion loyiha – bu loyiha maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnik, tashkiliy, rejaviy va hisoblash – moliyaviy hujjatlarning yig'indisidir. Bu uchta nuqta nazarlarni hisobga olish bilan, quyidagi tahrifni berish mumkin: innovatsion loyiha – bu masofa va vaqtda muammolarni hal qilish,

innovatsion jarayonlarni tashkil qilish bo'yicha ilmiy asoslangan maqsadlar va tadbirlarni belgilab beruvchi hujjatlarining yig'indisidir. Maqsadlar va tadbirlarni ilmiy asoslanishiga menejmentga ilmiy yondashishlarga rioya qilish, zamonaviy usullarni qo'llash yo'li bilan erishiladi.

Innovatsion loyihani ishlab chiqish va amalga oshirishga rahbarlik loyiha rahbari (loyiha menejeri) va ilmiy texnik kengashi (ITK) tomonidan amalga oshiriladi. ITK tarkibiga ilmiy-texnik yechimlarni tanlash, ular amalga oshirish darajasi, loyihaviy maqsadlarga erishish uchun zarur tadbirlarning to'liqligi va butligi uchun javobgarlikka ega, ijrochilarni tanlov asosida tanlash va olingan natijalarning ekspertizasi tashkil qiluvchi loyihaning tematik yo'nalishlari bo'yicha yetakchi mutaxassislar kiradilar.

Loyiha rahbari – yuridik shaxslar, unga buyurtmachi loyiha: rejalashtirish, loyiha ishtirokchilari ishlarini nazorat qilish va muvofiq-lashtirish bo'yicha ishlarga rahbarlik qilish vakolatlarini topshiradi. Loyiha rahbari vakolatlarining aniq tarkibi buyurtmachi bilan shart-noma tomonidan belgilanadi. Loyiha jamoasi – loyiha rahbari tomonidan boshqariladigan va loyihani amalga oshirish davrida rejaviy ko'rsatkichlarga o'z vaqtida erishish maqsadida tashkil qilinadigan o'ziga xos tashkiliy tuzilmadir. Loyiha jamoasining tarkibi va vazifalari loyihaning ko'lamlari murakkabligi va boshqa tahriflariga bog'liqdir. O'z vazifalarining bir qismini bajarish uchun ishlab chiquvchi ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni jalb qilishi mumkin. Loyihani qo'llab-quvvatlovchilarga innovatsion markazlar, dasturlar va loyihalarni qo'llab quvvatlovchi fondlar, konsalting firmalari, mustaqil ekspertiza tashkilotlari, patent-litsenziya firmalari, auditorlik firmalari, ko'rgazma markazlari va h.k kiradilar.

Innovatsion loyihalarni tasniflash innovatsiyalarni tasniflashlar asosida amalga oshiriladi. Masalan, tasdiqlash, moliyalashtirish va amalga oshirish darajasi bo'yicha innovatsion loyihalar, davlatlararo,

davlat, mintaqaviy, sohaviy, alohida korxonanikiga bo'linishlari mumkin.

#### 8.4. Innovatsion loyihalarni baholash

Investitsion loyihalarni baholash usullari hamma hollarda ham yagona bo'lmasligi mumkin, chunki investitsion loyhalar xarajatlarning ko'lamlari, ulardan foydalanish muddatlari hamda foydali natijalar bo'yicha g'oyatda katta xavflarga egalar. Katta kapital kiritmalarni atalib qilmaydigan, mahsulotni ishlab chiqarishni o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatmaydigan hamda foydali foydalanishning nisbatan kichik muddatiga ega. Mayda investitsion loyihalarga hisoblashning oddiyroq usullarini qo'llash mumkin.

Shuning bilan bir vaqtda kattaroq investitsion xarajatlarni talab qiluvchi ko'lamliroq investitsion loyihalar yangi qurilish, qaytadan qurish, mahsulotlarning tubdan yangi turlarini o'zlashtirish omillarining katta sonini hisobga olish va buning natijasida murakkabroq hisoblashlarni o'tkazish hamda samaradorlikni baholash usullarini aniqlab olish zarurligini keltirib chiqaradi. Korxonada xo'jalik faoliyati natijasida investitsion loyiha qanchalik ko'lamliroq va katta o'zgarishlar qanchalik ko'p bo'lsa, pul oqimlarini hisoblash va investitsion loyiha samaradorligini baholash usullari shunchalik aniqroq bo'lishlari kerak.

Investitsion loyihalarni amalga oshirishdan kelib chiqqan pul oqimlarini harakatlanishi bir qator yillar davomida o'tganligi holati ularning samaradorligini baholashni qiyinlashtiradi. Investitsion loyihalarni vaqtning uzoqroq davri davomida tatbiq etilishi korxonaning iqtisodiy salohiyati va xo'jalik faoliyati natijalariga ta'sir ko'rsatishini hisobga olish bilan ularning samaradorligini baholashdagi xato katta moliyaviy xatolar va yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Iqtisodiyot faniga investitsion loyihalar samaradorligining loyihaviy va haqiqiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqning bir necha asosiy sabablari ma'lum. Sabablarning birinchi guruhiga investitsion loyiha samaradorligini

ayrim olimlar, ilmiy xodimlar va korxonalar mutaxassislarining subyektiv nuqtai nazarlari bilan asoslangan ongli ravishda oshirilishi va ularning moliyaviy resurslarni cheklash uchun kurashlari kiradi.

Bunday hisoblashlardan korxonalarda boshqaruvning tegishli tizimlarini tashkil qilish yo'li bilan himoyalaniş mumkin, ular korxonalar vazifaviy xizmatlar ishini muvofiqlashtirish va nazorat qilishga yoki investitsion loyihalarning samaradorligini baholash bilan bog'liq hisoblashlarning obyektivligini tekshirishga mustaqil ekspertlarni jalb qilishga imkon beradilar.

### **8.5. Zamonaviy sharoitda innovatsion tovarlarning raqobatbardoshligi**

Industrializatsiya, ommaviy ishlab chiqarish, aholi jon boshiga o'rtacha daromadning o'sishi, xaridor bozorlarida bozorni o'zgartirish iste'mol qilishning asosiy o'zgarishiga olib keldi. Xarid qilish to'g'risida qaror qabul qilishda, tovarlarning sifati, dizayni, texnik darajasi, xizmat ko'rsatish darajasi, kafolat darajasi, kafolat, savdo va shunga o'xshash narsalar bilan bir qatorda narxlar ham alohida ahamiyatga ega. Shu ma'noda marketing faoliyatidagi muammolarni hal etishda va narx bilan tovarlar sifati o'rtasidagi nisbatni shakllantirishda narx siyosatining quyidagi xususiyatlari inobatga olinadi:

- muayyan sifat uchun haqning o'zgarishi bo'yicha;
- narxni saqlashda sifatning o'zgarishi bo'yicha.

Ikkala jihatdan ham, sifat jihatidan obyektiv va subyektiv tabiatning afzalliklari va xarajatlarini integratsiyalashgan (vaqtni yo'qotish yoki yo'qolgan imtiyozlarning hissiyotining ko'rinishi).

So'nggi aksiyalarning sezilarli qismi bugungi kunda tarqatish sohasida shakllantiriladi, bu esa bir yoki boshqa mahsulotni sotishni tanlashda savdo kuchini anglatadi. Birinchi navbatda savdo-sotiq o'zlari uchun bunday mezonni o'ziga jalb qilish, ya'ni savdo konsessiyasi,

ombor tovarlari aylanishi, yetkazib berish va to'lash shartlari, mahsulotning boshqa mahsulotlarga ta'siri kabilar.

Keyingi bosqich natijalarga taalluqlidir: ishonchlilikni tekshirish, shuningdek, narx sifatining nisbati. Savdoga sezilarli ta'sirni qo'shimcha xizmatlar bilan ta'minlash orqali ishlab chiqaruvchining savdosotiqda ishtirok etishi, mijozlarga xizmat ko'rsatish, tezkor yetkazib berish, saqlash va shunga o'xshashlarni yaratishda.

Yuqoridagi mezonlarning mavjudligi, shuningdek, savdo sektorida, shuningdek, ma'lum bir tarzda mahsulotning raqobatbardoshligiga hissa qo'shadigan faol siyosatni rag'batlantirish shartlarini yaratadi.

Ba'zi mahsulotlarni, ayniqsa, texnik kompleksni sotish imkoniyatlari mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasiga juda bog'liq, chunki u ularni xavfsizlik va kafolat bilan ta'minlaydi.

Umuman olganda, xizmatlarni texnik va savdoga bo'lish mumkin. Ta'minot – bu tovarlarning funksiyalarini qayta ishlash, tovarlarni iste'mol qilishdan, boshqa tovarlar bilan mos keladigan tovarlarni boshqa tovarlar bilan muvofiqlashtirish yoki samaradorlikni oshirish uchun ma'lumot berishda. IYeSga kelsak, ehtiyot qismlarni o'rnatish, tekshirish, texnik xizmat ko'rsatish va yetkazib berishda bunday xizmatlarni o'rnatish mumkin.

Texnik xizmatlar mijozlarga maslahatlar berish va ularga bank xizmatlarini yetkazib berish, bank xizmatlarining mavjud narxlaridan xabardor qilish, boshqa yangi iste'molchilar istaklariga moslashish, hamda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tijorat xizmatlari bo'yicha ma'lumotlar to'plash va undan foydalanish bo'yicha mijozlarni xabardor qilishni anglatadi. Umuman olganda, xizmat funksiyalarining bajarilishi mijozlarni jalb qilish, sotish, xabardorlikni qo'llab-quvvatlaydi.

Mijozlarga xizmat ko'rsatish umumiy ish kompleksidan, kafolatli xizmatlardan foydalanish, ishonchlilik va shunga o'xshash kafolatlar bilan bog'liq. Kafolatli xizmat ko'rsatish hisobiga mijozning ta'sirini shakllantirish uning hajmiga va bajarilishning tezligi va sifatiga bog'liq.

Mahsulotning o'zi ishlab chiqarish ehtiyojning qondirilishini anglatmaydi. Ko'pincha, bu boshqa xizmatlarni amalga oshirishdan tashqari, ishlab chiqarish va iste'mol qilish o'rtasidagi fazoviy va vaqt masofasi, mahsulotlar uchun imtiyozli va sifatli mijozlarga yordam berish va sifatli to'lov shartlarini taqdim etish, zaruriy pulni (kechiktirish) va shunga o'xshash narsalar bilan ta'minlash. Aniqlangan risklar va zararlar bo'yicha ma'lumotlarni yetkazish va ular tufayli paydo bo'lgan xarajatlarni qoplash:

- Sotuvchidan xaridorga tashish, saqlash, sug'urta, hujjatlar, majburiyat, sifatni tekshirish va shunga o'xshash narsalar;
- bank mahsulotlarini sotuvchidan xaridorga topshirish jarayonlarida vositachilik va shu kabilar.

Ushbu muammolarni samarali hal qilishdan, shu bilan birga iste'molchi uchun sotib olishning jozibadorligi va ishlab chiqaruvchining faoliyatining rentabelligi bir vaqtning o'zida ham bog'liq. Avvalambor, yetkazib berish vaqtini o'zgartirishdan kelib chiqadigan xarajatlar ko'proq yoki kamroq ekanligini hisoblash mumkin. Biroq, yetkazib berish muddati va mijozlarning sadoqati o'rtasidagi bog'liklikni aniqlash ancha qiyinroq.

Shubhasiz, yetkazib berishni zudlik bilan ta'minlash bo'yicha maxsus xizmatlar mahsulotga bo'lgan talabni oshiradi, ammo savol ularning samaradorligi chegaralari haqida paydo bo'ladi. Shunday qilib, ba'zi filiallarda raqobat shunchalik kuchli ekanligi, hatto odatdagi yetkazib berish vaqtining ahamiyatsizligi, sotishda jiddiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli korxonalar ushbu "tanqidiy chegara"ni kesib o'tmaslik uchun, korxonalarni yetkazib berishga tayyor bo'lishga harakat qilmoqdalar. Bundan tashqari, umumiy iqtisodiy maqsadlarda korxonalar va kommunal xizmatlardan, kasalxonalar, transport, shuningdek, umummilliy strategik invent-anjitar-inventarizatsiya uchun doimiy cheksiz tayyorgarlik mavjud.

Bozor iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan korxonaning asosiy vazifalaridan biri nafaqat o'z tovarlarining raqobatbardoshligini, balki ularning yaratilishi va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishni

ham ta'minlashdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ushbu maqsadga ular nima qilayotganidan qat'i nazar, ular qilayotgan ishlaridan qat'i nazar, mutaxassislarning yuqori innovatsion faoliyati bilan ajralib turadigan tashkilotlar foydalanadi. Bundan kelib chiqadiki, zamonaviy korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyat rahbariyati o'z faoliyatini strategik boshqaruvning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Raqobatbardoshlikning ayrim parametrlarini aks ettiruvchi barcha ro'yxatlar korxonaning mahsulotlari raqobatbardoshligi konsepsiyasiga birlashtirilishi kerak. Bundan tashqari, ushbu xususiyatlarning o'zaro bog'liqligi va dialektik birligi, faqat tashkilot mutaxassislarning intellektual va dunyoviy qobiliyatlari tufayli amalga oshirilishi mumkin. Turli mutaxassislarning xodimlarining ijodiy xarajatlarisiz texnik vositalar bunday qilmaydi.

Shuning uchun faqat korporativ innovatsion faoliyat, ushbu korxonaning butun jamoasining ijodiy (ijodiy) faoliyatini aks ettiruvchi mahsulotlar tovarlar va xizmatlarning ko'plab raqobatdosh mantiqiy modellariga aylantirishi mumkin.<sup>7</sup>

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligiga uning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni, uning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslari shakllanishi sharoitlari ta'sir ko'rsatadi. Keyingi vaqtlarda tabiiy resurslarning yetariligi ko'rsatkichlari resurs tejoychi tendensiyalarning rivojlanishini taqozo etmoqda. Mehnat resurslaridan foydalanishda ularning arzon yoki qimmatligi emas, balki birinchi navbatda, ishlab chiqarish xodimlarining bilimlari, malakasi, innovatsiyaviy salohiyatning mavjudligi afzallikka ega bo'lmoqda.

Mamlakatning yuqori darajadagi ilmiy-texnik taraqqiyotini ta'minlash, korxonalarning innovatsion faoliyati natijalarini yaxshilash iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratishni, innovatsion sohani moliyalashtirishni ko'paytirishni, davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Innovatsion jarayonlar, yangi ishlanmalarni boshqarishning samarali shakl-



laridan foydalanish, raqobatbardoshlik va mahsulot sifatining o'sishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar oldiga qator vazifalar qo'yadi. Shu munosabat bilan innovatsion faoliyatni samarali boshqarish, korxonalarni rivojlantirish strategiyasini tanlash va amalga oshirish zarurati ortadi. Innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishning shakllari va usullarini takomillashtirish innovatsion faoliyatni kuchaytirishga, korxonalarni iste'molchilarning o'zgaruvchan talablariga tezda moslashtirishga va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

### **Nazorat savollari:**

1. Innovatsiya va investitsiya tushunchasiga ta'rif bering.
2. Innovatsiyalar va ularning turlari nimalardan iborat?
3. Innovatsion jarayonlar va investitsiyalar orasidagi bog'liqlik qay darajada bo'lishi kerak?
4. Korxonada innovatsion jarayonlarni boshqarish va baholashni tushuntiring.
5. Investitsion jarayon bosqichlarini aytib bering.
6. Zamonaviy sharoitda innovatsion jarayonlarning ahamiyatini tavsiflang.

## **IX BOB. MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR VA BANKLARARO RAQOBAT**

### **Reja:**

**9.1. Bank faoliyatining erkinlashuvi sharoitida banklararo raqobat kurashining zarurligi va mohiyati**

**9.2. Banklararo raqobat sharoitida tijorat banklari xizmatlarining tavsifi va ularning nazariy asoslari**

**9.3. Tijorat banklari xizmatlarining moliyaviy asoslari va uning omillari**

**9.4. O‘zbekiston tijorat banklari xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirishdagi mummolar**

**9.5. O‘zbekiston bank xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish yo‘nalishlari**

**Tayanch iboralar:** raqobat, faoliyat, tijorat banklari, bank operatsiyalari, bank xizmatlari, bank bozorlari, nobank tashkilotlar, daromad.

### **9.1. Bank faoliyatining erkinlashuvi sharoitida banklararo raqobat kurashining zarurligi va mohiyati**

Respublikamiz banklari faoliyatining rivojlanishi, uning erkinlashuvi iqtisodiy raqobat muhitini shakllantirish jarayoniga hamohang holda davom etmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat obyektiv zaruriyat bo‘lib, uning rivojlanishini ta‘minlash asosi hisoblanadi.

Raqobat iqtisodiy taraqqiyotning asosi hisoblanar ekan, banklararo raqobat ham pirovard natijada iqtisodiyotga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. “Raqobat – bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir”<sup>57</sup>. Shunday ekan, banklararo raqobat ham bozor iqtisodiyoti sharoitida obyektiv zaruriyat hisoblanadi.

<sup>57</sup> I.A.Karimov “Uzbekistan XXI asrga intilmoqda”. T. “O‘zbekiston”, 1999, 34-a.

“Raqobat – bozor iqtisodiyoti ishtirokchilarining o‘z manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun bir-biri bilan kurashi, ularning o‘zaro bellashuvidir”<sup>58</sup>. Iqtisodchi olimlarimizning yuqoridagi ta’rifidan ko‘rinib turibdiki, raqobat avvalambor o‘z manfaatini yuzaga chiqarish uchun kurashdir. Banklararo raqobat ham har bir bank tomonidan o‘z manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun, ya’ni foyda olish uchun kurashdan iboratdir. Shunday ekan, banklararo raqobat avvalambor mijoz uchun kurashdan iborat bo‘ladi. Qaysi bankning mijozlari ko‘p va obro‘li bo‘lsa, o‘sha bankning o‘z manfaatlarini yuzaga chiqarish imkoniyatlari yuqoridir.

Bugungi kunda bank faoliyatini erkinlashtirish sharoitida banklararo raqobatning kuchayishi va uning takomillashuvi zaruriyatga aylanib bormoqda. Bank faoliyatida raqobatning bir necha turi bo‘lib, har biri bankning innovatsion ehtiyojini rivojlantirishga va yangi bank xizmatlarini kiritishda o‘z hissasini qo‘shadi.

Mijoz uchun kurash va unga ta’sir etuvchi faktorlarini quyidagi chizmada ko‘rishimiz mumkin (9.1.-chizma).

Ushbu chizmadan ko‘rinib turibdiki, mijozlarni o‘ziga jalb etish banklar tomonidan ko‘rsatiladigan bank xizmatlarining ko‘lami, sifati va bahosiga uning bank va mijoz uchun samaradorligiga qo‘shimcha servis hamda reklamaga bog‘liqdir.


Bank mahsulotlarining raqobatbardoshligi haqida gap ketganda, biz uning innovatsion xarakterini tushunamiz. Mahalliy moliya bozorlarida bugungi kunda bozorning har bir qatnashchisiga katta talablar qo‘yilmoqda, talablarda raqobatning barcha turlari qo‘llaniladi. Bular quyidagilardir: 1. Funksional. 2. Ko‘rinishli. 3. Predmetli. 4. Aralash<sup>59</sup>.

Funksional raqobatning paydo bo‘lish sababi shundaki, har qanday moliyaviy xizmatga bo‘lgan ehtiyojni ko‘p yo‘llar bilan qoniqtirish mumkin. Masalan, korxonaning moddiy talablarini qondirish uchun (biznes-reja bo‘yicha) kredit, investitsiya, ssuda va zayomlar

<sup>58</sup> A. O‘lmasov, A. Vaxobov “Iqtisodiyot nazariyasi”, T. “Sharq”, 2006, 223-v.

<sup>59</sup> Усоскин В.М. Современные коммерческие банки. Управление и операции. М., 2001.

olinadi. Ba'zi xizmatlar muhim parametrlar bilan farq qiladi va ko'rinishli raqobat paydo bo'ladi. Masalan, minimal yoki maksimal depozit miqdori va muddati bilan. Mijozlarga ko'rsatiladigan bank xizmatlarining sifati asosida raqobatning predmetli ko'rinishi yuzaga keladi. Masalan, axborotni ishonchli himoyalash, bank o'zining ishonchligi, operatsiyalarning tezligi va xodimlarning tezkorligi va malakasi.




### 9.1.-chizma. Mijoz uchun kurash va unga ta'sir etuvchi omillar<sup>60</sup>.

Banklararo raqobat kurashi sharoitida raqobatbardoshlik muhim ahamiyat kasb etadi. "Raqobatbardoshlik – bu raqobatga chidamli bo'lish, unda g'olib kelish qobiliyatiga ega bo'lishdir"<sup>61</sup>.

<sup>60</sup> Muallif tomonidan chizilgan.

<sup>61</sup> A.O'lmasov, A.Vaxobov "Iqtisodiyot nazariyasi", T. "Sharq", 2006, 223-b.



**9.2.-chizma. Banklarning raqobardoshligiga ta'sir etuvchi omillar.**

Banklararo raqobat kurashida banklarning raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarni ushbu 2-chizmada ko'rish mumkin.

Bank boshqaruvi va mutaxassislar salohiyati inson faktorini tashkil etadi. Bank kapitalining yetarliligi va sifati hamda bankning likvidliligi uning barqaror faoliyatidan dalolat beradi va mijozlar ishonchiga sabab bo'ladi. Resurslar barqarorligi, aktivlar sifati ishonchli faoliyat zamiridir. Foydalilik ko'rsatkichlari bank aksionerlari ko'zlangan asosiy maqsad hisoblanadi.

Bank faoliyatida raqobatning xarakteri bozor xarakteri bilan belgilanadi. Katta shaharlarda va sanoati rivojlangan hududlarda ko'p banklar, bank bo'limlari va filiallari mavjud bo'lib, u yerda mijozlarning bozor qonuni bo'yicha raqobat rivojlanadi. Respublikamizdagi kichik shaharlarda va qishloq joylarda bank xizmatlariga bo'lgan talab asosan minibanklar va kredit uyushmalari orqali qondirilmoqda. Ammo bunday hududlarda bank infratuzilmasining rivojlanmaganligi, aloqa tizimidagi uzulishlar bank xizmatlarini to'laqonli ravishda amalga oshirilishiga to'siq bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida mijozlar tomonidan bank xizmatlari uchun to'lanadigan to'lovlarni yuqori darajada bo'lishiga olib kelmoqda.

Bizga ma'lumki, faoliyatidagi bank faoliyatidagi o'zgarishlar istalgan yo'nalish yoki omillarga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Ularga quyidagilar kiradi:

- Asosiy tarmoqdagi o'zgarish: ish faoliyatining xarakteri va darajasi, huquqiy yo'nalish, mulkchilik shakli, moliyalashtirish manbalari va shartlari, xalqaro operatsiyalar va ularning ta'siri, diversifikatsiya, birlashish, qo'shma korxonalar;

- Ish va faoliyatdagi o'zgarishlar – mahsulotning xilma-xilligi va ko'rsatiladigan xizmatlar yig'indisi, yangi bozorlar, xaridor va tovar yetkazib beruvchilar;

- Qo'llanilayotgan texnologiyalardagi o'zgarishlar – jihoz, mehnat quroli, materiallar va energiya, texnologik jarayonlar, devonxona texnikasi;

- Boshqaruv va jarayonidagi o'zgarishlar – ishni tashkil etish, ish jarayonlari, qaror qabul qilish va boshqarish jarayonlari, axborot tizimlari;

- Faoliyatni tashkil etish madaniyatidagi o'zgarishlar – qadriyatlar, an'analar, norasmiy aloqalar, asos va jarayonlar, boshqaruv uslubi;

- Kishilardagi o'zgarishlar – rahbariyat va xizmatchi xodimlar, ularning layoqati, aloqasi, xulqi va ishdagi samaradorligi;

- Faoliyatni tashkil etishdagi ish samaradorligining o'zgarishi – moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy ko'rsatkichlar, tashkilotning atrof-muhit bilan qay tarzda bog'liqligi va o'zining ishlarini bajarishi va yangi imkoniyatlardan foydalanishi;

- Tashkilotning ish doirasi va jamiyatdagi obro'sining o'zgarishi.

Raqobatning zarurligi bank faoliyatining barcha yo'nalishlarida mukammal siyosatning mavjudligini taqozo etadi.

Tijorat banklarining kredit taqdim etishdagi asosiy vazifasi – omonatchilar pullarni kimga ishonib topshirish mumkinligini hal etishdan iborat. Bu faoliyat o'ta muhim va o'ta ta'sirchan jarayon bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish sarmoya tuzilmasidagi leverajni

jiddiy oshirish imkonini beradi. Bank kreditlarni qachon, kimga va qanday shartlarda berishini aniq belgilab olishi shart.

Kredit siyosatini ishlab chiqish foyda olish va samarali ish yuritish holati saqlangan holda, bozor ehtiyojlari qondiriladigan eng yuqori xatar darajasini aniqlashni taqozo etadi. Kredit siyosati bankning o'ziga xos «kredit tili»ni yaratadi. Bu bank faoliyati yomonlashganda hamda kredit vakolatlari va majburiyatlari o'zgarganda huquqni saqlab qolish uchun katta ahamiyatga ega.

Banklararo raqobat muhitining to'liq shakllantirilmaganligi banklar tomonidan aholiga va korxonalariga ko'rsatilayotgan xizmatlarning turlari va sifatini oshirish jarayoniga salbiy ta'sir qiladi. Chunki bank tizimida monopol mavqega ega bo'lgan tijorat banklari mijozlarga ko'rsatayotgan xizmatlarining sifatini oshirish va yangi bank xizmatlari taklif etishdan manfaatdor bo'lmaydilar.

Banklararo raqobatlardan biri tijorat banklarining hisob-kitob to'lov mexanizmi faoliyatini ta'minlash hisoblanadi, chunki korxonalar orasidagi hisoblashishlarning asosiy qismi naqd pulsiz hisob-kitob orqali amalga oshiriladi. Hisob-kitob tizimlarining tashkil etilishi va ularning tijorat bankidagi samarali ta'siri texnologik hisob-kitob operatsiyalarining doimiy ravishda yaxshilanib turishiga, banklarning o'z imkoniyatlarni yanada foydali qo'llash uchun intilishlarga asoslanadi. Bank infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda bir nechta hisob-kitob tizimi mavjud. Masalan, yirik tijorat banklari ichida kliring hisob-kitob tizimi.

Imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, doimo iqtisodiy barqarorlikni boshqarish uchun, tijorat banklari mijozlarga keng miqyosli masalalar bo'yicha maslahatlar beradi. Hozirgi vaqtda banklarning mijozlar uchun iqtisodiy axborotlar yetkazib berishidagi roli yuqori darajaga ko'tarilgan.

Raqobat natijasida tijorat banklarining rivojlangan bosqichdagi faoliyat doirasida universallashtirish an'anasi kuzatilmoqda. Bank faoliyati samaradorligini yanada oshirish uchun iqtisodiy rivojlangan

mamlakatlardagi bank qonunchiligi raqobatni taraqqiy ettirgan holda turli kredit tashkilotlar faoliyatiga teng sharoitlar yaratmoqda. Yuqoridagi an'ana asosida banklarning mijozlar bilan o'zaro aloqalari o'zgartirilmoqda, yangi yo'nalishdagi bank ishini rivojlantirish tashkil qilinmoqda. Bu mijozlarga taklif etilayotgan xizmatlarning o'sishida ko'rinibgina qolmay, balki tarmoq operatsiyalari sifatining o'zgari-shida, ssuda, omonat operatsiyalari bo'yicha to'lov miqdorining kama-yishida va qimmatli qog'ozlar operatsiyalar hajmining oshishida namo-yon bo'ladi.

Raqobat banklarni tezlik bilan ularning asosiy operatsiyalarini to'ldiruvchi noan'anaviy moliyaviy xizmatlar turini rivojlantirishga olib keladi. Bu yerda moliyaviy lizing operatsiyalarida banklarning (to'gri yoki maxsus filiallar orqali) ko'chmas mulklarni garovga qo'yib kreditlash, debitor qarzlarini sotib olish (faktoring), kafolatli amaliyot-lar va hokozolar nazarda tutilmoqda. Bu ko'pchilik banklarga raqobat bosimini susaytirishga va ma'lum darajada yo'qotilgan an'anaviy bozorlarni qoplashga va foizli marjalarning qisqarishiga yo'l ochib beradi.

Bundan tashqari, banklar avval hech ham tadbiiq etilmagan va hozirgi kungacha bank faoliyatida umuman tushuncha bo'lmagan yangi yo'nalishlar – kreditlarni sug'urtalash, turizm va ko'ngilochar soha-larida to'lov kartochkalarini chiqarish, informatsion xizmat ko'rsatish (valyuta bozoridagi holat, qimmatli qog'ozlar emissiyasi va hokozolar bilan ta'minlash) bilan shug'ullanishga intilmoqda. Bankning yutug'i, ularning ko'rsatayotgan moliyaviy xizmatlarining qay darajada jamiyat talabiga javob berishi, ularning narx munosabatlarida qanchalik sifatli va raqobatbardoshligiga bog'liq.

Shunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida banklararo raqobat bo'lishi muqarrar va u bank faoliyatining erkinlashuvi, islohotlarning chuqurlashuvi bilan mutanosib ravishda rivojlanib boradi. Banklararo raqobat kurashi bank xizmatlari ko'laminining kengayib borishiga,



xizmat narxlarining optimallashtirishiga va bank faoliyatini boshqarishning takomillashuviga olib keladigan muhim ahamiyat kasb etadi.

## **9.2. Banklararo raqobat sharoitida tijorat banklari xizmatlarining tavsifi va ularning nazariy asoslari**

Bugun O'zbekistondagi ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o'tkazilayotgan tub o'zgarishlar o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi. O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridagi qayta qurishlar munosabati bilan moliyaviy tuzilmalar va eng avvalo, mamlakatimizning mashina va uskunalarni milliy parkini jahon andozalari darajasidagi yangi texnika bilan ta'minlash uchun investitsiya mablag'lari ajratayotgan moliya institutlari oldiga katta vazifalar qo'yilmoqda. Bu vazifani moliyalashning faqat an'anaviy usuli – bank krediti va boshqa kreditlarga tayangan holda muvaffaqiyatli va jadal sur'atlarda hal etib bo'lmaydi.

Barcha tijorat banklarining bajaradigan operatsiyalari deyarli bir xildir. Banklarning bugungi kundagi ko'rsatayotgan xizmatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning soni yanada oshganini ko'rishimiz mumkin.

2017-yilda tijorat banklari o'z faoliyatini valyuta siyosatining liberallashtirilishi, Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining qat'iyalashtirilishi va bank nazorati talablarining yanada kuchaytirilishi, tijorat banklariga, ayniqsa, davlat ulushiga ega banklarga Hukumat tomonidan iqtisodiyotni kreditlash bo'yicha vazifa va talablarning kuchaytirilishi bank tizimining rivojlanish ko'rsatkichlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

So'ngi yillarda tijorat banklari umumiy kapitali 2,3 barobarga, jami aktivlari 2,0 barobarga, shu jumladan, kredit qo'yilmalari hajmi 2,1 barobarga hamda jami majburiyatlari 1,9 barobarga, shu jumladan, jalb qilingan depozitlar hajmi 1,6 barobarga oshdi. Mazkur yuqori o'sish ko'rsatkichlarining shakllanishiga milliy valyuta almashuv kursining

keskin pasayishi jiddiy ta'sir qilgan bo'lsa-da, bank tizimi o'sish ko'rsatkichlarining real hisobda ham yuqori bo'lishi banklar moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qildi<sup>62</sup>.

Respublika iqtisodiyotining barqaror o'sib borishi bilan mos ravishda mamlakat bank tizimi infratuzilmasi ham muntazam rivojlanib bormoqda.

Tijorat banklari soni 2022-yilning 1-yanvar holatiga 33 taga yetdi. Shundan 13 tasi davlat ulushiga ega banklar, 20 tasi chet el kapitali va xususiy kapitalga ega tijorat banklari hisoblanadi.

Shu bilan birga, respublikamizdagi tijorat banklari bilan keng qamrovli va o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida mamlakatimizda xorijiy yirik banklarning 6 ta vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda.

Bu esa o'z navbatida, respublikamizda nafaqat bank infratuzilmasining kengayib borishiga, balki ular o'rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmat turlari sifati va ko'lamining oshishiga ham xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar mustaqillik yillarida O'zbekiston banklari o'z xizmatlarini yetarli darajada shakllantirishga erishganligidan darak beradi. Biroq, banklar o'rtasidagi raqobat kurashi ularni qo'shimcha mijozlar jalb etish hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasi va sifatini kengaytirish uchun yangicha yondashishga undamoqda.

Tijorat banklari xizmatlarining iqtisodiy mazmuniga va ko'zlangan maqsadiga ko'ra ikki yirik guruhga bo'lish mumkin:

1. Ma'lum darajada bankning likvidligini saqlab turish uchun bajariladigan xizmatlar.

2. Daromad olish maqsadida bajariladigan xizmatlar. Ushbu ikki xizmatlar guruhi o'rtasida ma'lum nisbat mavjud bo'lib, u bank faoliyatini sifat jihatdan ma'lum darajada ta'minlab turish imkonini beradi. Bank likvidligini ta'minlash maqsadida bajariladigan xizmatlarning ba'zi birlari bankka daromad keltirsada, ular mavjudligining

---

<sup>62</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021-yildagi faoliyati to'g'risida hisobot.

sababi bank umumiy likvidligini ma'lum darajada ushlab turishdan iboratdir.

Bugungi kunda Respublikamiz tijorat banklari tomonidan mijozlarga 250 dan ortiq bank xizmat turlari taklif etilgan. Tijorat banklari yangi turdagi bank xizmatlarini yo'lga qo'yish orqali korxonalar tashkilotlarga qulayliklar yaratmoqda.

Shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, bozor munosabatlari sharoitida Markaziy bank tijorat banklarining likvidlik darajasi yuqori o'rganilgan talab darajasida bo'lishini nazorat qiladi, ammo bizning fikrimizcha, xizmatlarning daromadlilikiga ham e'tibor berish zarur.

Bundan tashqari, bank xizmatlari yuqori daromad olishni emas, balki uning mijozlar oldidagi, qolaversa, jamiyat oldidagi reputatsiyasini yanada oshirish maqsadida amalga oshirilishi ham mumkin.

Bank xizmatlari bank daromadlarini oshirishga, xususiy va korporativ banklar, hamda iqtisodiyotning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bank tadbirkorligining an'anaviy sohasi bo'lib hisoblanadi.

Bank xizmati – bank operatsiyalarini o'tkazishni optimallashtiruvchi nazariy, texnologik, moliyaviy, intellektual va professional bank faoliyatidir.

Bank xizmati haqiqatdan ham bank faoliyati majmuasidir. Mijozlarning bank faoliyatiga bo'lgan talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlardir. Shu bilan bir qatorda biz bank xizmati tushunchasiga bank operatsiyalarini optimallashtiruvini ham muhim element sifatida kiritdik, chunki banklar xizmatning u yoki bu turini tanlashda ushbu operatsiyaning samaradorligi, qulayligi va sifatlilik darajasiga e'tibor berishlari va ushbu ko'rsatkichlar uning raqobatbardoshligini ta'minlash asosi hisoblanishini his etmoqlari lozim.

Bank operatsiyasi – bank tomonidan amalga oshiriluvchi pul mablag'larini joylashishini nazarda tutuvchi va aniq iqtisodiy masalani yechishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan bank va mijoz harakatlari majmui<sup>63</sup>.

---

<sup>63</sup> Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2009. – 352 стр.

Bank xizmatlari bozori – mijozlar talabini qondirishga qaratilgan bank xizmati talabi va taklifining shakllanish sohasi.

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan shu narsani sezish mumkinki, bank xizmatlari va operatsiyalari o'rtasidagi farq asosan uning foyda olish va o'z mavqeini yanada mustahkamlashga qaratilgan.

9.1.-jadval

**Zamonaviy adabiyotlarda «Operatsiya» va «Xizmat»  
tushunchalarining farqlanishi<sup>64</sup>**

Xizmat	Operatsiya
<p>Boshqaga foyda keltiradigan harakat. Nafaqalar va boshqa ijtimoiy yordamlar. Moddiy tabiatni o'zgarishi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan mehnatning barcha turlari. Bu narsalar iste'moliga xizmat ko'rsatish vositasida aholining har hil individual talablarini qondirishga qaratilgan mehnat turlari. Yangidan mavjud bo'lmagan mahsulot yaratilmaydigan, lekin mavjud mahsulot sifati o'zgaradigan jarayonni amalga oshiruvchi ishlar, faoliyat turlari. Bu ashyolar ko'rinishida emas, balki faoliyat xizmatlar ko'rinishida taklif etiluvchi ne'matdir.</p>	<p>O'zi kabilar bilan bir qatorda alohida harakat. Bir maqsadda birlashtirilgan harakatlar majmui. Mijozlar hisobidan va topshirig'iga asosan bajariladigan huquqiy, komission operatsiyalar. Pul mablag'larini jalb qilish va joylashtirish operatsiyalari. Bir iqtisodiy masalani yechishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan bank faoliyati. Ko'zlangan maqsadni amalga oshirish bilan bog'liq harakat.</p>

Tijorat xizmatlarining namunaviy portfeli vakillik munosabatlar, risklarni boshqarish, mijozlarning tashqi iqtisodiy faoliyatiga xizmat ko'rsatish sohalarida vakil banklar hisobidagi mablag'lar qoldig'i tufayli universal banklarni bank xizmatlari bozorida yuqori mavqeyini egallashlariga va daromadini oshirishga imkon berishi aniqlandi.

Tijorat banklari xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari: mijozlarga tijorat bank xizmatlarini ko'rsatish, bo'sh mablag'larni

<sup>64</sup> Lending / Chartered Institute of Bankers. - London: BPP Publishing, 2003. ISBN 0-7517-1015-p

daromadlilik darajasi turlicha investitsion portfellarga investitsiyalash, bankni moliyaviy dallol sifatidagi rolini saqlab qolish, investitsion portfelni operativ boshqarish, qimmatli qog'ozlarni saqlash bo'yicha xizmat ko'rsatish: nostabil iqtisodiy muhit moliyaviy bozorlarning noqat'iyiligi, raqobatning kuchayishi, risk darajasini o'sishi korxonalar va tashkilotlarni harakatga keltiradi, hamda banklarni moliyaviy stabillikka erishishiga, daromad topishga bozorda o'z faoliyatini kengaytirishga erishishga imkon beradi.

Banklarning bunday xizmatlariga so'ngi yillarga kengayib borayotgan, lekin banklarga to'liq bog'liq bo'lmagan faoliyat turiga tijorat banklarining to'lanmay qolgan qarzlari tufayli ularning balansiga o'tkazilgan bankrot korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish borasidagi faoliyati yuksak baholashga molikdir. Bu maqsadga erishishda tijorat banklariga korxonalarining ishlab chiqarishlarini boshqarish uslublari hamda vositalarini takomillashtira borishga, ya'ni aktiv va passivlarini boshqarishga alohida rol ajratilmoqda.

Bank xizmatlarini (aktiv va passivlarini) boshqarish bankning faoliyat turlarini emas, balki uning maqsadi, mafkurasi va strategiyasini ta'rif-tavsif qiluvchi konsepsiyani qabul qilish bilan boshlanishi lozim.


Bu esa bank boshqaruvida yangi-yangi vazifalar degani.

Bank xizmatlarini boshqarish funksiyalari iqtisodiy adabiyotlarda bir nechta deb ko'rsatiladi. Ularning asosiylari quyidagilar<sup>65</sup>:

- bozorni umumlashgan holda o'rganish va istiqbolini belgilash hamda unga bo'lgan talabni, bankka tashqi muhitning ta'sirini o'rganishdan iboratdir;

---

<sup>65</sup> Ларионова И.В. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. –М.: «Консалтбанкир» 2003.



### 9.3.-chizma. Bank xizmatlarini boshqarish funksiyalari.<sup>66</sup>

- bankning ishlab chiqarish (iqtisodiy kredit) potensialini, barcha qobiliyatini real baholash;

- uzoq muddatli xizmatlarini (aktiv va passivlarini) boshqarish strategiyasini bozor talablarini hamda o'z potensialini hisobga olgan holda rejalashtirish;

- talab asosida yangi xizmatlarni joriy qilish va ularni sotish;

- bankning aktiv va passivlarini boshqarish faoliyatini tashkil qilish va uning ustidan doimiy nazorat o'rnatishdir

Hozirda, respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha tijorat banklari «Fitch Reytings», «Mudis» va «Standart end Purs» kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklarining «barqaror» reytingiga ega bo'ldi.

Hozirda tijorat banklari tomonidan mijozlarga 400 dan ziyod omonat turlari taklif etilmoqda. Ularning 100 dan ortig'i xorijiy valyutada joriy qilingan bo'lib, AQSH dollari, Yevro va Angliyaning

<sup>66</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

funt sterling valyutalarida omonatlar jalb qilinyapti. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilgan ishlar samarasini Baholash tizimida qayd etilgan "depozitlar hajmining o'zgarishi", "kredit qo'yilmalari hajmining o'zgarishi", "aholi omonatlari hajmining o'zgarishi" va "uzoq muddatli kreditlar ulushi" indikatorlarida ham ko'rish mumkin.

Bank operatsiyalarini va xizmatlarini boshqarish quyidagi vazifalarni hal qilishga e'tiborini qaratadi.

➤ Bank operatsiyalarini amal qilayotgan va potensial bozorlarini o'rnatish.

➤ Konkret bozorlarni tanlash va buyurtmachi ehtiyojini qo'yish

➤ Amal qilayotgan operatsiyalarning rivojlantirilishi uchun uzoq va qisqa muddatli maqsadlarni belgilash

➤ Amaliyotga yangi operatsiyalarning turlarini qo'llash va uning bajarilishi ustidan bank nazoratini o'rnatish

Bank operatsiyalari va ularning potensial iste'molchilar bozorini o'rganish uchun banklar sanoat aktiv va passivlarini boshqarishning an'anaviy usullaridan biri bo'lgan tipologizatsiya va segmentatsiya usullaridan foydalanadilar.

Bank bozor segmentatsiyasini ikki tamoyilga ko'ra amalga oshirish mumkin.

➤ Bank mahsulotlari bo'yicha (kredit operatsiyalari, investitsiya, trust operatsiyalari bozorlari )

➤ Mijozlar bo'yicha (ko'chmas mulk egalari, korporatsiya bozori, davlat hukumati bozori )

Bozorlarni alohida segmentlash bo'yicha bo'lishni mohiyati shuki, bozorning barcha kuchini sohib yuborish emas, balki alohida segmentlarga mo'ljal olishdir. Bozor segmenti alohida olingan gruppning bir xil turdagi operatsiyalarga bo'lgan talabi va uni to'lashga tayyorgarligini bildiradi. Banklar bozorlarni segmentlashi quyidagilarga asoslanadi:

➤ Bozor segmenti alohida aniq tasvirlanishi shart

➤ Olingan barcha ma'lumotlar tahlil uchun yetarli bo'lishi shart

- Olingan segmentlar bankka foyda keltirishi shart
- Tanlab olingan segmentlarda reklama qilish imkoniyati bo'lishi kerak v. b.

Jahon bank tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, MDH mamlakatlari bank tizimiga ham tobora ko'proq ta'sir ko'rsatayotir. Bular birinchidan, bu o'zgarishlar to'lovlarning yangi integratsiya vositalarini yuqori sur'atlar bilan shakllantiradigan bank operatsiyalarini kompyuterlashtirishning texnologik inqilobi bilan bog'liq. Bu jarayonlar talaygina moliyaviy xarajatlar talab qiladi, bank ishi qimmatlashadi, biroq uning samaradorligi va uning tezkorligi oshadi, bu esa xarajatlar o'sishini qoplaydi.

Ikkinchidan, bank ishida o'sib borayotgan raqobat banklarning qo'shilib ketishiga olib keladi. Bu esa sarmoyalar bozorida va iqtisodning investitsiyalar sohasida yangi sharoitlarni vujudga keltiradi. O'zbekistonning bank tizimi unga kam quvvatli talay banklar kirganligi sababli, yaqin vaqt ichida bu tamoyilning ta'sirini boshdan kechiradi. Bu hodisaga respublika bank xizmati bozorida anchagina raqobatbardosh va samarali bo'lgan chet el banklarining paydo bo'lishi ham yordam beradi.

Uchinchidan, bu an'anaviy bank xizmatlari bozoriga tobora shaxdam odimlar bilan kirib kelayotgan bankdan tashqari tuzilmalar bilan raqobatning kuchayishi. Jumladan, aholiga kredit kartochkalari bilan xizmat ko'rsatish sohasida turli xildagi tijorat tuzilmalari faoliyat ko'rsata boshlaydilar.

To'rtinchidan, bank ishlariga bu xizmatlarning ko'p sonli iste'molchilari ta'siri ortadi. Iste'molchi operatsiyalarining tezligi va sifati, hisob-kitoblarning qulayligi, mijozlarning ehtiyojlariga diqqat e'tibor qaratilishiga nisbatan banklarga tobora qattik talablar qo'ya boshlaydi. Bu ikki omilning o'zaro uyg'unligi kreditlash hajmlarining o'sishi uchun sharoit yaratadi. Biroq bu boshqarilmaslik g'oyasining



kuchayishi bilan xavf-xatar va kompensatsiya o'rtasidagi muvozanatsizlik ortadi. Shuning uchun ham bank tizimini rivojlantirish va boshqarishga nisbatan samarali siyosat olib borish zarur.

### **9.3. Tijorat banklari xizmatlarining moliyaviy asoslari va uning omillari**

Mahalliy bank muassasalarida moliyaviy muammolarning vujudga kelishi moliyaviy bozordagi barcha ishtirokchilar manfaatlariga ta'sir qiladi. Tijorat bankining barqaror moliyaviy foyda ko'rib ishlashida nafaqat uning aksionerlari va xizmatchilari, balki bank bilan bog'liq institutlar va shaxslar ham manfaatdordirlar. Bu unga ishonib topshirilgan pul mablag'larini yo'qotish xavfi tug'ilgan mijozlari, hamkor banklar, har bir bankning va butun bank tizimi faoliyatining bir me'yorda borishini ta'minlashga mas'ul bo'lgan Markaziy Bank, jamiyat a'zolarining manfaatlarini himoya qiluvchi hukumat organlari shular jumlasidandir.

Tijorat banki xizmatlarini ta'minlashning moliyaviy asosi hisoblanuvchi moliyaviy foydani turli yo'nalishlar bo'yicha boshqarish mumkin, ammo bunda olinadigan bank daromadini o'sishini ta'minlash va uning xarajatlarini imkon qadar qisqartirish bankning asosiy maqsadi bo'ladi.

Joriy foyda miqdori va bank faoliyatini tashkil qilinishiga bog'liq omillar bank xizmatlari majmuini ta'minlashning moliyaviy asoslariga ta'sir etadi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin<sup>67</sup>:

1. Bank rahbarlarining malakasi. Bu tijorat bankining moliyaviy holati va operatsion foyliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirilishigagina ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki umumiy muvaffaqiyatga erishishlariga bog'liq bo'lgan hamkasblari butun jamoasi faoliyatini to'g'ri tashkil qilish bilimlariga ta'sir qiladi.

<sup>67</sup> Роуз П.С. Банковский менеджмент. М., 2003

2. Ko'rsatilayotgan bank xizmatlari raqobatbardoshligi darajasi foyda olish jarayonini tezlatib, yangi mijozlarni jalb etadi, shuningdek, xizmat ko'rsatish jarayonida olinadigan foyda ulushini oshirish maqsadida ma'lum bir baho siyosatini o'tkazish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatadi.

3. Bank faoliyati va mehnatni tashkil qilish darajasi mavjud moddiy va mehnat resurslaridan ratsional foydalanishga, keyinchalik foydalanish nuqtai nazaridan nisbatan samarali bo'lgan resurslarni jalb qilishga yordam beradi.

4. Bank faoliyatini moliyaviy rejalashtirishning holati va samaradorligiga mehnat jarayonlarini joriy boshqaruvidagi xatolardan qochishga, moliyaviy yo'qotishlar riskini kamaytirishga imkon beradi, to'g'ri strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi, iqtisodiy barqarorlikni, bank faoliyatining istiqbolli o'sishi va rivojlanishi ta'minlaydi.

Sanab o'tilgan omillarni hisobga olgan holda bank rahbarlari bank faoliyatini shunday tashkil qilishga harakat qilishadiki, bunda olinadigan natija xizmat ko'rsatish xarajatlarini qoplashi va oxirgi natijada rejalashtirilgan foyda hajmi shakllanishi zarur.

Bank xizmatlarini ta'minlashning moliyaviy asosi sifatida amaliyotda moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichi – moliyaviy foyda va uning hajmi qabul qilingan. Moliyaviy foyda tanlangan faoliyat sohasini tashkil qilish darajasi ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.

Samaradorlik darajasining yuqoriligi bank boshqaruvining ijobiy tavsifi bo'lib xizmat qiladi va imij yaratishga imkon beradi. Moliyaviy foyda nafaqat ijobiy moliyaviy natija ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi, balki bank kredit resurslarini oshirishning moliyaviy manbalaridan biri hamdir.

Tijorat banklari tadbirkorlik tuzilmalarining o'ziga xos shakli sifatida alohida o'rin egallaydi. Ular resurslarning o'ziga xos turi – moliyaviy resurslar bilan muomalalarini amalga oshiradilar. Bankda asosiy resurslar bo'lib pul mablag'lari hisoblanadi. Ular moliyaviy bozorda qo'lga kiritiladi va keyinchalik joylashtirish uchun boshlang'ich manba sifatida ishlatiladi, shuningdek, shunga yarasha foyda

olishni ko'zda tutadi. Banklarning yana bir ahamiyatli bo'lgan ajralib turuvchi sifatlaridan biri, foydalanilayotgan resurslar umumiy qiymatida o'z mablag'larining ulushini u darajada katta emasligi. U taxminan 10%ni tashkil qiladi.

Bank xizmatlarini ta'minlashning moliyaviy asoslari sifatida shuningdek bank moliyaviy menejmenti boshqaruv qarorlari tizimi tushuniladi. Bu tizim makro va mikro darajada maqsadlarga erishish uchun kredit resurslari harakatini o'z vaqtida va uzluksiz yuz berishini ta'minlovchi chora-tadbirlar yig'indisidir. Bunda turli darajadagi o'zaro bog'liq maqsadlar birlashtiriladi.

Bankdagi menejment sifat darajasi bo'yicha ikkita kategoriyaga bo'linadi.<sup>68</sup>

1. Bank faoliyatini samarali bo'lishiga imkon beruvchi va tashqi omillar hamda ichki omillarning salbiy ta'siriga qarshi tura oluvchi sifatli boshqaruv-menejment;

2. Birinchi kategoriyaga qarama-qarshi bo'lgan jiddiy zararlar bilan bog'liq va oxir-oqibat bankni inqirozga olib keluvchi sifatsiz boshqaruv-menejment. Bank inqirozi tahlili shuni ko'rsatadiki, bank inqirozga birdaniga uchramay, balki sekin-astalik bilan menejmentning ma'lum bir bosqichlarini bosib o'tib keladi.

Bank menejmenti atrofidagi muhit ta'sirida (jarayonlar, tashkiliy tuzilmalar, xususiy shaxslar) bo'ladi. Lekin, menejment darajasi o'z navbatida bank tizimining holatiga va mamlakatdagi iqtisodiy holatga, butun jamiyat manfaatlariga ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun amaliyotga tadbiriq etiluvchi bank menejmentini baholash muammosi mavjud. Ushbu maqsadga erishish yo'lida turli reyting tizimlari yoki bank samaradorligini xarakterlovchi ko'rsatkichlarning ma'lum bir to'plamidan foydalaniladi.

<sup>68</sup> Роуз П.С. Банковский менеджмент. М., 2003

Tijorat bankining daromadlarining doimo o'sishi bankning stabil o'sishiga intilayotganidan, ko'p hollarda bankni o'rab turuvchi muhitdagi imidjini sezilarli orttiruvchi, menejmentning to'g'ri yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi.

Zamonaviy tijorat banki uchun uning faoliyatining har xil turlaridan daromad olish xarakterlidir. Bu faoliyat unga xos kreditlashtirish, o'z mijozlarlarining hisobvaraqlarini yuritish kabi an'anaviy operatsiyalar kabi yangi operatsiyalar (lizing, faktoring, brokerlik xizmatlari, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar)da namoyon bo'ladi.

Mijozlarga xizmat ko'rsatishdan olinadigan foizsiz daromadlar (hisobvarag'ini ochish uchun to'lov va boshqa daromadlar) o'z mohiyatiga ko'ra qoplovchi daromadlardir. Ular ishlab chiqarish xarajatlariga va operatsiya sifatiga mos kelishi zarur. Shuning uchun, bank menejmentining bu guruhdagi daromadlarni o'zgarishiga ikki omil bo'yicha (hajmli va baholi) yondashish turlichadir. Shunday qilib, agar bu guruh daromadlarining o'sishi taklif etilayotgan bank xizmatlari doirasining kengayishiga, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatining ortishiga bog'liq bo'lsa, unda daromadlilikni orttirishning bu yo'nalishiga ijobiy holat sifatida qarash mumkin. Bunda bankning bozordagi holati ham kam ahamiyatli emas. Agar bu yuqori mavqega ega bank bo'lsa, unda xizmatlar uchun yuqori baholarning yuqori darajada ekanligi mijozlarni odatdagidek, qo'rqitmay, aksincha jalb qiladi. Ular bunda yuqori to'lovlarni to'lagan holda, shunga mos sifatli bank xizmatlarini ko'zda tutishadi. Lekin, boshqa tomondan, to'lovlari past darajada bo'lgan raqobatni ham hisobga olish zarur. Bu shu bankning ham to'lovlariga ta'sir qilishi mumkin. Bunday bog'liqlik har doim ham birdek ta'sir ko'rsatavermaydi, chunki bank ishida mijozning ishonchli, bitta bank xizmatlaridan foydalanish odati, raqobatchi bankning past narxlarining jalb qilishidan ko'ra kuchliroqdir.

Ular bank xizmatlari doirasini kengayishiga va ularning diversifikatsiyalashuvini saqlab turishiga yordam beradi. Bu esa kredit bozorida qattiq raqobat sharoitida muhimdir. Ulardan foydalanish bilan

bank va mijoz o'zaro hamkorligi rivojlanadi, mijozlarning bankka bo'lgan ishonchi ortadi. Bularning hammasi ushbu xizmat turlarini keyinchalik rivojlantirishni tavsiya etadi. Bank menejmenti bu daromadlar guruhini maksimallashtirishga erishishni ko'zda tutadi. Daromadning ba'zi turlari ularning miqdor ko'rsatkichlari nuqtai nazaridan bank uchun aytarli muhim emas. Bunga moliyaviy sanksiyalar, yo'qotilgan kreditlar qaytarilishi kabilar tarkibiga kiruvchi boshqa daromadlar guruhi kiradi. Bank boshqaruvi odatda, bunday daromadlarni kamaytirishni oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shuningdek, ularni qo'llanilishi, ayniqsa, sanksiyalar, mijozlarning salbiy munosabatiga olib keladi, ularni miqdorini ortishi bank obro'siga putur yetkazadi. Shuning uchun sanksiyalar siyosati juda ham ehtiyotkorlik va o'ylab ishlab chiqilishi lozim.

Bank daromadlarining miqdor ko'rsatkichlari sifat ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. Daromadlarni ularning sifat darajasi bo'yicha 3 guruhga ajratilishi (adekvat, tasodifiy va avantiyur) ularni ma'lum bir guruh tarkibiga aniq daromadlarning har xil turlar bo'yicha shakllantirishga imkon bermaydi. Masalan, bankning shartnoma munosabatlarini buzish, ya'ni "qaltis" (avantiyur) daromad olish maqsadida o'z hamkorlarini aldash evaziga oshiriladi. Shunday qilib, past sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan holda miqdor ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi menejment ko'rsatkichi bo'lib hisoblansa-da, hajmi kam bo'lgan yuqori sifatli daromad manbalari qat'iy, rivojlanayotgan, stabil obro'ga ega banklarga xosdir.

Bank tomonidan qilingan xarajatlar hajmi ham bankning daromad olishda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy xizmatlar shaklidagi ishlab chiqarish jarayoni mohiyatiga ko'ra, bank resurslarini tashkil qiluvchi o'z kapitali va bank tomonidan jalb qilingan mablag'larni daromadli aktivlarga aylanishini namoyon qiladi. Qilingan xarajatlarning samarali bo'lishi bu jarayonni amalga oshirishning eng ma'qul yo'lidir. Bu esa qilingan xarajatlarni doimiy nazorat qilish va tahlil qilishni muhimligini keltirib chiqaradi. Chunki xarajatlarni ratsional ravishda kamaytirish

yo'li bilan bank faoliyatining samaradorligini oshirishga erishish mumkin. Bank menejmentini uning kelajakdagi daromadlarining o'sishiga ma'lum bir yo'naltirilganidan farqli o'laroq, xarajatlar bilan bog'liq masalalar yechimida u darajada qat'iy emas. Bu yerda uning optimallashtiruviga erishish zarur. Ya'ni ularning shunday darajasini va ularning o'zgarishini ta'minlash lozimki, bu ularga tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadiga – foyda olishga erishishlariga imkon yaratishi kerak. Shuning uchun, bank xarajatlari boshqaruvida ularning ma'lum bir ratsionalligi hisobga olinishi zarur.

Bankning foizli xarajatlari ko'pincha muhitning ta'siri ostida bo'ladi. Misol sifatida hozirgi davrdagi qiyinchiliklarni keltirish mumkin, ya'ni ular umumiy moliyaviy, bank, xususiy, krizis sharoitida yangi depozitlarni jalb qilish bilan bog'liq qiyinchiliklar. Kredit tashkilotlariga nisbatan mijozlarning ishonchini yo'qolishi bilan banklar o'z resurslar bazasini kengaytirish uchun ma'lum bir siyosatni ishlab chiqishi zarurki, bunda asosiy yo'nalish – bankni potensial mijozlar bilan munosabatlarini jalb qiluvchi tomonlarini ishlab chiqishdir. Bu maqsadda mijozlar uchun ma'qul bo'ladigan foiz stavkalari taklif qilinadi, shuningdek, qo'shimcha xizmatlar ishlab chiqiladi va taklif qilinadi. Albatta, bunday siyosat olib borish bilan qisqa davr ichida daromad olishni imkoni yo'q, lekin keyinchalik daromadlarning ortishini nazarda tutadi.

Bank ishining daromadli, samarali bo'lishiga qiziqish, uning faoliyatini haqiqiy baholashga imkon beruvchi ko'rsatkichlarni aniqlashni talab qiladi. Ko'p hollarda bank faoliyatining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib, bozordagi bozor kursini o'rnatish yo'li bilan aniqlanuvchi, bank aksiyalarining qiymati hisoblanadi. Biroq, bank aksiyalarining bozordagi aylanishi u darajada yuqori emasligi, bank faoliyati samaradorligi haqida to'liq tasavvur bermaydi. Shuning uchun, bank amaliyotida har biri bank faoliyatining ma'lum bir yo'nalishining indikatorini bo'lib xizmat qiluvchi, foydaning nisbiy ko'rsatkichlaridan foydalanish eng ma'qul yo'llardan biri hisoblanadi.

Bank faoliyati samaradorligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib, kapital rentabelligi xizmat qiladi. Bu investorlarga bank kapitaliga qo'yilgan o'z mablag'laridan olingan sof foyda hajmi haqida ma'lumot beradi va shu bilan bir vaqtda foyda olish maqsadida bank sohasidagi qo'yilmalarining risk darajasini o'zida namoyon qiladi. Bu ko'rsatkichning ahamiyatli tomoni shundaki, u foyda olish uchun mavjud aktivlardan foydalanish masalasini bankning boshqaruvi muammoni qay darajada samarali yecha olishini xarakterlaydi<sup>69</sup>.

#### **9.4. O'zbekiston tijorat banklari xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirishdagi mummolar**

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy bank tizimi xalqaro bank amaliyoti an'analarga mos ravishda shakllantirilgan. U mamlakat milliy iqtisodiyoti faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Chunki, bank tizimi vositasida pul kapitalining tarmoqlararo taqsimoti amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi mustaqillikka erishgandan so'ng shakllantirildi. Ushbu jarayonning ajralib turuvchi ahamiyatli tomoni shundan iboratki, unda tijorat banklarining paydo bo'lishi bilan birga turli mulkchilik shaklida tashkil etilganligi o'ziga xos xususiyatga ega. Jumladan, tijorat banklari kapitalining shakllantirishga ustuvor ahamiyat berilayotgan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mamlakatimizda bank kapitalining boshlang'ich jang'arilishi jarayonida byudjet mablag'lari, markazlashtirilgan ssudalar, davlat kafolatlari, hukumat dasturlari orqali moliyalashtirish kabi arzon resurslar manba bo'lib xizmat qilgan.

Bugungi kundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan milliy bank tizimidagi islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri, bank xizmatlari sifati va madaniyatini yuksaltirgan holda tijorat banklari va

<sup>69</sup> Ахмеджанов Х. «Развитие банковских структур в условиях либерализации экономики», Десятнадцатые международные Плехановские чтения, тезисы докладов, Т., 2.02.2006 г.

mijozlar o'rtasidagi munosabatlarni «bank mijoz uchun» tamoyili asosida tashkil etilganligidir.

Iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish masalalarini ijobiy hal etish mamlakatimiz bank tizimi faoliyatini samarali tashkil etilgani va uni kapitallashuv darajasiga bog'liq ekan, yuqori darajada kapitallash-tirilgan samarali faoliyat yurituvchi tijorat banklari barqaror o'sish omilidir. Bank faoliyatini samarali tashkil etilishida bank marketing-ining ahamiyati muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda keyingi yillarda tijorat banklarida marketingni rivojlantirishga e'tibor kuchay-tirildi. Deyarli barcha tijorat banklarida marketing boshqarmalari va bo'limlari tashkil etildi. Ushbu xizmatlar tomonidan bankning faoliya-tini rivojlantirishni marketing dasturlari ishlab chiqildi va amaliyotga kiritilmoqda.

Hozirda mamlakatimizda bank tizimini isloh qilish iqtisodiy islohotlarning muhim, ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilan-ganligi tufayli respublikamiz iqtisodiyotining boshqa tarmoqlarida bo'lgani kabi, bank – moliya tizimida ham sezilarli ijobiy natijalarga erishildi. Lekin, shu bilan birga, bozor munosabatlarining tobora takomillashib borayotganligi barobarida, bank – moliya tizimida sog'lom raqobat muhitini kuchayishi, o'z navbatida, bu sohada olib borilayotgan islohotlarning yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish, shuningdek, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish hamda investitsion jarayonlardagi ishtirokini faollashtirishni taqazo etmoqda.

Milliy bank tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklarida yangi bank xizmatlari turlarini yaratish, ularni amaliyotga kiritish, mavjud bank xizmat turlarining sifat darajasini oshirishga to'siq bo'layotgan ayrim muammolar mavjudligiga ishonch hosil qilish mumkin. Bu muammolarni guruhlariga ajratish mumkin:

1. Tijorat banklarida bank xizmatlari bozorini segmentlashda tajribani yetishmasligi;

2. Tijorat banklari va mijozlar o'rtasidagi kommunikatsiyaning ayrim hududlarda «uzilib» qolganligi;



3. Zamonaviy bank xizmatlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga kiritish uchun zarur infratuzilmaning yetishmasligi;

4. Tijorat banklarida bank xizmatlarini ko'rsatishda asosiy e'tiborni baho siyosatiga qaratilayotganligi.

Tijorat banklarida bank xizmatlari bozorining segmentlashda tajribani yetishmasligi muammosi. Tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, mamlakatimizdagi aksariyat banklarida asosiy e'tibor tajribadan o'tgan va qaltisligi kam bo'lgan bank xizmatlariga ajratiladi. Masalan, deyarli barcha tijorat banklari asosan qisqa muddatli iste'mol kreditlari bilan cheklanishgan. Bank xizmatlari bozorida mohiyatan yangi hisoblangan faktoring va lizing operatsiyalariga umuman e'tibor qaratilmagan. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari o'zlarining marketing faoliyatini ishlab chiqishda ichki tashabbusdan emas, yuqoridan keladigan topshiriqlarga asosiy e'tiborni qaratmoqdalar. Jumladan, uzoq yillar davomida saqlanib kelinayotgan kapitallashuv darajasini pastligi faqatgina O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilingandan keyingina ijobiy hal etila boshladi. Tijorat banklari tomonidan ipoteka kredit berishning rivojlanishi esa faqat, Prezidentning «Uy – joy qurilishi va uy – joy bozorini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi Farmonidan so'ng yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan muomalaga plastik kartochnalar chiqarish sohasida ham xuddi shunday ahvelligini guvohi bo'lamiz. Bundan tashqari mamlakatimizdagi tijorat banklarining kredit, depozit siyosatlari deyarli bir-biridan farq qilmaydi. Marketing izlanishlari ham deyarli bir xil yo'nalishda olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlarini tijorat banklarida ijrosi bilan bevosita bog'liq, jumladan, naqd pullarning tijorat bankidan tashqari aylanishini yanada qisqartirish, mijozlarni birinchi talabi bo'yicha naqd pul bilan uzluksiz ta'minlash muammosi

ayrim banklarda mavjud. Ushbu masalani ijobiy hal etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-apreldagi «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga asosan naqd pul va naqdsiz pul muomalasini hamda hisob – kitoblar shaklini unifikatsiya qilish va mijozlarning birinchi talabi bo'yicha naqd pul bilan uzluksiz ta'minlash ko'zda tutilgan edi. Ayniqsa, mijozlarning birinchi talabi bo'yicha naqd pul bilan uzluksiz ta'minlash muammosi mavjud. Ushbu holatni ipoteka krediti va avtokredit olishda va hujjatlarni rasmiylashtirishda tijorat banklarining ma'sul xodimlarining befarqligi mijozlarning e'tiroziga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, elektron to'lov tizimining joriy etilishi bilan respublikamizdagi tijorat banklari tomonidan naqd pulsiz hisob – kitoblarning zamonaviy turi bo'lgan plastik kartochkalar orqali hisob – kitoblar keng yo'lga qo'yila boshladi. Albatta, tijorat banklari tomonidan muomalaga plastik kartochkalar chiqarish faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilgan. Lekin plastik kartochkalarga xizmat ko'rsatish darajasi esa nisbatan past. Jumladan, plastik kartochkalar orqali bankomatlardagi naqd pul olishda muammolar mavjud. Bunda asosiy muammo tijorat banklaridagi bankomatlar sonida emas, balki mavjud bankomatlarni naqd pul bilan ta'minlashdadir. Ushbu holat ham tijorat banklariga mijozlar tomonidan bo'lgan ishonchga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga kiritish uchun zarur infratuzilmaning yetishmasligi muammosi. Xalqaro bank amaliyoti shundan dalolat beradiki, bank faoliyatini globallashtiruvchi omil bo'lib, yangi texnologiyalar hisoblanadi. Chunki, hozirgi zamon texnologiyalari tijorat banklari tomonidan o'z mijozlariga dunyoning turli joylarida ham xizmat ko'rsatishiga imkoniyat yaratadi. Hozirgi zamon texnologiyalaridan biri bo'lib SVIFT (inglizcha SWIFT – Society for World – Wide Interbank Financial Telecommunications) tizimi hisoblanadi<sup>70</sup>. 1977-yildan ishga

<sup>70</sup> Финансы, деньги, кредиты учеб. под ред. доц. О.В. Сокловой. – М.: «Юристъ» 2001. 202 с

tushgan ushbu tizim tijorat banklariga xalqaro hisob – kitoblar olib borishda tezkor, samarador, konfidentsial hamda himoya qilingan xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyodagi tijorat banklarining amalga oshirayotgan xalqaro hisob – kitoblarning 80,0 foizidan ortiq SWIFT orqali amalga oshirilmogda. Lekin shuni ta’kidlash lozimki, respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklarining ayrimlaridagina SWIFT tizimi mavjud. Ushbu omil esa SWIFT tizimi mavjud bo‘lmagan tijorat banklarining mavqeyiga salbiy ta’sir ko‘rsatmogda. Zamonaviy texnologiyalardan hisoblangan «Internet banking» va «SMS banking» ham hozirgi zamon texnikalarini talab etadi. Faqatgina zarur texnikaga ega bo‘lgan tijorat banklarigina ushbu tizimlarni amaliyotga kiritishmogda. Bank xizmatlari bozorida yangi xizmatlarni yaratish marketingni zamonaviy texnologiyalarga asoslanganligini hisobga olsak, mamlakatimizdagi ayrim tijorat banklarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish sohasida jiddiy tashvish uyg‘otadigan ko‘pgina masalalar va muammolar hali – beri o‘z yechimini topmasdan qolmoqdaligini e’tirof etish lozim.

Tijorat banklarida bank xizmatlarini ko‘rsatishda asosiy e’tiborni baho siyosatiga qaratilayotganligini muammosi. Ushbu muammo hozirda tijorat banklarining kredit va depozit siyosatini olib borish bilan bevosita bog‘liqdir. Har bir tijorat banki mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda o‘z kredit siyosatini shakllantirishi faoliyatning muhim tomoni hisoblanadi. Bu berilgan kreditlashtirish jarayonida baholarning shakllanishi, ya’ni kreditlar so‘mda berilganda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking qayta moliyalashtirish stavkasiga, agarda xorijiy valyutada berilganida – LIBOR (inglizcha – *London Interbank Offered Rate*) stavkasini hisobga oladilar. Hozirda bank xizmatlari bozorida tijorat banklarining holatiga va joriy tarkibiga bog‘liq holda ularning boshqaruvchilari asosiy yoki bir nechta muqobil baho strategiyasini tanlaydilar. Amaliyotda bahoni shakllantirish usullari orasida keng

tarqalganidan biri, raqobatni inobatga olgan holda aniqlanadigan usulidir. Bahoning xarajatlar asosida aniqlanish usuli respublikamizda asosan yirik tijorat banklari tomonidan qo'llanilmoqda, lekin, ushbu usuldan tijorat bankining kredit operatsiyalari bo'yicha chiqimlar va xarajatlari aniq bo'lgandagina foydalanish mumkin.

Ushbu omillar esa tijorat banklarida asosiy bank xizmatlari bahosi optimal darajada emasligidan dalolat beradi. Bunga asosiy sabablar fikrimizcha quyidagilar hisoblanadi:

- tijorat banklari o'zlarining xarajatlari to'g'risida yetarlicha ma'lumotga ega emas va bozorda shakllangan baholarga qarab baho siyosatini olib bormoqdalar;

- tijorat banklarida alohida mijozlarga bo'lgan qiziqishining sustligi;

- taklif qilinayotgan kredit foizlarining haqiqatdan foiz stavkalariga mos kelmasligi;

- turli ichki va tashqi sabablarga asosan berilgan kreditlarning qaytarmaslik qaltisligini yuqori darajada mavjudlik va berilgan kreditlarning ta'minoti hajmi hamda turining har xilligini mavjudligi.

Banklararo raqobat shaoitlarida eng asosiy e'tiborga ega masalalaridan biri, bank xizmatlari bozorida baho siyosatini to'g'ri tanlashdan iboratdir. Bu borada tijorat banklari va uning mijozlari teng manfaatdor bo'lishi lozim. Shunday ekan, yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda bank xizmatlari bahosini, unga ta'sir etuvchi barcha omillarni o'rganishda marketingning ahamiyati ortib boradi.

Tijorat banklari xodimlari tarkibida marketing sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarning yetishmasligi muammosi. Dunyodagi yetakchi xalqaro banklarining raqobat quvvatining manbalarini keltiramiz. Ushbu manbalar quyidagilardan iborat:

1. Kapitalning yetarlilik darajasi. Har bir mamlakatda nazoratchi organlar tomonidan kapitallashuv darajasiga bo'lgan talablarini o'zgartirib turishi natijasida kapitallashuv darajasi past tijorat banklarining faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin;

2. Aktivlarning sifati. Sifati past darajadagi tijorat banklari bank xizmatlari bozorida kuchli raqobatga bardosh bera olmaydi;

3. Inson resurslari, tijorat banklarining boshqaruvining malakaligi, tadbirkorligi va kerakli ma'lumotga egaligi ularning bank xizmatlari bozorida oqilona va samarador faoliyat olib borishga imkoniyat yaratadi;

4. Ma'lumotlar, bank biznesining xususiyati juda boy ma'lumotga ega bo'lishdir. To'plagan mavjud ma'lumotlardan to'g'ri va kerakli vaqtda foydalana olishlik qobiliyati bank faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

5. Moliyaviy innovatsiyalar. Innovatsiya inson kapitalining funksiyalari, texnologiyalar, bozorning holati, tijorat bankini tartibga solib turish va korporativ madaniyatidan iborat;

6. Texnologiya. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, undan foydalana bilishlik bank xizmatlarini sifat darajasini oshirish va ular bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilishga imkoniyat yaratadi;

7. Franshiza. Nomoddiy, lekin juda muhim ahamiyatga ega aktivning turi hisoblanadi. Uning bahosi bankning tashkil topgani, moliya bozorida rivojlanish tarixi, taklif etayotgan xizmatlari va tijorat bankning mavqeyi hamda raqobatbardoshlikka bog'liq. Franshizaning bahosiga tijorat banklarining filiallari va mijozlar bazasi ham ta'sir ko'rsatadi.<sup>1</sup>

Mamlakatimiz tijorat banklarida marketingning tashkil etishdagi muammolar tarkibida kapitalning yetarliligi darajasi, aktivlarning sifati, ma'lumotlar bazasi, zamonaviy texnologiyalarni ta'kidlab o'tdik. Fikrimizcha, ushbu yo'nalishdagi eng asosiy muammo bo'lib, tijorat banklarida xodimlarning malakasi va kasb – mahorati darajasi hisoblanadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, AQSHda Federal Zaxira tizimi tomonidan tijorat banklarining faoliyatini baholashda foydalaniladigan «CAMEL» testda ham asosiy e'tibor bank xodimlarining malakasi va

tijorat banklarida menejment hamda marketingni qay darajada tashkil etilganligiga alohida e'tibor beriladi<sup>71</sup>.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ravnaqi uchun mam-lakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga talab beradigan moliya institutlari, bank-moliya infratuzilmasini yaratish va uning samarali ishlashi uchun salohiyati yuksak, bilimi chuqur, jahondagi ilg'or tajribani o'ziga singdirgan va uni ijobiy qo'llashga qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash yo'nalishida katta ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan kadrlar tayyorlash milliy dasturiga asoslangan kadrlar siyosati yuqoridagi vazifalarni bajarishga qaratilganidir. Xalqaro amaliyot shundan dalolat beradiki, tijorat banklarida mijozlar bilan barcha xodimlar o'rtasidagi muloqot-ning sifat darajasi asosiy e'tiborga ega.

#### **9.5. O'zbekiston bank xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish yo'nalishlari**

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirishga qaratilgan tadbirlar natijasida ko'p mulkchilik qaror topib, tijorat banklari o'rtasida erkin raqobat muhiti shakllanmoqda. Bunday sharoitda bank xodimlari oldida turgan eng muhim vazifa, bankning uzoq muddatli kelajak istiqbolini ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun istiqbolni oldindan ko'ra bilish, kutiladigan o'zgarishlar va tashqi ta'sirlarni o'z vaqtida sezish talab etiladi.

2018-yil 23-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi. Mazkur qaror-da amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bank tizimida xizmatlar ko'rsatishning bozor mexanizmlari joriy etilganligi, ularning turlari

---

<sup>71</sup> Диана Мак Нотон. Банковские учреждения в развивающихся странах. Том I. Всемирный Банк. Вашингтон. Д.С. 1994. 20 с.

kengayib borayotganligi, tadbirkorlar va aholi uchun moliyaviy ochiqlik oshib borayotganligi qayd etildi.

Aholi uchun valyuta ayirboshlash amaliyotlarini amalga oshirishni yengillashtiruvchi yangi bank xizmatlari joriy etilganligi, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan chet el valyutasini sotib olish uchun imkoniyatlar yaratilganligi ta'kidlandi.

2018-yil 1-iyuldan tijorat banklariga:

- dastlabki ruxsatlarsiz va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarsiz mijozlarga bevosita xizmat ko'rsatish hududiga to'sqinliksiz kirish;

- mijozlarni dastlabki qabul qilish ma'muriyat xodimlaridan ko'rsatilayotgan bank xizmatlari to'g'risida dastlabki maslahatlarni olish;

- kredit (mikroqarz) berish to'g'risidagi qarorni qabul qilishning bosqichma-bosqich jarayonini va kredit (mikroqarz) berish to'g'risida xabardor qilish yoki uni berishni asosli rad etish tartibini ko'rsatgan holda kredit buyurtmalarini shaffoflik asosida ro'yxatdan o'tkazish va ko'rib chiqish uchun sharoitlarni yaratish topshirig'i berildi.

2018-yil 1-iyulga qadar:

- tranzaksiyalarning xavfsiz va uzluksiz amalga oshirilishini ta'minlovchi milliy chakana to'lov tizimini tuzish va rivojlantirish;

- qulay to'lov xizmatlarini yaratish va rivojlantirish;

- naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirishda innovatsion mahsulotlarni, shu jumladan, bevosita muloqotsiz va mobil texnologiyalarni rivojlantirish hamda ilgari surish;

- bevosita muloqotsiz va mobil texnologiyalarni, birinchi navbatda, ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish, transport, savdo, umumiy ovqatlanish sohalarida, ayniqsa, hududlarda joriy etish;

- xalqaro to'lov tizimlari bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlash;

- O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi va tijorat banklari bilan birgalikda norezidentlarning to'lov kartalari barcha to'lov terminallari

tarmog'i orqali qabul qilinishini ta'minlovchi mahalliy to'lov tizimlarini asosiy xalqaro to'lov tizimlari bilan integratsiyalash jarayonini tugallash;

2018-yil 1-noyabrga qadar:

- tijorat banklari bilan birgalikda turistlar ko'proq boradigan joylarda kun-tun rejimda ishlovchi avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash shoxobchalari tashkil etilishini ta'minlash vazifalari yuklandi.

O'zbekiston banklari assotsiatsiyasiga bank xizmatlari ommabopligini oshirish va bank faoliyatini takomillashtirishdagi rolini kuchaytirishga qaratilgan, shu jumladan, quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish tavsiya etildi:

- O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi faoliyati samaradorligini yanada oshirish Konsepsiyasini tasdiqlash;

- bank tizimi xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish, ilg'or xalqaro tajribadan kelib chiqib xorijiy banklar bilan tajriba almashishni yo'lga qo'yish;

- mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirish;

- bank xizmatlari ommabopligining dolzarb muammolari, xalqaro tajribani o'rganish va uni respublika bank xizmatlari bozorida qo'llash yuzasidan takliflar ishlab chiqish, banklar va ularning mijozlari uchun axborot-tahliliy va konsalting xizmatlarini tashkil etish yuzasidan mavzuga oid izlanishlar olib borish;

- masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha zamonaviy va ilg'or bank xizmatlarini amaliyotda ro'yobga chiqarish tashabbuslarini ilgari surish, yangi axborot texnologiyalarini joriy etish;

- bank xizmatlarining yangi turlari va mahsulotlarini aniqlash hamda ularni keyinchalik respublika banklarida tatbiq etish maqsadida ilg'or chet el banklarining faoliyatini o'rganish.



Xizmatlar sohasida banklar aviakompaniyalardan keyin ikkinchi bo'lib marketingga murojaat qildilar va dastlab marketingning ayrim elementlaridan faol foydalanadilar.

Shu o'rinda, bank faoliyatini strategik rejalashtirishga alohida e'tibor qaratish joizdir. Strategik boshqarish inson salohiyatiga tayanib, ishlab chiqarish jarayonini iste'molchilar talablariga muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, raqobatda ustunlikni ta'minlaydigan o'zgarishlarni o'z vaqtida amalga oshiradi.

Strategik boshqarish tijorat bankining ilg'or odimlar bilan rivojlanishi negizidir. Biroq, banklar bilan aloqada bo'lgan mijozlar va boshqa shaxs hamda korxonalarining ko'pchiligi uzoq faoliyat ko'rsata olmasligi, ularning ko'plari raqobatda sinib ketishi mumkinligini ham unutmaslik darkor. Shu sababli, bankning uzoq muddatli rivojlanishi – uning o'z vazifalarini sifatli bajarishini, faoliyatidan o'zi va boshqa manfaatdor bo'lganlar, ya'ni mijozlar, hamkorlar va mulkdorlarning naf ko'rishini anglatadi.

Bank axborot tizimlarining barchasini fayl-server yoki mijoz-server texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan ikkita katta guruhga bo'lish mumkin. Mijoz-server texnologiyasi aslida andozaga aylanib qolgan. U axborot ishlash tezligining yuqoriligi, bu tezlik foydalanuvchilar soniga va ishlanadigan ma'lumotlar hajmiga uncha bog'lik emasligi; axborotni himoyalash imkoniyatlari rivojlanganligi, ma'lumotlarni tanlab olish va tahlil qilish jixatidan moslashuvchanligi kabi afzalliklariga ega. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, bunday texnologiyadan foydalanish kredit tashkilotining apparat-texnika jixatidan ta'minlanishiga, avvalo, ma'lumotlarni ishlashda qo'llanadigan server va tarmoqli uskunalarga bog'lik. Mijoz-server tizimi afzalliklari bir vaqtning o'zida ishlaydigan ko'p sonli foydalanuvchilarning katta hajmli axborot bilan ishlay olishida namoyon bo'ladi.

Bank axborot tizimini tanlashda, albatta, mazkur sohadagi so'nggi yutuqlarga e'tibor karatilishi kerak. Birinchi navbatda, bankning kattakichikligi, undagi xodimlar hamda avtomatlashtirilgan ish o'rinlari soni,

hujjat aylanishi hajmi va tarkibi, ichki bank hisobvaraqlari soni, filiallar tarmog‘i mavjudligi, valyuta operatsiyalari bajarilishi va hokazolarni nazarda tutish lozim. Bu esa axborot tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bank axborot texnologiyalari dasturiy ta‘minotdan tashkari, bank operatsiyalarining axborot va apparat-texnika ta‘minotiga oid vazifalarni ham hal qiladi. Shuningdek, axborot tizimini himoya qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni sanab o‘tish mumkin:

- ❖ elektron imzoning qo‘llanilishi;
- ❖ virusga qarshi bazalarning muntazam ravishda o‘zgartirib turish;
- ❖ serverlar resurslarini rejalashtirish va tarmoqdagi kompyuterlar talablarini kuzatib borish;
- ❖ ayrim dasturiy mahsulotlarning muhofazasini ta‘minlash;
- ❖ axborotlarning majburiy tartibda shifrlanishi;
- ❖ ma‘lumotlarni yetkazish bo‘yicha maxsus ajratilgan kanallardan foydalanish.

Xavfsizlikni ta‘minlash muammosi fakat birgina texnika vositasi bilan hal qilinmaydi. Bu vazifani dasturiy-texnik va tashkiliy chora-tadbirlarning butun bir majmui yordamida hal etish mumkin. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining bank sohasiga tatbiq qilinishi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki bank operatsiyasini ko‘rsatishda ko‘p qulayliklar yaratadi.

Tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda asosiy masalalardan biri bo‘lgan likvidlikni boshqarish maqsadida:

- ❖ aktivlarni boshqarish orqali likvidlikni ta‘minlash;
- ❖ likvid mablag‘lar talabini chetdan jalb kilingan mablag‘lar hisobiga qondirish;
- ❖ likvidlikni boshqarishning balanslashtirilgan usuli kabi usullar ishlab chiqilgan.

Mutaxassislarning fikricha, yuqoridagi usullardan tashkari, bankning likvid mablag‘larga ehtiyoji va uni qondirishini baholashning

